

# ONA TILI

*Oʻrta taʼlim muassasalarining 11-sinfi va oʻrta maxsus,  
kasb-hunar taʼlimi muassasalari  
oʻquvchilari uchun darslik*

*Birinchi nashri*

Oʻzbekiston Respublikasi  
Xalq taʼlimi vazirligi tasdiqlagan

**«Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi»**  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent—2018

UO‘T: 811.512.133’242(075.3)  
KBT 83.3ya72  
O-58

### Mualliflar:

N. M. Mahmudov, Y. R. Odilov,  
G. Sh. Ziyodullayeva

**Mahmudov, N.**  
O-58 **Ona tili:** O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik / N. M. Mahmudov va boshq. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 112 bet.

UO‘T: 811.512.133’242(075.3)  
KBT 83.3ya72

### Shartli belgilar:



– savol va topshiriqlar;



– esda saqlang;



– iqtidorli o‘quvchilar uchun mashq;



– lug‘at;



– bilib oling;



– uyga vazifa.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-07-620-4

© Mahmudov N. va boshq., 2018.  
© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.



## KIRISH

*Aziz o'quvchilar!*

Siz o'zbek tilining yer yuzidagi qadimiy va boy tillardan biri ekanligini juda yaxshi bilasiz. Uning ko'lamli va muhtasham so'z xazinasini, tovushlar rang-barangligi va mantiqiy-grammatik boyligi qiyossizdir. Ajdodlarimiz tomonidan bu tilda yaratilgan aql va badiiyat durdonalarining bashariyat tamadduniga qo'shgan muazzam hissasi buning isboti bo'lib kelmoqda. Albatta, bu adoqsiz iftixorga munosibdir.

Muborak hadisi shariflarda «Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir» deyiladi. «Odobning boshi til» ekanligini Mahmud Koshg'ariy bobomiz maqol tarzida qayd qilgan. Bizda, bizning madaniyatimizda latif so'zga oshuftalik, nutq latofatidan zavqlanish, ona tilida ta'sirli nutq ayta oluvchiga ayri-ayri havas bilan qarash azaliy urflardan hisoblangan. Sharqda, xususan, o'zbeklarda so'z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt eta bilish tarbiyalilikning, ziyolilikning belgilaridan biri sanalgan. Zotan, nutqning go'zalligi, nutqiy ifodaning aniqligi, rasoligi inson uchun o'ziga xos husn bo'lib, u millatning, jamiyatning umumiy madaniy kamolotini shakllantiradi.

Ajdodlarimiz qoldirgan hikmat durdonalari bo'lmish maqollarda inson nutq tuzishga e'tiborli bo'lishga da'vat etiladi, nutqning musallam o'rnini topib so'zlash talab qilinadi. Mana bu o'g'itlarni unutmaslik lozim: «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir», «Qopib emas, topib gapir», «So'z qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas» va hokazo.

*Aziz o'quvchilar!*

Siz oldingi sinflarda o'zbek tilining leksikasi, fonetikasi, grammatikasi va uslubiyati bo'yicha asosiy tushunchalarni o'zlashtirdingiz.

Siz umumiy tarzda bo'lsa-da, bilganingizday, til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallikni namoyon qilish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning barchasi muhim. Shuning uchun tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'lmaydi. Bu sinfda endi Siz ta'sirli nutq – madaniy nutq tuzish malakalari, ya'ni nutq madaniyati bilan tanishasiz, uning asosiy tushunchalarini egallaysiz.

Nutqning madaniyligini, demakki, ta'sir quvvatini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

Shuni unutmangki, har qanday nutq, avvalo, to'g'ri bo'lishi zarur. Ammo to'g'rilik sifatigagina ega bo'lgan, boshqa sifatlardan tamoman mahrum bo'lgan nutqni madaniy sanab bo'lmaydi. Ayni paytda nutqning madaniyligini ta'minlaydigan boshqa kommunikativ sifatlarni ham mazkur to'g'rilik sifatisiz tasavvur etishning imkoni yo'q. Shuning uchun ham to'g'rilik nutq madaniyatining birlamchi, ilk bosqichi hisoblanadi. Siz, albatta, bu sifatning asosiy chizgilari bilan oldingi sinflarda tanishgansiz. Shubhasizki, nutq madaniyatining oliy bosqichi sanaladigan aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi sifatning har birini yetarli darajada idrok qilish va ularni nutqda namoyon qila bilish madaniy nutqqa chinakam sohiblikning, shaxs nutqiy kamolotining zaminini tashkil etadigan jihatlardir.

Tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarni o'zlashtirishda Sizga g'ayrat va qunt hamdam bo'lishini tilaymiz.



## O‘ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI

**Topshiriq.** Matnni o‘qing. Unda ifodalangan fikr haqida mulohazalaringizni bayon qiling.

### Charxpalak

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim... Yog‘och gardishi ko‘hna? Temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan... Birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... Charxpalak nolali g‘iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko‘tarib, yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi... Nolali g‘iyqillaydi...

Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim...

So‘ng... Bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman.

Suv suv emas, men ekanman! Charxpalak charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?.. Bilmadim.

... Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

*(O‘. Hoshimov)*



O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, u yer yuzidagi eng qadimiy va boy tillardan hisoblanadi. Bu tilning ildizlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. O‘zbek tilida olamga mashhur ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan.

Bugun o‘zbek tili mustaqil O‘zbekistonning davlat tili sifatida davlatimiz ramzlari qatorida e‘zoz va ehtiromga sazovordir. O‘zbek tilining taraqqiyoti yurt istiqloli tufayli benihoya jadallashdi.

Tildagi o‘shish-o‘zgarishlarning xolis va birlamchi ko‘zgusi uning lug‘at boyligidir, jamiyatdagi har qanday o‘zgarishlar, eng avvalo, aynan xuddi shu boylukda o‘z aksini topadi. Yurtimiz hayotida

yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy yangilanishlar tili-mizning lug'at boyligida namoyon bo'lmoqda, bunday o'zgarishlar tilimizni yangi tushuncha va tasavvurlar bilan, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi yangi so'zlar bilan boyitib bormoqda.



Bugun mustaqillik bois paydo bo'layotgan yangi-yangi tu-shunchalarni ifodalash uchun, avvalo, o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari to'raligicha ishga solinmoqda, xususan, yangi so'zlar yasalmoqda (masalan, *dasturchi, ahdnoma, kafolatnoma; idoralararo, hukumatlararo, davlatlararo; nodavlat, nohukumat, notijorat, nomoddiy; mahalliyashtirish, kompyuterlashtirish, modellashtirish* kabi); eskirgan deb qaralgan so'zlar qaytadan tilga olib kirilmoqda (masalan, *ma'naviyat, millatparvar, qadriyat, jarroh, matbaa, muallif, munaqqid, tashxis, tijorat* kabi); til tabiatiga uyg'un tarzda ular-ga yangi ma'nolar yuklanmoqda (masalan, *vazir, viloyat, tuman, hokim, zobit* kabi); umrini yashab bo'lgan tushunchalarni ifodalov-chi so'zlar nafaol zaxiradan joy olmoqda (masalan, *kolxoz, sovxoz, ateist* kabi). Ilgari salbiylik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar davr taqozosiga ko'ra ijobiy bo'yoq kasb etmoqda (masalan, *biznes, biznesmen, millioner, savdogar, fermer, janob, kapital, parlament, firma* kabi). Zaruriy holatlarda esa xorijiy tillardan boshqa til vo-sitachiligida emas, balki to'g'ridan to'g'ri va me'yorga amal qilgan holda so'zlar o'zlashtirilmoqda.

Mamlakatimizda tamoman yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumning bar-po etilishi, bozor iqtisodi munosabatlarining qaror topishi, yangicha moliya-kredit tizimining paydo bo'lishi, fan va ta'lim sohasida-gi tub islohotlar, yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, barcha sohalardagi xalqaro aloqalarning mislsiz ko'lam kasb eti-shi va boshqa ko'plab o'zgarishlar xorijiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishiga tabiiy ravishda yo'l ochdi. Bugun o'zbek tiliga kirib kelgan, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moli-ya-iqtisod, siyosat, ta'lim va madaniyatga oid o'zlashmalar yuzlab emas, balki minglab degan o'lchovlar bilan o'lchanadi, ular keng omma nutqidan deyarli joy olib bo'ldi (masalan, *audiovizual, an-titerror, bakalavr, bankomat, barter, birja, brifing, gimnaziya, diler, investitsiya, investor, internet, kredit, litsey, magistr, monitoring, mul-timedia, reyting, sertifikat* kabi).

Ana shu tarzda mustaqillik davrida tilimizning lugʻat boyligi tarkibida jiddiy taraqqiyot yuz bermoqda.

Tilimizdagi mavjud nutqiy uslublar meʼyorlarining barqarorlashganligi ham (Siz buni oldingi sinflardan yaxshi bilasiz) oʻzbek tili taraqqiyotining yuksakligidan dalolat beradi.

- 1-mashq.** Sheʼrni oʻqing, unda ifodalangan gʻoya haqida fikrlashing. Milliy meros, ona tili va unga posbonlik haqidagi mulohazalaringizni bayon qiling.

### Ona tuproq


Avliyolar, daholarning beshigisan,  
Naqshbandlar topgan jannat eshigisan.  
Tiriklikning navosi ham qoʻshigʻisan –  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
Oʻzbekiston, ota makon, ona tuproq!

Yuragimda tulporlaring dukurlari,  
Qaysi yurtning bordir buyuk Temurlari?  
Olovlardan omon chiqqan Semurgʻlari,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
Oʻzbekiston, ota makon, ona tuproq!

Asl farzand merosiga posbon boʻlgay,  
Ozod elning orzulari osmon boʻlgay,  
Bobolarim ismin aytsam, doston boʻlgay,  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh,  
Oʻzbekiston, ota makon, ona tuproq!

Daryolarning izlarida daryo boʻlgay,  
Daholarning avlodi ham daho boʻlgay!  
Fido boʻlsa, shu Vatanga fido boʻlgay,  
Fido boʻlsa, shu Vatanga fido boʻlgay!  
Oʻzbekiston, ota makon, ona tuproq!

*(Iqbol Mirzo)*

- 2-mashq.**  Alisher Navoiyning soʻz, til borasidagi fikrlarini yodda tuting. Tilning inson faoliyatidagi oʻrni haqida bahslashing, asosiy gʻoyani ifodalovchi ixcham matn tuzishga harakat qiling.



Mir Alisher Navoiyning aksariyat asarlari, xususan, «Xamsa»dagi bir necha boblar soʻz taʼrifiga bagʻishlangan. Ularni mutolaa qilar ekanmiz, soʻzning qudrati, taʼsir kuchi, jilvasiga alohida urgʻu berilganligiga guvoh boʻlamiz. Shoir, avvalo, hayot mohiyati hisoblangan toʻrt unsur: suv, havo, olov, tuproqning ham, yetti qavat osmondagi yetti sayyoraning ham soʻz tufayli vujudga kelganini taʼkidlaydi.

Insonni hayvonot olamidani farqlovchi asosiy belgi ham soʻz ekanligini aytadi:

Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yoʻq ondin.

Shunday ekan, soʻz gavharining sharofati shunchalar yuksakki, uning qarshisida eng qimmatbaho narsalar ham qadrsizlanadi:

Soʻz guhariga erur oncha sharaf,

Kim boʻla olmas anga gavhar sadaf.

Xullas, Alisher Navoiy asarlari bizni dunyoning eng sirli moʻjizasi hisoblangan soʻzga ehtiyotkorlik va masʼuliyat bilan munosabatda boʻlishga, uni qadrlashga chorlaydi. (*M. Siddiqov*)

### 3-mashq.



Matnni oʻqib, undagi fikrlarga oʻz munosabatingizni bildiring. Oʻzbek tilining taraqqiyoti haqida bilganlaringizni yozing.

Til – inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatining quroli va harakatlantiruvchi kuchi, bu faoliyat natijasi sifatidagi tajribalarning jamlovchisi va saqlovchisi, kishilar oʻrtasidagi, ajdod va avlod orasidagi bilim-u axborot «oldi-berdisi»ning timsolsiz taʼminlovchisi. U yoʻqolsa, tamaddun tugaydi, u salomat boʻlmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi oʻzida xalq, erki oʻzida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qaygʻusini bir on unutmaydi.

Mustaqil Oʻzbekiston davlati erkinlikning dastlabki yillaridanoq oʻzbek tilining muhofazasi va taraqqiyoti uchun barcha qonuniy asoslarni yaratdi. Chorak asrdan oshdiki, oʻzbek tili davlat tili sifatida oʻttiz ikki milliondan ortiq nufusning nufuzli tili maqomida rivoj topib bormoqda.

Oʻzbek tili istiqloq bois misli koʻrilmagan taraqqiyot yoʻlidan bormoqda, jamiyatimizning tubdan yangilanishi, koʻlamli islohotlar tilimizning yanada boyishiga omil boʻlmoqda. Shu bilan birga, dunyo miqyosida yuz berayotgan oʻzgarishlarning taʼsiridan ham tilimiz tashqarida emas, muayyan bir jamiyat yoki xalq doirasidagina emas, balki bugungi globallashuv zamonida jamiyatlar va xalqlar hayotida minglab yangidan yangi

tushuncha-tasavvurlar paydo bo'lmogda va ular hech qanday to'siqni pisand qilmay, sur'at bilan dunyoning turli burchaklariga yetib bormogda. Dunyoning qaysi bir burchidagi til bo'lmasin, uning lug'at tarkibi mahalliy, mintaqaviy va global miqyoslardagi ana shunday turfa o'zgarishlarga muvofiq ravishda kengayib, muntazam o'zgarib bormogda va bu, albatta, tabiiy bir holatdir. So'nggi paytlarda, olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyat tasarrufidagi bilimlar hajmi har o'n yilda ikki barobarga ortib bormogda va bu holat ham til lug'at tarkibining jadal sur'atlar bilan boyib borishiga olib kelmogda.

Ma'lumki, tilning taraqqiyoti uning lug'at boyligida, bu boylikning ko'payishi, so'zlar ma'no tarkibining ko'lamdorlik kasb etishida, muayyan morfologik va sintaktik shakllarning rang-baranglashishi hamda me'yorlashishi kabi bir qancha jarayonlarda namoyon bo'ladi. (N. Mahmudov)

**4-mashq.** Matnni o'qing. Sarlavha qo'yib, unda ifodalangan fikrni o'z so'zlaringiz bilan hikoya qiling.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo'lmay, har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi. Tilning birinchi ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi. (A. Rustamov)

**5-mashq.** Shoir Dilshod Rajabning «So'z sehri» she'rini o'qing. Unda ifodalangan fikr doirasida bahslashing.

Har bir gap-u so'zimiz —	Qanday yaxshi so'z — kalom,
Go'yo oyna — ko'zgumiz.	Odob boshi — «Assalom».
Aytgan har so'zimizda	Xush yoqadi hamma vaqt:
Ko'rinamiz o'zimiz.	«Rahmat!», «Xo'p-xo'p!», «Marhamat!»



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dan olingan quyidagi so‘zlarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**BRIFING** Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari va-killari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki rasmiy xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi.

**IBTIDO** Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning boshlanish davri.

**INTIHO** Biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning tugash, nihoyalinish davri.

**ISTIFODA** Foydalanish, ishlatish. **Istifoda qilmoq** (yoki **etmoq**) foydalanmoq, ishlatmoq.

**MUNAQQID** Adabiy, ilmiy, publitsistik asarlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini o‘rganish hamda baholash bilan shug‘ullanuvchi adabiyotshunos, tanqidchi.

**TASHXIS** 1 Kasallik xarakteri va bemorning ahvoli haqidagi qisqacha tibbiy xulosa. 2 Odamdan boshqa jonli va jonsiz narsalarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirishdan iborat badiiy san‘at turi.

**TIJORAT** Savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari.

**UNSUR** Butunni tashkil etgan murakkab narsaning tarkibiy qismi.



1. O‘zbek tili qaysi til oilasiga mansub?
2. O‘zbek tilining mamlakatimizdagi maqomi haqida so‘zlang.
3. O‘zbek tilining boyligini misollar asosida tushuntirib bering.
4. O‘zbek tilining taraqqiyoti, eng avvalo, uning qaysi sathida namoyon bo‘ladi va nima uchun?
5. O‘zbek tilining dunyodagi nufuzi haqida gapiring.

#### 6-mashq.



«Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni demak – nodonning ishi» hikmati asosida matn tuzing.



## NUTQ MADANIYATI

#### Topshiriq.

Matnni o‘qing. Guruhlarga bo‘linib, ota-onaga murojaat shakllarini tanlash haqida fikrlashing.

Endi ota-onani tilga olganda ishlatiladigan soʻzlarga kelsak, otaga nisbatan «boboy», onaga nisbatan «kampir» singari soʻzlarni ishlatish nutq odobidan, xususan va umuman, odobdan tashqaridir. Adabiy tilda otani «otamiz», «padarimiz», «qiblagohimiz» deb, onani «onamiz», «volidamiz», «onayizorimiz», «volidayi mehribonimiz», «oq sut bergan onamiz» kabi soʻz va iboralar bilan tilga olinadi.

Bular nutq odobiga daxldor ijobiy hodisalardan hisoblanadi. Ammo «boboy», «kampir» kabi soʻzlar bolaning beodobligidan nishonadir. Ota oila boshi boʻlgani uchun unga ulugʻvorlikni bildiruvchi sifatlarni, onada bolaga nisbatan mehr ortiqroq boʻlgani va koʻproq mashaqqat chekkani uchun unga mehribonlik, mushfiqlik va mehnat-u mashaqqat anglatuvchi sifatlarni beriladi...

Ota-onaga murojaat qilganda, «jon» qoʻshimchasini qoʻshib, «ota-jon» yoki «dadajon» yoxud «adajon» yo «oyijon» deb murojaat qilinsa, ota-onaga boʻlgan ehtirom shartlaridan biri ado etilgan boʻladi. Ammo bu murojaat til uchida emas, astoydil boʻlishi kerak. «Jon» soʻzi jondan chiqsa, ota-onaning joni farzand joniga baraka bagʻishlaydi. Agar til uchidan chiqsa, ota-ona har qancha mehr-u shafqat koʻrsatmasin, bolaning ishi yurishmaydi. (A. *Rustamov*)



Odob juda keng va qamrovli tushuncha boʻlib, u nutqni toʻgʻri va oʻrnida qoʻllash odobini ham oʻz ichiga oladi. Buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk» kitobida «Odobning boshi tildir» degan maqol qayd qilingan. Ulugʻ alloma Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarida «til ardami» (nutq odobi) haqida bir qancha goʻzal hikmatlar mavjud:

1. Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,  
Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin.
2. Bilib soʻzlasa, soʻz donolik sanaladi,  
Nodoning soʻzi oʻz boshini yeydi.
3. Aql koʻrki soʻzdir va til koʻrki — soʻz,  
Kishi koʻrki yuzdir, bu yuz koʻrki — koʻz.

Soʻz mulkining sultoni Alisher Navoiy soʻzning muloqotdagi oʻrnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va loʻnda gapirishni fazilat deb bilgan:

Bir deganni ikki demak xush emas,  
Soʻz chu takror topti, dilkash emas.

Tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma‘rifat darg‘alari tilimiz muhofazasi, tilning sofligi va nutq odobi haqidagi jiddiy fikrlarni bayon qilganlar.

Bugungi nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashni nazarda tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma‘rifiy taraqqiyotining, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisi, o‘ziga xos ko‘zguvidir. Nutqiy mulotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog‘liq, chunki madaniy nutqqa chinakam ta‘sir kuchiga ega bo‘la oladi.

Tilshunoslikda «nutq madaniyati» termini, asosan, ikki xil ma‘noda qo‘llanadi, ya‘ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o‘rganish va o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.

**7-mashq.** Berilgan gapdagi g‘oyani o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalang. Bu g‘oyaning to‘g‘riligini dalillar asosida isbotlashga harakat qiling.

O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin. (*I. Karimov*)

**8-mashq.** Berilgan maqollarni yodda tutishga harakat qiling. Ularda ifodalangan fikrlarni o‘z so‘zlaringiz bilan bayon qiling. Shunday mazmundagi maqollardan yozib keling.



Aytar so‘zni ayt,  
Aytmas so‘zdan qayt.  
Bug‘doy noning bo‘lmasin,  
Bug‘doy so‘zing bo‘lsin.  
Yomon til boshga balo keltirar,  
Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

Sevdirgan ham til,  
Bezdirgan ham til.

Soʻzning boyligi — odamning chiroyligi.

Oʻynab gapirsang ham, oʻylab gapir.

### 9-mashq.



Nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida yozma matn tuzing.

### 10-mashq.

Matnni oʻqing. Madaniyatlilik va nutq madaniyati oʻrtasidagi aloqadorlik haqida oʻrtoqlaringiz bilan bahslashing.

Gap madaniyat yoki madaniylik ustida borganda, hozirgi baʼzi yoshlarning bemaʼni bir asovligi haqida gapirmasdan boʻlmaydi. Odamning oʻz ona tiliga boʻlgan mehr-u muhabbati va hurmati, oʻz tilini qanchalik biling-bilmasligi undagi madaniylik darajasiga oʻlchovdir. Madaniyatning tom mohiyatini tushungan, yaʼni madaniylik qonun-qoidalari tanasiga singib ketgan har bir odam oʻzi gapirgan tilning sofligi, tantanasi uchun hamma vaqt jon kuydiradi. Bunday odam ruscha gapirayotganda, rus tilining, oʻzbekcha gapirayotganda, oʻzbek tilining sofligini saqlaydi. Madaniyatning nima ekanini anglamagan, oʻz ona tilini qadrlamagan saviyasi past odamgina ruscha gapirib turib oʻzbekcha soʻzlarni, oʻzbekcha gapirib turib ruscha soʻzlarni aralastiradi. Bu esa har ikkala tilni buzish, ikkala tilning yuziga oyoq bosishdan boshqa narsa emas! Mazkur tillarda har qanday fikr va mulohazani juda chiroyli qilib bildirish, har qanday lavha va manzarani odam hushini oladigan qilib tasvirlash mumkin.

Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmagan yo toza gapirishni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb boʻlmaydi. Gapning qisqasi, madaniyatli boʻlish uchun odamga faqat bilim, kiyim, taqinchoq, yaxshi roʻzgʻorning oʻzigina kifoya emas, shular bilan birga shirinsoʻzlik, tozalik, saranjomlik, ogʻirlik, halollik va eng muhimi, oʻz ona tiliga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat ham zarurdir. (*Mirzakalon Ismoiliy*)

### 11-mashq.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan olingan parchani oʻqing, undagi fikrlarga oʻz munosabatingizni bildiring.

Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas...

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar... Boshimizga keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tili-mizdan keladur. Shuning uchun: «Ko'p o'yla, oz so'yla», – demishlar. Tillarning eng yaxshisi – so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur.



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Jon kuydirmoq** Ruhan kuchli bezovtalangan holda g'amxo'r bo'lmoq.

**Yuziga oyoq qo'ymoq** Behurmat qilish darajasida hisoblashmaslik.

*Varianti:* **yuziga oyoq bosmoq; yuziga oyoq tiramoq.**



1. Nutq odobi deganda nimani tushunasiz?
2. Ulug' allomalarimizning so'zni qadrlash, nutq odobining zaruriyati haqidagi qanday hikmatlarini bilasiz?
3. Nutq madaniyati va nutq odobi tushunchalarining o'zaro munosabati haqida gapiring.
4. Nutq madaniyati jamiyat madaniyatining ko'zgusi ekanligini misollar asosida tushuntiring.
5. «Nutq madaniyati» terminining ikki ma'nosi haqida so'zlang.

## 12-mashq.



«Yaxshi so'z qand yedirar, Yomon so'z pand yedirar» maqolidagi g'oyani o'z so'zlaringiz bilan ifodalab, yozma matn tuzing.



## MADANIY NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY SIFATLAR

**1-topshiriq.** Atoqli tilshunos Alibek Rustamovning «Soʻz xususida soʻz» kitobidan olingan parchani oʻqing. Nutq rang-baranligining tinglovchiga taʼsiri haqida fikrlashing.

Tilda bir narsaning oʻzini turlicha atash imkoniyati ham koʻpdir. Bunda maʼnodosh soʻzlardan, soʻzlarning koʻp maʼnoliligidan va yangi soʻz yasash imkoniyatlaridan foydalaniladi. Turlicha taʼbir birikma, gap, fasl, bob va kitob doirasida ham amalga oshiriladi va bu bilan sanʼatning muhim asoslaridan biri boʻlmish turlilik, rang-baranglik vujudga keladi.

Sanʼatga zavqi bor kishi tilning mazkur imkoniyatlaridan foydalanib, oʻz nutqiga yoki adabiy asariga badiiylik, eshituvchi yoki oʻquvchiga laz-zat bagʻishlaydi.

**2-topshiriq.** Oʻzbek shoiri Sayfi Saroyining berilgan baytidagi soʻzning oʻrnini bilish haqidagi fikriga munosabat bildiring.

Oqil oʻz soʻzin oʻrnida soʻzlagay  
Ham javobini munosib koʻzlagay.



Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchi (oʻquvchi)ga yetkazish, shu yoʻl bilan unga taʼsir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday taʼsir quvvatiga ega boʻlishi uchun, albatta, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlar mavjud boʻlishi kerak.

Nutqning madaniyligini taʼminlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha boʻlib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, joʻyalilik.

Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini oʻzida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bogʻliq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, yaʼni nutqda toʻgʻrilik sifatining mavjudligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.



**13-mashq.** Hassos shoir Erkin Vohidovning «Soʻz latofati» kitobidan olingan matnni oʻqing. Maqolni qoʻllashda nutqning aniqligi va mantiqiylikiga yetkazilgan zarar haqida shoirning mulohazalariga munosabat bildiring.

Xalqda «Mehmon otangdan aziz», «Ustoz otangdan ulugʻ» degan hikmat bor. Biror aqlli zot, otadan ulugʻ, otadan aziz inson boʻlmaydi deb aytgan, chogʻi, keyingi vaqtda «Mehmon otangdek aziz», «Ustoz otangdek ulugʻ» deyish urf boʻldi. Otadan ulugʻ va aziz kishining yoʻqligi — haqiqat. Aynan shuning uchun ham bu tashbeh ishlatiladi.

Maqolni tahrir qiluvchi oshnolarga maslahatim bor: Agar «-dan» oʻrniga «-dek» qoʻshishni juda xohlasangiz, xalqning boshqa bir iborasi borki, uni shunday tahrir qilsa, savobli ish boʻladi. «Toʻylar qiling, qamishdan bel bogʻlab xizmat qilay», — deydilar. Aslida, qamishdan bel bogʻlash emas, qamishdek bel bogʻlab xizmat qilish toʻgʻriroq boʻladi.

**14-mashq.** Alibek Rustamovning «Soʻz xususida soʻz» kitobidan olingan quyidagi parchani oʻqing va undagi fikr atrofida mulohaza qiling.

Xotinlarni *falonchi xonim* yoki *begim* deb atash bor. Bu soʻzlardagi *-im* qoʻshimchasini egalik qoʻshimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda *xon* bilan *bek* ayol kishiga aylanadi, degan savol tugʻilishi tabiiydir. Vaholanki, *xonim* va *begim* soʻzlari-dagi *-im* qoʻshimchasi egalik qoʻshimchasi emas. Qadim turkiy tillarda «ona» maʼnosidagi *uma* soʻzi boʻlgan. *Begim* va *xonim* soʻzlari tarkibidagi *-im* ana shu *uma* soʻzining ixchamlashganidir. Demak, *xonim* «mening xonim» emas, «xon ona» va *begim* «mening begim» emas, «beg ona» degan maʼnoda ekan.

**15-mashq.** Matnni oʻqing. Mulohazalaringiz bilan oʻrtoqlashing.



Baʼzan *hayratomizni hayratomuz* shaklida ishlatadilar. Buning toʻgʻri shakli qaysi va *omuz* yoki *omiz* nima degani? Forscha talaffuzi *omixtan*, tojikchasi *omextan* degan feʼl bor, maʼnosi «qormoq, qorishtirmoq, aralash-tirmoq, aralashmoq»dir. Yana *omuxtan* degan feʼl ham mavjud boʻlib, bunisi «aralashmoq, aralash-tirmoq» maʼnosidadir. *M* tovushidan soʻng *i*

yoki *e* bo'lsa, ya'ni *omixtan* yoki *omextan* deyilsa, «aralashmoq, aralashtir-moq» degan ma'noda bo'ladi, agar *i* yoki *e* o'rnida *u* bo'lsa, «o'rganmoq, o'rgatmoq» degan ma'no chiqadi. *Omez* yoki *omiz* bo'lsa, «aralashar, aralashtirar», *omuz* bo'lsa «o'rganar, o'rgatar» ma'nolarini anglatadi. Bino-barin, *hayratomuz* emas, *hayratomiz* degan to'g'ridir. Chunki *hayratomuz* deyilsa, «hayrat o'rgatar» tarzidagi ma'no chiqadi. *Omixta* so'zi ham shu fe'ldan bo'lib, buning ma'nosi «aralash» degani. Shuning uchun *omuxta yog'* deganga nisbatan *omixta yog'* degan to'g'riroq bo'ladi. *Omixta* va *omiz*ning ayrim shevalar nuqtayi nazaridan *omuxta* va *omuz* deb aytilishi xato emas, chunki *mdan* keyingi *ining m* ta'sirida lablanib *uga* aylanishi qonuniy hodisadir, ammo adabiy til nuqtayi nazaridan *hayratomiz* bilan *ibratomuz*dagi *omiz* va *omuz*ni farqlash lozim. Birinchisi «hayrat aralash», ikkinchisi «ibrat o'rgatar» degan ma'nodadir. (*A. Rustamov*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'a-ti»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ipidan ignasigacha** Butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil. *Varianti: ignasidan ipigacha* *Ma'nodoshi: miridan sirigacha; qilidan quyrug'igacha.* *O'xshashi: boshdan oyoq.*

**Istarasi issiq** Xush ko'rinishli, yoqimli, jozibador. *Varianti: yulduzi issiq; sitorasi issiq.* *Zidi: so'xtasi sovuq.*



1. Nutqning asosiy maqsadi haqidagi mulohazalaringizni ayting.
2. Nutqning kommunikativ sifatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqning to'g'rilik sifatini tavsiflang.
4. Madaniy nutq tushunchasini izohlang.
5. Nutq madaniyatining birinchi va ikkinchi — oliy bosqichlari haqida gapiring.

**16-mashq.** Matnni ko'chiring, gapda so'zlarning qanday bog'lanayotganini aniqlang.



## Беминнат do'st

E'tibor berganmisiz-yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi. Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganida ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima tama qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatingizni qilaveradi.

Bu do'stning nomi – kitob. (O'. Hoshimov)



## NUTQNING TO'G'RILIGI

**Topshiriq.** Gaplarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi grammatik shakllarning adabiy til me'yorlariga qay darajada muvofiq qo'llanganligi haqida fikrlashing.

1. Yaxshisi, chopqillab chiqqin-da, kesak otib, boyqushni **uchirtirib yubor**. 2. Ko'l yoqasidan o'tgan zaxkashning muzdek salqin zaxob **suviga** qiychuvlashib **cho'milishamiz**. (S. Ravshanov)



Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatleri ayni shu to'g'rilik mavjud bo'lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to'g'ri bo'lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas.

Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarining poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi.

Siz bilasizki, adabiy me'yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo'lib, o'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1) leksik (so'z qo'llash) me'yorlar; 2) talaffuz me'yorlari; 3) so'z yasalishi me'yorlari; 4) morfologik me'yorlar; 5) sintaktik me'yorlar; 6) uslubiy me'yorlar.

Adabiy til me'yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib keladi. Ammo badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylilik uchun xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi grammatik me'yorlarga ko'ra, ega shaxs bo'lmasa, u ko'plik sonda bo'lsa-da, kesim ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy asarda tasvirga erka bir ohang berish maqsadi bilan mahoratli ijodkor Abdulla Qodiriy *Bu xabarni eshituvchi – Kumushbibining qora ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar* tarzidagi go'zal jumlani tuzadi.

**17-mashq.** Berilgan parchada badiiy maqsad bilan so'z yasalishi me'yorlaridan chekinish holatini izohlang.

Uning (Otabekning) ko'ngil mevasi bu kungi qora voqea bilan qanday o'ralib, yo'qolib ketgan bo'lsa, bundagi daraxtlar ham o'z mevalarini kecha rangi bilan bo'yab, yashil yaproqlari ila ko'mgan edilar, ya'ni bunda o'sgan daraxtlar qanday meva beradir – ajratish qiyin edi. U shu qorong'uzor bilan qo'shilishib ketgandek va qorong'ulikning quchog'iga kira borgandek mevazorning ichkarisiga yura bordi. (*Abdulla Qodiriy*)

**18-mashq.** Matnni ko'chiring va **otlanmoq** so'zi bilan bog'liq holda leksik me'yorning turg'unligi haqida fikr yuriting.

Taraqqiyot shunchalik tezlashib ketdiki, sal bo'shshsang, yo modadan orqada qolasan, yo avtobusdan. Hatto so'z tug'ilish sur'ati ham bu taraqqiyot oldida juda imillayapti. Masalan, qadimda *Yo'lga otlandi* degan gap bor edi. Hozir otlar o'rnini texnika egallab oldi. Lekin *Yo'lga otlandi* gapi hamon tilimizda. *Yo'lga otlangan* odam esa yalpayib mashi-

nada o'tirgan bo'ladi. Demak, *Yo'lga mashinalandi* degan gap tug'ilishi kerak edi-da. (O. Farmonov)

**19-mashq.** Matnni o'qing, **fuqaro** so'zining me'yorlashganligi haqida fikrlashing.



O'tmishda *fuqaro* o'rnida, asosan, *tabaa*, *raiyat* so'zlari, ba'zan shu so'zning o'zi ham qo'llangan. Alisher Navoiy asarlarida *raiyat* so'zi ko'p uchraydi...

Sho'rolar zamonida bu so'z o'rnida asli lotincha bo'lmish *grajdan* so'zi ishlatilgan. Mustaqillikka erishilgach, atama sifatida *fuqaro* joriy etildi. Bu asli arabcha bo'lib, *faqir* so'zining ko'plik shaklidir. Arab tilida «yo'qsil», «kambag'al», «muhtoj», «bechora» ma'nolarini bildiradi. Lekin o'zbek tiliga kirib kelgach, ma'nosi o'zgarib, «tabaa, raiyat, shuningdek, grajdanlik» ma'nosini kasb etgan. Qolaversa, ajdodlarimiz so'zlaganlarida, yozganlarida kamtarinlik yuzasidan o'zlarini (*men* so'zini ishlatishni odob yuzasidan takabburlik deb bilib) *fuqaro*, *faqir-u haqir* deb ataganlar: «*Faqir-u haqir janoblariidan o'tinib so'raydikim...*», «*Faqiringizni afv etgaysiz.*» va hokazo kabi. Demak, *fuqaro* so'zi mumtoz adabiyotda va jonli so'zlashuvda qo'llanilgan. Shu sababli *fuqaro* so'zining atama sifatida qabul etilishi va joriy qilinishi asosli va qonuniydir. (A. Ibrohimov)

**20-mashq.** She'riy parchadagi g'ayriodatiy birikmalarni aniqlang, adabiy me'yordardan chekinishni tushuntiring. Ulardagi badiylik haqida fikrlashing va birikma tarzida ko'chiring.

Tovushlarning kichik, ulug'i,  
 Tovushlarning hidi — bo'yi bor.  
 Tovushlarning sovuq, ilig'i,  
 Tovushlarning rangi-ro'yi bor.  
 Tovushlarning shirin-achchig'i,  
 Bordir hatto yumshoq, qattig'i.  
 Shoir rassom bo'lsaydi agar,  
 Chizar edi shundan lavhalar.

(Maqsud Shayxzoda)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ich-etini yemoq** Ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikir-o‘yini boshqalarga aytmay). *Varianti: ichini yemoq; etini yemoq. Ma’nodoshi: o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq. O‘xshashi: ichini kemirmoq; o‘zini o‘zi yeb qo‘ymoq.*

**Kayfi buzuq** Kayfiyati yomon, xafa. *Ma’nodoshi: ta’bi xira; ta’bi tirriq. O‘xshashi: avzoyi buzuq.*



1. Qanday nutq to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi?
2. Adabiy me‘yor deganda nimalarni tushunasiz?
3. Adabiy me‘yorning qanday turlarini bilasiz?
4. Nutqda ma’nodosh so‘zlardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish qaysi me‘yorga asoslanadi?
5. Badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me‘yorlaridan chekinish mumkinmi?

**22-mashq.** Berilgan misollarda adabiy til me‘yorlariga nomuvofiq qo‘llangan, ammo badiiy vazifa bajargan birliklarni izohlang va yozing.



1. Gulsara tim qora tuflisini do‘qillatib xonamga kirdi. – E, qaldirg‘ochmi u? Yaxshi odamlarning uyiga in qo‘yadi deyishadi... Kampliment emas, Quvvatjon... Singlimmi uyida den rojdeniyada edik. Uning eri shishkalardan. Sudya. (*Sh. Xolmirzayev*)
2. Hademay bir-ikkita sovlig‘im qo‘zilaydi. Og‘iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin. (*Sh. Xolmirzayev*)
3. Akalari izidan Samarqand borsa, «Ko‘nglim shuni xohladi, borib aytinglar otamga», – deb ularni qaytarib yuborgan ekan. (*Erkin A‘zam*)
4. Yo‘q, qorin janoblari to‘qlar, ertalab baliq yegan edik, faqat choy bo‘lsa kifoya, – dedi u kulib. (*N. Aminov*)



## YOZMA NUTQNING TO‘G‘RILIGI VA ME‘YOR

**Topshiriq.** Berilgan gaplardagi imlo me‘yorlariga amal qilinmagan o‘rinlarni aniqlang.

1. Fuqarolar yig‘inlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda jamoatchilik komissiyalarining o‘rni sezilarli bo‘layapti. 2. «Barakalla ota-o‘g‘il, bopladiniz!» O‘g‘li Hasanboyni bag‘riga mahkam bosib, shunday deyishni diliga tukkan Ma‘rufjon Hayitboyevni suhbatga tortamiz. (*Gazetadan*)




Siz bilasizki, adabiy tilning yozma shaklida to‘g‘rilik sifatining ta‘minlanishi uchun yana ikki turli me‘yorga amal qilish lozim. Bu me‘yorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) me‘yorlari; 2) tinish belgilari (punktatsion) me‘yorlari.

Imlo me‘yorlari mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy an‘analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug‘atlarida o‘z aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni ta‘minlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo‘llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so‘zlar, morfemalar kabi til birliklari bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o‘rin tutadi. Siz oldingi sinflarda xabardor bo‘lganingizday, bu belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta‘minlashda benihoya zaruriy vositadir.

**23-mashq.** Gaplarni o‘qing. Bugungi adabiy me‘yorlarga zid holda qo‘llangan so‘zlarni aniqlang va ularni muvofiq muqobili bilan almashtiring.

1. Xalq tarixini o‘rganishi lozim bo‘lgan ilmgoh, asosan, Xolidiyning xizmatini o‘tash bilan mashg‘ul edi. (*Tohir Malik*) 2. Nomini tutib baloga qolmaylig-u, poytaxtdagi nufuzli, ko‘chadan kelgan har qanday odam ikki dunyoda ham ostonasiga qadam bosolmaydigan bir bilimgo‘hning yil sayin qabul hay‘atida bakovullik qiladigan yo‘g‘on domlasi qanaqa davron surishi mumkin — tasavvur qilib olavering. (*Erkin A‘zam*) 3. Aytishlaricha, bir havaskor muxbir nohiya ro‘znomasiga maqola yozib olib borgan emish, muharrir ko‘rib: «Xo‘sh, nima, Dneproges qurilibdimi, bu haqda butun boshli maqola chiqarsak?!» (*Asqad Muxtor*) 4. Bo‘sh vaqt bermas jarida ham noshirlikning ishi ko‘p. (*E. Vohidov*)

**24-mashq.**  Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling, ular ifodalayotgan ohang va mazmuni izohlang.

1. Bozorqul aka, nima bo‘ldi? — dedi ko‘ziga tikilib. — Hech gap yo‘q... Hech... Hech... hech nima bo‘lgani yo‘q, — dedi tutilib. (*Asqad Muxtor*) 2. Yo‘q, yo‘q, nega, bezak, bezak! Buni endi hamma shunday biladi. (*Asqad Muxtor*) 3. Xiylagina qizib qolgan «yubilyar» tuyqusdan stolni urib qichqirdi: «O‘v student! Bas qilasanmi, yo‘qmi?!» (*Erkin A‘zam*) 4. Ro‘molcha-a! Qani meni ro‘molcham?! Ro‘molchamni topib ber, Dezdemonal! — O‘zingni bos, Otello! Ro‘molchangni yaxshilab yuvib, dazmollab qo‘yganman. (*Erkin A‘zam*)

**25-mashq.**  Berilgan gaplardagi tinish belgilari me‘yorlariga amal qilinmagan o‘rinlarni aniqlang va ularga izoh bering.

1. Chol salmoqlab gap boshladi: — E, xotin o‘lmaydigan odam bormi? (*Said Ahmad*) 2. Orif aka saratonning jazirama, kunlaridan birida, Ergashga bergan va‘dasiga muvofiq, bog‘lardan xabar olgani Ko‘ykiga chiqib ketdi. (*Asqad Muxtor*) 3. O‘zingiz xabar bermaysizmi ishqilib? — Matkarimov xezlanib o‘rnidan turib ketdi. (*Asqad Muxtor*) 4. Kimingiz bo‘ladi, bu xotin? — deb so‘radi dabdurustdan. (*Tohir Malik*) 5. Yigitdan tayinli javob ololmasligini bilsa ham yana so‘radi: — Kim telefon qilgandi? — Bilmadim, mehmon kelibdi shekilli... (*Tohir Malik*)



**26-mashq.** Berilgan gaplarni hozirgi uslubiy me'yorlarga mos ravishda qayta tuzing. Ular o'rtasidagi farqli jihatlarni ayting.

1. Sohibqiron hayratda anchagacha so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, — ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash'oridin aytsin. 2. Aytmaydur, — deyishdi chollar. — Qo'rg'onimiz atrofida yer quchib nigun bo'lgan yarim elatimiz hurmati, hozir Olloh aning dilig'a hikmat kalomini solmag'ay... 3. Norasidani ko'rdingmu? — dedilar Sohibqiron bosh ko'tarmay. 4. Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehriyat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig' chirmagan dunyo ishlaridin sal chalg'itishga urunamen. 5. Dayrda ko'p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo'lsa, Ollohning madadi, bandasining tadbiri biladur. (*Asqad Muxtor*)

**27-mashq.** Yozma nutqning to'g'riligiga ta'sir etayotgan o'rinlarga diqqat qiling, so'zlardagi imlo xatolarini aniqlang.

1. It beparvo, eshaklarga yondash ketyapti, goho uchgan qushlar ovozi-ga diqqat qilib, shalpang quloqlarini dikkaytiradi, hamrohlariga ma'nodor qaraydi, so'ng yana lo'killab yo'lida davom etadi. (*Sh. Xolmirzayev*)  
2. Hammasi tinch, salom deb yuborishdi... — dedi Rahim Saidov masalaga qanday yondoshishni o'ylar ekan. (*O'. Umarbekov*)  
3. Mahallada katta tayyorgarlik bilan o'tqazilgan tadbirda keksa-yu yosh faol ishtirok etdi. (*Gazetadan*) Bahor kelishi bilan bog'larda ko'chat o'tkazish ishlari avj oldi. (*Gazetadan*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'a-ti»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ko'z ilg'amas I** Bilinar-bilinmas, mayda.

**Ko'z ilg'amas II** Cheksiz, poyoni (oxiri) ko'rinmaydigan.



1. Adabiy tilning qanday shakllari bor?  
2. O'qituvchingiz yordamida til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarini izohlang.

3. Yozma nutqning to'g'rilik sifati ta'minlanishi uchun qanday me'yorlarga amal qilinishi zarur?
4. Imlo me'yorlarining savodxonlikni ta'minlashdagi o'rni haqida nimalarni bilasiz?
5. Tinish belgilari me'yorlarining nutqdagi o'rnini izohlang.

**28-mashq.** Asosiy tinish belgilari va ularning me'yorlari haqida ilmiy matn tuzing.



## MUSTAHKAMLASH

**Savol va topshiriqlarga javob bering.**

1. Nutq odobi va nutq madaniyati tushunchalarini izohlang.
2. Nutq madaniyati fani qaysi fanlar bilan aloqador?
3. Nutqning to'g'riligi qanday me'yorlar bilan belgilanadi?
4. Adabiy me'yorlarning nutq madaniyligini ta'minlashdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Savodxonlik tushunchasini tavsiflang.
6. Til birliklari bilan ko'rsatib bo'lmaydigan turlicha fikriy munosabatlar hamda psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda nimalardan foydalaniladi?
7. So'z yasash me'yorlari nima?
8. Talaffuz me'yorlari-chi?

**1-topshiriq.** Matnni o'qing va uning nutq madaniyligini ta'minlaydigan kommunikativ sifatlarga qay darajada mosligini tushuntiring.

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat ko'zi tushganda, shubha paydo qilgandagina jinoyatchining qo'lini ushlaydi, yo'lini to'sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo'ya ish qilish uchun qo'l ko'targani yo'l qo'ymaydi. Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi. (*Abdulla Qahhor*)

**2-topshiriq.** Alibek Rustamovning «Soʻz xususida soʻz» asaridan olingan parchani oʻqing. Oʻzbek tilida maʼnodoshlik hodisasining namoyon boʻlishiga diqqat qiling.



Havo harakatini bildiruvchi soʻzlar *yel, bod, shamol, janub, sabo, dabur, dovul, shurta, esin, nasim, shabboda, tundbod, garmsel, samum, sarsar, izgʻirin, boʻron, boʻragʻon, purga, toʻfon, tayfun, uragʻan* yoki *uragan, girdbod, quyun, uyurmadir.*

*Shamol* soʻzining oʻzi, aslida, shimoldan esgan yelni bildiradi. Lekin hozirgi oʻzbek tilida bu soʻz keng maʼnoda qoʻllanadi. Maxsus eski kitoblarda janubdan esgan yel *janub* deb ataladi, ammo bugungi oʻzbekchada *janub* soʻzi mazkur maʼnoda butunlay ishlatilmaydi. Gʻarbdan esgan yel eski kitoblarda *dabur* deyilgan, ammo hozir bu soʻz *dovul* shaklini olgan va vayronalik keltiradigan kuchli shamolni bildiradigan soʻzga aylangan.

*Sabo* soʻzi sheʼrda koʻp ishlatilgani uchun oʻz shakli va maʼnosini oʻzgartirmagan. Sharqdan esadigan yel *sabo* deb ataladi. *Sabo* – tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo boʻlishiga tongda koʻpincha Sharqdan yel esib turishi sabab boʻlgan.

*Esin, nasim* va *shabboda* yoki *shabada* soʻzlari mayin yelni bildiradi. *Samum* va *garmsel* soʻzlari issiq shamolni, *sarsar, izgʻirin* yoki *izgʻiriq* sovuq shamolni bildiradi. Bir ishni qilayotganda kishiga yordamlashadigan, masalan, kemani kerakli tomonga suradigan yel *shurta* deb ataladi.

*Boʻron, buran, burya, purga* degan soʻzlarning kelib chiqishi bir. Bular «*boʻron*» maʼnosidagi *boʻr* oʻzagidan yasalgan soʻzlardir.

Mazkur soʻzlarning rus va oʻzbek tillaridagi maʼnolari haqida gapiradigan boʻlsak, ruschada *buran* deganda, asosan, choʻl yoki dalada qishda yerdagi qorlarni toʻzgʻitadigan kuchli shamol tushuniladi. Oʻzbek tilida bu maʼnoda *izgʻirin* yoki *izgʻiriq* soʻzlari qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida *boʻron* deganda, umuman, shiddatli shamol tushuniladi. Rus tilida bu maʼnoda *burya* soʻzi qoʻllanadi. Amerika qitʼasi atrofidagi boʻladigan oʻta kuchli okean shamolini *uragʻan* yoki *uragan*, janubi sharqdagi Tinch okeanning kuchli shamolini *tayfun* deb ataydilar. Yogʻin, shamol va sel natijasida yer yuzini yoki uning katta qismini suv bossa, buni *toʻfon* deyiladi. *Tayfun* bilan *toʻfon* soʻzlarining kelib chiqishi bir.

Aylanma shamolga nisbatan oʻzbek tilida *quyun, uyurma* va *girdbod* soʻzlari qoʻllanadi. Havoshunoslikda *siklon* deb havoning bulutlarni quyushtiradigan aylanma harakatiga aytiladi.

**3-topshiriq.** Matnni o‘qing va unda nutq madaniyligini ta’minlovchi qaysi sifatlar buzilganligi aytilayotganini tushuntiring.

Ayrim ijodkorlar yozgan narsalarini o‘zlari bir kitobxon sifatida ko‘zdan kechirishga yo hafsala qilmaydi, yo ko‘zdan kechirib, ko‘rgan chatoqliklarini tuzatishga erinadi. Har ikkisi ham yozuvchi uchun gunoh... Kitobxonni gangiratadigan mana shunday gaplar bilan qanday kelishdi ekan:

Hikoyada *Jalanglab turgan qora ko‘zlari ko‘zimga sanchilar edi* deydi. Shunday vaqtda *sanchiladi* degan so‘z ruschada qo‘llanadi. Lekin o‘zbekchada hech qachon aytilmaydi. O‘zbekcha bilgan rus yozuvchisi qanday qilib *Yuragim tutday to‘kildi* degan gapni aynan tarjima qilib ishlatadi. Boshqa hikoyada chol *eh-he* deb yo‘taladi. «Qahramonning o‘limi»da bomba *bux* deb yoriladi. Bular ham ruschadan aynan ko‘chirilgan. «Yashasin do‘stlik»da shamol bilan shabadaning farqiga borilmaydi. Uningcha, «Ochiq derazadan mayning mayin shamoli esadi». *Tasavvur qilar edim* demay, *Xayolim uni tasavvur qilar edi* deydi. *Otni jadallatdi* deyish o‘rniga *Otning jilovini siltab, tezlashini qistadi* deydi. (*Abdulla Qahhor*)

**4-topshiriq.** Berilgan parchani o‘qing. Atoqli adibning o‘zbek tilining boyligi haqidagi fikrlari atrofida o‘z mulohazalaringizni bayon qiling.

Suhbat qizigan sayin Odil Yoqubovning bahri-dili ochilib borardi. U yozuvchi mahorati, so‘z san’ati... o‘zbek tilining ko‘rkamligi, burroliqi, pishiqligi va jozibadorligi, boy va ixchamligi; so‘z ko‘ngil maxzanining qulfi-kaliti ekani, inson tafakkuridagi eng yuksak, eng chuqur va eng otashin tuyg‘ularni so‘zda ochiq-oydin ifodalash fazilatlarini; so‘zlarni turfa ranglarga bo‘yab-bejamaslik, dabdabali, balandparvoz, chaynalgan, chuchuk, tushunish qiyin bo‘lgan yaltiroq so‘zlardan qochish; so‘zni sevish, e‘zozlash, hurmat qilish, avaylab-ehtiyotlab qo‘llash; qalamkashning har kalomida haqiqat gullari barq urib yashnab turishi, hayot nafasi, yashash sururi ufurib turishi haqida maroq bilan so‘zlardi.

– Bilib ishlatilgan so‘z – mo‘jizalar javhari. Kuladi, kuldiradi, kurashga undaydi, yig‘laydi, yig‘latadi... O‘zlari gapiradi, savol beradi. (*A. Ko‘chimov*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ko'ngliga qo'l solmoq** Eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq. *Varianti: yuragiga qo'l solmoq. O'xshashi: qo'yniga qo'l solmoq.*

**Ko'nglida kiri yo'q** Kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q, begidir. *Varianti: yuragida kiri yo'q. O'xshashi: ko'ngli toza.*

**5-topshiriq.** So'z qo'llash, nutq tuzishda e'tiborlilik va nutq odobi haqida o'nta xalq maqoli topib, daftaringizga yozing. Maqollarni yod oling.



## NUTQNING ANIQLIGI

**1-topshiriq.** *Surat* — *sur'at*, *toblanmoq* — *tovlanmoq*, *azm* — *azim*, *asr* — *asir* juftliklaridagi so'zlarning ma'nolariga izoh bering.

**2-topshiriq.** Berilgan gaplarda qaysi so'zlarni noto'g'ri qo'llash bilan nutq aniqligiga putur yetganligini aniqlang.

1. Korxonaga yangi zamonaviy texnologiya o'rnatildi. 2. Korxonaga yangi zamonaviy texnika joriy etildi.




Nutqning aniqligi so'zning tildagi ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda qo'llanishi, so'zning voqelikdagi o'zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat'iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir.

Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so'z ma'nolarini yetarli anglash, nutq mazmuniga e'tibor bilan qarash aniq nutq tuzish malakasining shakllanishi uchun imkon beradi.

So'z ma'nosi, uning nozikliklarini yaxshi o'zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo'lmaydi. Masalan, *Avlodlar merosini o'rganamiz* jumlasida ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun *avlod* so'zining leksik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. **Avlod** so'zi asli arabcha bo'lib (uning birlik shakli *valad*, ya'ni «bola» demakdir), o'zbek tilida «bir ota-bobodan tarqalgan nasl», «bir davrda tug'ilib o'sgan kishilar»

kabi ma'nolarga ega. Gap meros haqida ketar ekan, *ajdod* so'zi qo'llanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha bo'lib, uning ma'nosi «ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar» demakdir. Shunga ko'ra, mazkur jumla *Ajdodlar merosini o'rganamiz* shaklida tuzilishi kerak edi. Ko'rinadiki, *avlod* so'zi tildagi leksik ma'nosiga muvofiq tarzda qo'llanmaganligi uchun nutqning aniqligiga putur yetgan.

Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma'nodosh, ko'p ma'noli so'zlar, paronimlar, so'zlarning uslubiy bo'yog'i kabilardagi ma'no o'ziga xosliklarini yaxshi tasavvur qilmoq zarur.

**29-mashq.**  Alibek Rustamovning «So'z xususida so'z» kitobidan olingan parchani o'qing. **Tavsif** va **tasvir** so'zlarining ma'nolari, ulardagi farqli jihatlar va qo'llanish o'rinlarini yodda tuting.

Ba'zan nutqda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish hollari uchrab turadi. Bu nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zilar **tavsif** so'zi o'rnida **tasvir** so'zini ishlatadilar. Vaholanki, **tavsif** va **tasvir** so'zlarining orasida ma'no farqi va ularning har qaysisining o'z ishlatilish o'рни bor.


Bir narsa sifatlarining og'zaki yoki yozma bayoni — **tavsif**, surati, shakli, rasmi esa **tasvir** bo'ladi. Tavsifdan kishida tushuncha hosil bo'ladi, tasvirdan tasavvur vujudga keladi. Masalan, bir mashinaning tuzilishi va ishini bayon qilish — bu o'sha mashinaning tavsifi, shu mashinaning rasmi yoki tuzilish chizmasi uning tasviridir. Yana bir misol: miya tuzilishini so'z bilan tushuntirish — **tavsif**, uning rasmi yoki chizmasi **tasvir** bo'ladi.

Ba'zan **tasvir** so'zi bayonga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Ammo u faqat badiiy bayonni anglatadi yoki **tavsif** darajasida bo'lganini bildiradi. Masalan, yozuvchi parovozni biror boshqa narsaga o'xshatsa yoki *parovoz pishqirib kelmoqda* desa, aslida, bu ham **tavsif** bo'lsa-da, ya'ni so'z bilan bayon etilgan bo'lsa ham, buning asosida tasavvur yotganligi uchun **tasvir** deyish mumkin. Shunday qilib, **tasvir** so'zi **tavsif** so'zi o'rnida faqat badiiy tavsifga nisbatan va ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin ekan.

**30-mashq.** Alibek Rustamovning «So'z xususida so'z» kitobidan olingan **chopmoq** va **yugurmoq** ma'nodosh so'zlarining tavsifi bilan tanishing, ulardagi o'ziga xosliklarni esda saqlang.

*Chopmoq* bilan *yugurmoq* fe'llari orasida ham farq bor, lekin bir-biriga yaqinlashib keladigan ma'nolari ham bor. Bu fe'llarni ma'no jihatidan yaqinlashtirgan harakat «bolalarning chopishi va yugurishi»dir. Bolaning chopishi bilan yugurishida, aslida, farq bor. Agar bola o'zini ot mingandek tasavvur qilib, uni qamchilagandek harakat bilan yugurib ketsa, *bola chopib ketdi*, aks holda *yugurib ketdi* deyiladi. Lekin bunga e'tibor bermaslik natijasida ba'zan *chopmoq* fe'li *yugurmoq* va goho *yugurmoq* fe'li o'rnida *chopmoq* fe'lini ishlatish hollari uchrab turadi. *Chopmoq* fe'lining tub ma'nosi «qo'lni biror qurol bilan yoki quROLSIZ ko'tarib urib, biror ishni amalga oshirmoq»dir. *Yer chopmoq* deganda «ketmonni ko'tarib yerga urish», *qilich chopmoq* deganda «qilichni ko'tarib urish», *go'sht chopmoq* deganda «boltani ko'tarib urish», *ot chopmoq* deganda «qamchini ko'tarib urish» nazarda tutilgan.

Hozir shevalarda uchraydigan *loy chapti*, adabiy tildagi *betga chopar* degan iboralarda ham *chopmoq* fe'lining o'sha tub ma'nosi nazarda tutilgan. Xulosa shuki, *chopmoq* qo'lga aloqador, *yugurmoq* — oyoqqa.

**31-mashq.**  Gaplarni o'qing. **Saboq** va **dars** so'zlarining ma'nolaridagi farqni izohlashga harakat qiling, shu asosda yozma matn tuzing.

1. Anvarjon ukam, — dedim unga. — Siz o'sishingiz kerak. Toshkentda ustozlardan **saboq** olasiz, poytaxtdagi adabiy muhit, o'z tengi yosh yozuvchilar bilan bo'ladigan muloqotlar fikr doirangizni kengaytiradi. (*Said Ahmad*) 2. Umidaning axloqi, o'zini tutishi, **dars**larni o'zlashtirishi universitet rahbariyatiga ma'qul edi. (*Said Ahmad*)

**32-mashq.** Matnni o'qing. Muhabbat tushunchasi ifodasiga daxldor so'zlarning rango-rangligiga diqqat qiling, ulardagi ma'no nozikliklarini namoyon qiluvchi gaplar tuzishga harakat qiling.

O'zbek tilida *muhabbat* degan so'z shu qadar rango-rang ma'nolarga egaki, hayratda qolasiz! *Yoqtirib qolmoq*, *ko'ngil bermoq*, *moyil bo'lmoq*, *xushtor bo'lmoq*, *oshufta bo'lmoq*, *dil bermoq*, *bedil bo'lmoq*, *mubtalo bo'lmoq*, *maftun bo'lmoq*, *mahbub bo'lmoq*, *oshiq bo'lmoq*, *yaxshi ko'rmoq*, *ishqi tushmoq*, *ishqi foniq*, *ishqi boqiy*, *sevgi*, *muhabbat*, *mehr* va hoka-

zolar. Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o‘zbek so‘zlari!

Mumtoz adabiyotda *ishq* so‘zining o‘zi ikki xil ma’noni ifodalaydi. *Ishqi foniy* – mahbubaga nisbatan sevgi. *Ishqi boqiy* – Tangrining diydoriga yetish...

Bugungi kunimizga kelsak... Boshqa tillarda uchrashi mushkul bo‘lgan g‘alati holatlarni ko‘ramiz. *Vatanga moyil bo‘lmoq* degan ibora kulgili tuyuladi. *Vatanni sevmoq* deyiladi. *Ota-ona mehri, farzandning ota-onani yaxshi ko‘rishi, farzand mehri* deyiladi...

Shunday qilib, *yoqtirib qolmoq* bilan *ko‘ngil bermoq*, *ko‘ngil bermoq* bilan *oshiq bo‘lmoq*, *oshiq bo‘lmoq* bilan *sevmoq*, *sevmoq* bilan *muhabbat*, *muhabbat* bilan *yaxshi ko‘rmoq*, *yaxshi ko‘rmoq* bilan *mehr* orasida uzoq masofa bor...

Tilimiz naqadar rango-rang! Tilimiz naqadar boy! (*O‘. Hoshimov*)

**33-mashq.** Ma’nodosh va paronim so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetgan o‘rinlarni aniqlang, ularni muvofiq muqobillari bilan almashtiring.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz mujda yuborish shunchalar mushkul edimi? (*Murod Mansur*) 2. Boshqa shaxsning kechirmalarini tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (*M. Nasibullin*) 3. Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, yoqilg‘i kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (*Sh. Boshbekov*) 4. Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o‘tqazib qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman. (*Said Ahmad*) 5. Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z qobiqlarini ochdi. (*M. Nasibullin*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan paronim iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Yetti uxlab tushiga kirmaslik** Mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik.

**Yetti uxlab tushida ko‘rmaslik** Hech qachon ko‘rmaslik.



**Yuragi tars yorilib ketayozdi** Sabr-chidami tugab, xunob bo‘lib ketmoq.  
**Yuragi qoq yorila yozdi** Sevinib, juda kuchli hayajonlanmoq.

- ?!** 1. Nutqning aniqlik sifatini tavsiflang.  
 2. Aniqlik sifatining muloqotdagi o‘rnini qanday baholaysiz?  
 3. Shakldosh so‘zlar va aniq nutq munosabati haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.  
 4. Ma‘nodosh so‘zlarning o‘ziga xosliklarini bilish zaruriyati haqida gapiring.  
 5. Nutqning aniqligi va uslubiy bo‘yoq munosabati haqida so‘zlang.

**34-mashq.** Berilgan so‘zlarning ma‘nolarini izohlang, ularning biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash natijasida yuzaga keladigan noaniqliklarni ko‘rsatgan holda matn tuzing.



Tansiq — tanqis;                      o‘qishli — o‘qimishli.



## NUTQNING ANIQLIGI VA BADIY NUTQ

**Topshiriq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday maqsad bilan nutqqa olib kirilganiga diqqat qiling.

1. Agar bu **sovuq** so‘fi kirib kelgan bo‘lmasa, ikki yosh qizning qish bo‘yi to‘plangan ko‘ngil g‘ashliklari biroz sho‘xlik bilan ancha yozilgan bo‘lardi. 2. Siz, axir, men bilan bir **shapaloq** yerni talashib, shu to‘g‘rida **nari-beri bo‘lishib**, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz... 3. Uning yuzlari kulgan, tishsiz — **kemtik** og‘zi sevinch bilan ochilgan edi. Akasi o‘z gapini **yedirolmagach** — Qurvonbibi bilan maslahat qilib turib — masalani eshon boboga arz qildi. (*Cho‘lpon*)



Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar, ma‘lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik asosiy bo‘lganligi uchun so‘z ma‘nosidagi siljishlar,

ko'chishlar ko'p kuzatiladi. So'z va u ifodalagan predmet o'rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko'pincha ochiq va to'g'ridan to'g'ri bo'lmaydi. Badiiy nutqning asosiy vazifasi estetik ta'sir etishdan iboratligi uchun so'zning turlicha qo'llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma'nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi.

Badiiy nutqda so'zlar o'z va hatto ko'chma ma'nolaridan tashqari ham o'ziga xos yangidan yangi ma'no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta'minlashi mumkin. Masalan, *Miryoqub g'ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no'qtalab oldi* (Cho'lpon, «Kecha va kunduz») gapidagi *g'ururning kaltaklanishi* va *kular yuzini no'qtalamoq* birikmalarida *kaltaklanishi* va *no'qtalamoq* so'zlari kasb etgan ma'no nozikliklari («g'ururni azobli darajada poymol qilish», «keskin va tamoman to'xtatmoq») bilan matnga ham aniqlik, ham ta'sirchanlik baxsh etgan.

Oddiy nutqda *Qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo'ladi. Chunki qor — yonmaydigan narsa. Ammo *Qalovini topsang, qor yonar* degan maqolda, ya'ni badiiy nutqda fikr go'zal, obrazli va mubolag'ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

**35-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yangi ma'no nozikliklarini kasb etishiga diqqat qiling. Ularni ma'nodoshlari bilan taqqoslab, uslubiy va mazmuniy farqlarini tushuntiring.

Tun **chekindi**.

Deraza oynasiga kumushrang yog'du **yopirildi**.

Keyin ufq qizarib, asta quyosh bosh ko'tardi. Quyosh nurlari xira va kuchsiz edi, ammo u tez ko'tarildi. Har yer-har yerda uni uvada pardalardek kulrang bulutlar to'sdi, lekin quyosh **yurishini** to'xtatmadi va birdan ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq bo'lib porlab, bepoyon osmonni yoritdi, so'ng **yurishini** sekinlatib kasalxona tepasiga kelganida bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu'la shu lahza karavotda yotgan xushbichim va go'zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu'la o'ziga qadrdon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmoqlarida paydo bo'lib qolgan uzukning olmos ko'zchalaridagina aks eta oldi.

Bu kun quyosh qanchalar porloq va nurafshon bo‘lmasin, unga hech kim muhabbat izhor qilmadi, muloyim nurlarini simirmadi...

Baribir, quyoshning bu yerdan uzoqlashgisi kelmadi, u saxiylik bilan nurlarini mo‘l-ko‘l to‘kdi, jimgina yotgan ayol vujudi ko‘zni qamashtirib, yarqirayotgan oppoq nurlarga omuxta bo‘lib ketdi... (*Zulfiya Qurolboy qizi*)

**36-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘ziga xos tarzda qo‘llanishiga diqqat qiling. Ularning nutq aniqligini ta‘minlashdagi o‘rnini baholashga harakat qiling. Bu haqda o‘rtoqlaringiz bilan fikrlashing.

1. Hay Oynisa, buvingni chaqir! – bolalarga aralashmay bir chekada turgan rangpar, **bezgaknamo** qizga buyurdi boy. (*Oybek*) 2. Kim ekan o‘sha... **xabargir**? Qaniy?.. – deb u kishi qo‘l cho‘zdilar. (*Murod Mansur*) 3. Bir yon: etaklarda, dasht-adirlarda Jonlarga o‘t yoqar **qizg‘aldoqzori**. Vatanim – ol qizg‘aldoqlar o‘lkasi! (*Azim Suyun*) 4. Murodiga yetsinlar, murod qilganlar, Azim, Kunlar yulduzlanmoqda, bu kunlar oylanmoqda. (*Azim Suyun*) 5. Farhod **serbahs** ayolni ko‘rgan zahoti tanidi: Elmira Kamolova, kinoshunos. (*Erkin A‘zam*)

**37-mashq.** Parchani o‘qing, undagi badiiy tasvirga xizmat qilgan ma‘nolarni aniqlang. Ifodalangan g‘oya atrofida fikrlashing.



Savollarga Nurmomo o‘zlari javob beradilar:

– O‘qrayib, bo‘zrayib, g‘o‘dayib, gerdayib, kekkayib... O‘h-ho‘, tili-miz qanchalik boy! Bitta tushunchada qancha ifoda! Ha, chiroqlarim, bu so‘zlar ila atalishdan uzoqroq yuring, takabbur bo‘lmang! Takabburlik – johillikdir!

Birov ila uchrashganingizda o‘ng qo‘lingizni ko‘ksingizga qo‘yib: «Assalomu alaykum!» deng. Sizdan oldin salom bersalar, «Vaalaykum assalom!» deya javob qaytaring. Chin insonlik yo‘lidan toymang! Buni o‘shal siz ko‘rib kelgan to‘tiqush ham yaxshi bilur, shunga amal qilur. Shul boiskim, to‘tiqush inson singari burro til, nozik dil paydo qildi. Ha, biz-u sizni oshiq-u shaydo qildi. Shul sababkim, ul dildan sayraydir, uyimiz to‘rida turgan qutlug‘ taxtiravonda yayraydir. Qo‘shaloq tug‘ilgan bu ikki egizak so‘zda – «Assalomu alaykum» birla «Vaalaykum assalom»da yetti olamning kaliti, mehri-yu sehri bor. Aytsangiz, tilsimlar ochilaverar. (*Y. Muqimov*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Mazasi qochdi** 1. Sog‘lig‘i yomonlashdi. *Varianti: mazasini qochir-moq. O‘xshashi: tobi qochdi.* 2. Biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. *Ma‘nodoshi: mazasi ketdi.*

**Mum tishlamoq** mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnash-maslik. *Ma‘nodoshi: og‘ziga tolqon solmoq; mog‘ziga qatiq ivitmoq. O‘xshashi: «lom-mim» demadi; dami chiqmadi; damini chiqarmadi; og‘zini ochmadi.*



1. Qanday nutqda so‘z ma‘nolarining ko‘chishi ko‘p kuzatiladi?
2. Badiiy nutqning asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Ijodkorlar badiiy tasvirning yanada aniqligini ta‘minlash maqsadida qanday lisoniy vositalardan foydalanadi?
4. Oddiy nutq bilan badiiy nutqning farqli xususiyatlari haqida gapiring.
5. *Bahor keldi* — *Bahor yashillik bilan yasanib keldi.* Umumiy mazmuni bir bo‘lgan har ikki gapning ifoda shakllari haqida nima deya olasiz?

**38-mashq.** Adabiyot darsligidagi asarlardan yangi, farqli ma‘noda namoyon bo‘lgan so‘zlarni aniqlang. Ularning nutqiy aniqlikka ko‘rsatayotgan ta‘sirini baholang.



## NUTQNING MANTIQUIYLIGI

**Topshiriq.** Matnni o‘qing. Fikr mantiqidagi buzilish haqida fikrlashing.

Ulug‘ Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois» asarida shunday bir voqeani hikoya qiladi. Bahorning yomg‘irli kunlaridan birida u «Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom» Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dehlaviyning bir she‘ridagi go‘zal ma‘no va

o'xshatish haqida juda ham maqtov bilan gapirib beradi, ya'ni: «Mahbuba yomg'irli kunda yo'lda tiyg'anib yiqilib ketay deydi. U shu qadar go'zal va nozikki, yog'ayotgan yomg'ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o'zini o'nqlab oladi». Bu ta'rif Navoiyga behad ma'qul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarning birida Navoiy bu o'xshatish haqida shoh Husayn Boyqaro huzurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro «Yuqoridan pastga tushayotgan yog'in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo'la olmaydi» deb, e'tiroz bildiradi. Navoiy Boyqaroning o'tkir va nozik mantig'i va she'rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi. Shoh va shoir Husayn Boyqaro mazkur holatda fikr mantiqiylikdagi buzilishni ilg'agan. (N. Mahmudov)



Fikr tarkibi va qurilishining to'g'ri ifodalanishi nutq mantiqiyligining asosidir. Nutqda til vositalarining mantiq va to'g'ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Ana shunga ko'ra mantiqiylik sifati nutqda so'zlar, gaplar o'rtasidagi mazmuniy va grammatik aloqalarning fikr mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat'iy mosligi tarzida ta'riflanadi.

Mantiq va grammatika har qanday nutqning tayanchi, har qanday nutq sog'lomligining zaminidir. Ulug' donishmand bobomiz Forobiy grammatika va mantiq ilmining favqulodda ahamiyati haqida quyidagilarni qayd etgan: «Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo'lgan joyda tafakkurni to'g'ri yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi. Grammatikaning tilga va til ifodalariga bo'lgan munosabati mantiq ilmining aql va aqliy tushunchalarga bo'lgan munosabati kabidir. Grammatika har doim til ifodalarida xatolar kelib chiqishi mumkin bo'lganda, tilning o'lchovi bo'lganidek mantiq ham har doim aqliy tushunchalarda xato kelib chiqishi mumkin bo'lganda, aql o'lchovidir».

Mantiqiy nutq tuzish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lishi kerak, ayni paytda til birliklarining leksik-semantik va grammatik mohiyati, ularning bog'lanish xususiyatlarini ham nazardan qochirmasligi zarur. Aytaylik, so'zlarning jumla tarkibida mantiqiy-mazmuniy ziddiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini yetarli darajada bilish lozim. Masalan, *Traktor*

va mashinalar yelday uchadi gapini mantiqiy deb bo'lmaydi, chunki unda mantiqiy-mazmuniy ziddiyat bor. Mashina mantiqan juda tez, ya'ni yelday uchishi mumkin, ammo traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifati buzilgan.

**39-mashq.** Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning mantiqiylikka salbiy ta'siri haqida fikrlashing.

1. Yugurib charchamaydigan **chayir** mashinasi dam tepalikka, aylanma yo'llar osha dam pastlikka, kishining nigohi tushsa yuragi shig'illab ketadigan jarliklar yoqasidan o'tib, yana **ko'tarilib qolardi**. 2. Qiya, aylanma yo'llarda ko'p yurganiga qaramay, yigit juda ehtiyotkorlik bilan mashinani **olib borardi**. 3. Uning yoqimli **qiliqlari**, ovozi **eshitilib** ketganday bo'lad. (*Mirmuhsin*) 4. Ko'zim o'ngidan **hadsiz** odamlar o'tdi. 5. Qo'llari, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay, o'z-o'zidan harakatlanar, uni **qayoqqadir olg'a** eltardi. (*M. Nasibullin*)

**40-mashq.** Gaplarni o'qing. Nutqning mantiqiyliги buzilgan o'rinlarni toping va izohlang.

1. Boyqush qarg'ish olgan, qadimdan qolgan shunday gap bor. U qayisi xonadonga qo'nib, ovoz chiqarsa, noxushlik alomatidan darak emish. (*S. Ravshanov*) 2. U nihoyatda ehtiyot bo'lib harakat qilayotganini uyqu elitgan ko'zlari bilan sezdi. (*N. Jaloliddin*) 3. Qish. Yanvar havosi juda sovuq. Laylakqor hadeb savalagani-savalagan. (*S. Ravshanov*) 4. Odamlar nochorlikdan, yegani narsasi yo'qligidan ro'za tutib yurishibdi. (*S. Ravshanov*) 5. Ilm-fanda faraz qilish yoki o'ylab chiqarishga o'rin yo'q. Fanning rivojlanishi faqat kashfiyotga bog'liq. Fanda fikr bildirish, ishonaman deyish — bilmagan bilan barobar. (*Gazetadan*) 6. Hikoya va suhbatdan tashqari o'zbek tilini yaxshi o'rganish, unga qiziqishni uyg'otish maqsadida til o'rgatishga oid o'yinlar, kichik-kichik she'rlar, badantarbiya va ashulalar berib boriladi. (*S. Jo'rayev*) 7. Imzoga qo'l qo'yish mahalida gurs etib yerga quladi. (*Gazetadan*)

**41-mashq.** Berilgan parchani o'qing, unda so'z ma'nosiga e'tiborsizlik natijasida yuzaga kelgan mantiqiylikning buzilishini tahlil qiling.

Chuqur atrofida biroz yurgandan so'ng it iz bo'ylab olg'a tashlandi. Mana, birdan to'xtab qoldi. Tumshug'i bilan yerni turti-da, oldingi oyoqlari bilan qorni titkilay boshladi... It tashvishli g'ingshib leytenantga suykaldi, so'ng yerni iskagancha, chuqurga, jilg'a tomonga yo'l oldi. Chuqurda qor bosilib, qalinlashgan. It o'sha tomon o'zini otdi, nihoyat, jilg'a oldida taqqa to'xtadi. G'azabli irillab, usti muzlagan qorni tirnoqlari bilan qaziy boshladi. Qor ostida allaqanday qora narsa ko'rindi. It oldingi oyoqlarini mahkam tirab, o'sha qora narsani tishlari bilan tishlab, butun kuchi bilan torta boshladi...

Qish kunlari qisqa: bu yondan u yonga qaraguningcha qorong'i tushadi. Sovuq qahriga olib boryapti. Men goh sakrab hakkalayman, goh qo'llarimni ishqalayman. Boshqalar ham mendan qolishmaydi. Sovuq jonni tindirmagani shu bo'lsa kerak-da. (*M. Nasibullin*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Nog'orasiga o'ynamoq** Kimningdir izmi, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rmoq. *Varianti: nog'orasiga o'ynatmoq; childirmasiga o'ynamoq.*

**Oyog'iga bolta urmoq** Mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq. *Ma'nodoshi: payini qirqmoq.*



1. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq mantiqiyligi nutqning qaysi sifatlarisiz to'liq namoyon bo'lolmaydi?
3. So'zlovchi mantiqan to'g'ri nutq tuzishi uchun ona tili fanining qaysi bo'limlariga oid bilimlarga ega bo'lishi kerak?
4. Abu Nasr Forobiyning grammatika va mantiq haqidagi fikrlarini tushuntiring.
5. Tilshunoslikning qaysi sohasiga doir bilimlar so'zlarning bog'lanish munosabatlarini muvofiqlashtirib turadi?

**42-mashq.** Berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo'llangan so'zlar o'rniga mantiqan mosini qo'yib ko'chiring.



1. Sattorov yolvorgan ohangda ko‘zlarimga umidvor qaradi. 2. Ikkalimiz ham tubsiz ko‘ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi. 3. Sattorov zarda bilan planshetni irg‘itib yubordi-da, mening so‘zlashimga erk bermay, sakrab o‘rnidan turdi. 4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning fotosuratlarini ham sochib qo‘ygan edim. 5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga yo‘rg‘alab keldi-da, meni odatdagiday so‘roqlarga ko‘mib yubordi. (*M. Nasibullin*) 6. U jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun insonlarning ma‘naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (*A. Olimov*)



## MANTIQUIYLIK VA GRAMMATIK VOSITALAR

**Topshiriq.** Berilgan gapni o‘qing va qaysi til vositasini noto‘g‘ri qo‘llash tufayli nutqning mantiqiyliги buzilganini izohlang.

Sudning kimyoviy ekspertizasi T. Bo‘riyevning qo‘llari, kurtkasining chap cho‘ntagida maxsus kukun izlari mavjudligi, kukunlar tarkibi ham bir-biriga mosligi aniqlandi. (*Gazetadan*)



Nutqning mantiqiyliги ifoda nuqtayi nazaridan ko‘proq tilning morfologik va sintaktik sathi bilan bog‘liqdir. Har qanday sintaktik birlikning nutqda o‘z mantiqiy-grammatik o‘rni bor.

Gapda so‘zlar tartibining to‘g‘ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg‘un bo‘lishi mantiqiy nutq tuzishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So‘z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikkiyoqlama anglanishiga olib keladi. Masalan, *Loqaydlik tufayli ko‘rsak ham, indamaymiz* tarzidagi jumlada so‘z tartibidagi nuqson sababli fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya‘ni «*loqaydlik tufayli ko‘rish*» (bu, albatta, mantiqqa zid) va «*loqaydlik tufayli indamaslik*». Aslida, ifodalanmoqchi bo‘lgan fikr – ularning ikkinchisi. Jumladagi so‘z tartibi *Ko‘rsak ham, loqaydlik tufayli indamaymiz* tarzida tuzilsa, mantiq to‘g‘ri ifodalanadi.

**43-mashq.** Gaplarni o‘qing. Gap qurilishidagi kamchiliklar tufayli yuzaga kelgan yanglishlik haqida bahslashing.



1. Agarda shunga qaror qilgan bo'lsa, mazkur amaliyotni, albat-ta, reja asosida amalga oshirgan ma'qul. Ya'ni malakali mutaxassisga murojaat qilishi, zaruriy qon tahlillarini topshirishi, yurak faoliyatlari tekshiruvi, qon kasalliklari, sog'lom bo'lishi zarur. 2. Tashqi ko'rinishni o'zgartirishdan oldin bu haqiqatan kerakmikin, deb o'z-o'zingizga savol bering. Balki, to'g'ri turmush tarzini olib borish bilan bularni o'zgartirish mumkindir ham. (*Gazetadan*) 3. Bobom bu yil askarlarimizga, kam deganda, uch vagon qovun-tarvuz jo'natmasam, do'ppimni osmon-ga otaman deb, kecha-kunduz polizdalar. (*S. Ravshanov*)

**44-mashq.** Gaplardagi grammatik vositalarning noto'g'ri qo'llanishiga ko'ra yuzaga kelgan mantiqiy nuqsonlarni izohlang.

1. Fursatdan foydalanib, institut jamoasi va ekspertlari nomidan, barcha yurtdoshlarimizni Yangi 2018-yil bilan chin dildan qutlaymiz va oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishda bir tan-u bir jon bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimiz ravnaqi uchun hormay-tolmay ishlashlariga chaqiraman. (*Gazetadan*) 2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat ishchi guruhlar komissiya bilan hamkorlikda joylarga chiqib, har bir mahkum bilan yakka tartibda suhbatlashish orqali ularning shaxsi o'rganib chiqildi. (*G. To'laganova*) 3. Qonunga ko'ra, amnistiya aktini qo'llash uchun ayblov tomonining, shu jumladan, jabrlanuvchining roziligini talab etilmaydi. (*G. To'laganova*) 4. Bug'doyrang cho'tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari sutdek oppoq. Lekin o'zlari sira tinchimaydilar. (*S. Ravshanov*)

**45-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing, nutqning mantiqiylik sifatiga putur yetkazgan leksik, morfologik va sintaktik vositalarni izohlang.

1. Ayol kabinetga kirib kelishi bilan uni qayerdadir ko'rganga o'xshab ketdim. 2. Bu ish uchun kerakli ko'nikmani, uquvni hayotning o'zi tug'diradi, tarbiya, bilim beradi. 3. Shunday qilib, uni bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi. 4. «Balki» degan taxmin tergovchi faoliyatida zo'r chora — narsa emas, ammo uni hisobga olinmasa ham bo'lmaydi. 5. So'zni uning uchun yoqinqiragan mavzudan boshladim. 6. Eh, qancha chilvir u? Yonib kul bo'ldi-ku o'sha chilvirlar. Hammasi yonib jizg'anak bo'ldi-ku. 7. Hozir ona yuragida nafrat va xo'rlanganlik hislarigina bo'lgan. (*M. Nasibullin*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Og‘zining tanobi qochmoq** Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. *Ma‘nodoshi: og‘zi qulog‘iga yetmoq; boshi ko‘kka yetmoq; terisiga sig‘may ketmoq; qo‘yi mingga yetmoq.*

**Payiga tushmoq** 1. Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta‘qib qilmoq. *Ma‘nodoshi: iziga tushmoq; ketiga tushmoq; orqasiga tushmoq.* *O‘xshashi: payidan tushmoq.* 2. Manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qilmoq. *Ma‘nodoshi: ketiga tushmoq.*



1. Gapda so‘z tartibi deb nimaga aytiladi?
2. Gapda so‘z tartibi o‘zgarishi mumkinmi? Bu qaysi nutq shaklida ko‘proq kuzatiladi?
3. Qanday maqsad bilan she‘riy asarlarda o‘zgargan so‘z tartibidan foydalaniladi?
4. So‘z tartibidagi nuqson natijasida nutqning qaysi sifati buziladi?
5. Nutqning mantiqiylik sifati ifoda jihatidan ko‘proq tilning qaysi bo‘limi bilan bog‘liq?

**46-mashq.** Matnni ko‘chiring, unda mantiqiylik sifatining ta‘minlanishida ishtirok etgan sintaktik birliklarni izohlang.



1956-yili edi. Yetimxonada birga o‘sgan tengdoshlarimni uchratib qoldim. Yigirma yilcha ko‘rishmagan bo‘lsak-da, men u haqda ancha-muncha gapni eshitib bilar edim. O‘zim umrimda ko‘p qiyinchilik, mushkul vaziyatlarni boshimdan kechirganman. Lekin mening ko‘rgan kunimni buning ko‘rgiliklari oldida jannat desa bo‘lardi.

U tarixchi yosh muallim edi. 1941-yili urushga ketganini bilaman, keyin ko‘p o‘tmay, bedarak yo‘qolganini eshitdim. Urushdan keyin ma‘lum bo‘ldiki, asir tushib, to‘rt yilda konslager dahshatlarini boshidan kechiribdi. G‘alabadan keyin harbiy qismlarimiz qutqarganda, oilasiga darak keldi: ochlikdan chalajon bo‘lgan holicha gospitalga joylashtirishgan ekan. Ammo bir yil o‘tar-o‘tmay Kolimada emish, deb eshitdik. O‘sha gapga ham

to‘qqiz yil bo‘ldi. Demak, jami o‘n besh yilcha jahannam azobini chekib omon qolgan odam. Lekin u hozir bunday kulfatni kechirgan kishiga sira o‘xshamasdi. Quloch yozib ko‘rishganimizda yana ham amin bo‘ldimki, u tog‘ni ursa talqon qiladiganday sog‘lom, baquvvat, oq yuzidan kulgi charaqlab turibdi. (*Asqad Muxtor*)



## MANTIQUIYLIK VA MATN KOMPOZITSIYASI

**Topshiriq.** Insho haqidagi fikrlaringizni bayon qiling. Inshoning tarkibiy tuzilishi, insho matnida fikrning mantiqiy izchillikdagi bayoni borasida bahslashing.



Nutq mantiqiyligining buzilishi matn sintaksisi sathida, ya‘ni gaplarning o‘zaro mazmuniy-sintaktik bog‘lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma‘lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, shunga ko‘ra bog‘li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog‘lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik abzas va mustaqil gaplarni bog‘lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko‘rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)ning qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mantiqiy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik gaplar, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so‘zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

3. Kompozitsion bog‘lilik. Bunday bog‘lilik *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta‘kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani* kabi tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi.

Yaxlit matnning mantiqiyligini ta‘minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayot-

gan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o‘z aksini topmog‘i lozim. Mantig‘i sog‘lom matn «biri tog‘dan, biri bog‘dan» fikrlar «bo‘tqa»sidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq kompozitsiya bo‘lishi zarur.

Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo‘ladi, ya‘ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o‘rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo‘lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, «qissadan hissa» qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka qo‘yiladigan talablar tamoman o‘ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur mahsuli ekanligi bilan aloqadordir.

Mantiqiylikning buzilishi badiiy nutqda o‘ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Xilma-xil alogizmlar (mantiqsizlik), g‘ayriodatiy birikmalar, jonlantirish va boshqa shu kabi qo‘llanishlar ijodkorning badiiy mahorati bilan matnning zaruriy unsurlariga aylanadi. Masalan, nobadiiy nutqda *Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar* shaklidagi gap mantiqsiz hisoblanadi. Chunki tinglash uchun «qurol» og‘iz emas, balki quloqdir. Ammo Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu parchada bu gap betakror badiiy obraz tasviriga aylangan: *O‘tirganlar bir seskanib oldilar.*

– *Qanaqa pul, taqsir?* – dedi *Matxoliq amin.*

*Hammaning ko‘zi uning og‘ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko‘zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og‘ziga osildilar. Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar.*

Yozuvchi noxush va shum xabarni hayronlik va chorasizlik ichida og‘izlar ochilib qotgan ko‘yi eshitmoqning badiiy rasmini shu tarzda chizgan.

#### 47-mashq.



«Otalar so‘zi» kitobidan olingan maqolani o‘qing. Undagi fikrning mantiqiy izchilligi va muntazam bayoni, bunda til vositalarining o‘zaro munosabatidagi tugallikka e‘tibor qiling. O‘zingiz matn tuzganda, buni yodda tuting.

## Ertagi borning ertasi bor

Xalqimiz shoir va donishdir, bebaho hikmatlar ijodkoridir. Ushbu durdonalar xazinasini jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Ha, o‘zbek xalqi butun dunyo ma’naviyat xazinasiga qo‘shgan hissasi bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bizning ko‘pgina ertak va afsonalarimiz yer yuzining talaygina mamlakatlariga yetib borib, ularning ijod xazinasini boyitgan. Bu inkor etib bo‘lmas haqiqatni jahon tadqiqotchi olimlari allaqachon tan olganlar.

Xo‘sh, xalqimizning chin qalbidan chiqib, teran tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan bu durdonalarni nechog‘li bilamiz? Biz barkamol bo‘lishini xohlayotgan hozirgi yosh avlod ulardan yaxshi xabardormi?

Qadim zamonlarda uzun qish tunlari sandal – tancha tegrasida o‘tirib, bolalar ota-onalari, bobo va momolaridan ajoyib-u g‘aroyib ertaklar, afsona-yu rivoyat va naqlar tinglaganlar, hikmat durdonalarini dillariga jo qilib, keng tafakkurli donishlar bo‘lib yetishganlar.

Ota-bobolarimiz teran tafakkurining qaymog‘i – hikmatlardan kimiki xabarsiz ekan, ul kimsa ma’naviy jihatdan qashshoqlashib qolishi mumkin. Misollar keltiraylik: ertaklarning boshlanishi oldidan hamisha takrorlanadigan debocha nechun aytiladi? U qanday maqsad va g‘oyalarni olg‘a suradi? Shular xususida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Ushbu kitobda ertaklarning ana shunday boshlamalari Nurmo tilidan g‘oyat qiziqarli talqin qilinadi. Chin insoniy fazilatlar – poklik, sofdillik, halollik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik birla tejamkorlik, noz-ne‘matlarning qadriga yetish, ahillik va inoqlik, mardlik va vatanparvarlik turli naqlar vositasida tarannum etiladi.

Risoladagi hikmatlar donishmand ajdodlardan bo‘lg‘usi avlodlarga yetib kelgan bebaho armug‘ondir. Ilohim, ota-bobolar hikmati qalbingizga nur sohib, charog‘on qilgay, tafakkuringizni yanada teranlashtirgay, boyitgay, xonadoningizga baxt-u baraka olib kirgay!

Ota-bobolar hikmati yosh bo‘g‘inga, kelgusi avlodga benihoya zarurdir. Kimki ushbu hikmatlarni o‘qib va uqib, anglab olsa, har tomonlama barkamol bo‘lgay!

Ertaklar dunyosi sehrlarga to‘la, ajoyib va g‘aroyibdir. Ilohim, ertangiz ana shu ertaklar kabi ajoyib-u g‘aroyib, baxt-u baraka ila to‘liq bo‘lgay. Axir, ota-bobolarimiz bekorga aytmaganlar: «Ertagi borning ertasi bor!» (Y. Muqimov)

- 48-mashq.** Berilgan matnni o‘qing. Matnning abzaslarga ajratilishiga e’tibor bering.

### Mentalitet


Kunlarning birida Amerikada chiqadigan yirik gazetaning rahbari bilan hamsuhbat bo‘lib qoldik. U o‘zbeklar nima uchun mahallani bunchalik hurmat qilishini, nega mahalla to‘g‘risida maxsus Qonun qabul qilinganini so‘radi. Mahalla degani qanday tuzilma ekanini tushuntirib berishimni iltimos qildi.

– Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, – dedim rostini aytib. – UZR-ku, siz uni baribir tushunmaysiz. Buning uchun siz ham, men ham aybdor emasmiz. Hamma gap hayot tarzining qanday shakllanganida.

Tasavvur qiling. Sizlarda o‘n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar talashib, sudga murojaat etsa-yu, g‘olib chiqib, otasini ming dollar jarima to‘lashga majbur qilsa, bu demokratiya tantanasi sanaladi. Bizlarda shunday hodisa yuz bersa, bunaqa bolani «oqpadar» deydilar va bir umr la’natlaydilar.

Sizlarda bir qo‘shni ikkinchisidan «Kecha uyingizga qanday mehmon keldi?» deb so‘rasa, narigi qo‘shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon kelsa, yon qo‘shnisi, albatta, xabar oladi. Iloji bo‘lsa, mehmonni o‘zinikiga taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi.

Bilib turibman, janob, mahalla degani nimaligini, baribir, tushuntirib berolmadim. Ammo bor gap – shu. (O‘. Hoshimov)

- 49-mashq.**  Demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas kabi kirish so‘zlar, yuqorida, quyida, endi, bundan keyin kabi so‘z va so‘z shakllari, va, hamda, ammo, lekin, biroq kabi bog‘lovchilar, qayd etmoq lozimki, aniqki, ta’kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi tarzidagi sintaktik qurilmalarni ishtirok ettirib matn tuzing, bu vositalarning matn kompozitsiyasidagi o‘rniga diqqat qiling.

- 50-mashq.** «Qalam» matnini o‘qing. Undagi mantiqiylik sifati va kompozitsiya yaxlitligini tushuntirishga harakat qiling.

Ajdodlarimiz siyoh bilan yoziladigan qamish yoki savag'ich qalamdan keng foydalanishgan. Bu mumtoz adabiyotimizda «xoma» deb tilga olindi. Qalamning o'q qalam, temir qalam, tosh qalam degan turlari bor. Mo'yqalam tasviriy san'atda ishlatilsa, tosh qalam va temir qalamlardan qattiq jismlarni o'yish, kesish, biror narsani tasvirlash, yog'ochlarga gul solishda foydalanilgan.

Qalamning takomil yo'li insoniyatning ravnaq eta borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi madaniyatning ibtidosi qalamga borib taqaladi. Ilk qalam – tosh qalam. Hozir esa eng keng tarqalgan turi sterjenli ruchkadir.

Yo'l-yo'lakay bo'lsa-da, tilimizning boyligini ko'rsatish maqsadida «qalam» so'zining ko'chma ma'nolariga to'xtalib, bir necha misol keltiramiz. Masalan, «qalam ahli» – yozuvchi va shoirlar, jurnalist va olimlar. «Qalami o'jiz» – fikrini yaxshi ifodalay olmaydigan. «Qalami o'tkir» – fikrini ta'sirchan qilib yoza oladigan. «Qalamqosh» yoki «qoshi qalamlar» – uncha egilmagan qop-qora, chiroyli qoshli suluv. (A. Ibrohimov)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Podadan oldin chang chiqarmoq** Ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yurmoq.  
*Varianti: podadan avval chang chiqarmoq. Ma'nodoshi: to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq.*

**Sirkasi suv ko'tarmaydigan** Tanqidga mutlaqo chidamaydigan.



1. Bog'li nutq nima?
2. Matn tarkibiy qismlarining mazmuniy bog'liqligi deganda nima nazarda tutiladi?
3. *Demak, shunday ekan, yuqorida, quyida, va, hamda, ammo* kabi funksional-sintaktik vositalar orqali matnning qaysi jihatlari namoyon bo'ladi?
4. Matnning kompozitsion bog'liqligi qaysi sintaktik qurilmalar yordamida ta'minlanadi?
5. Nutqning mantiqiylik sifati qaysi uslubda juda muhim ahamiyat kasb etadi?

6. Matning abzaslarga noto‘g‘ri ajratilishi yoki alohida abzaslarning qo‘shib yuborilishi nutq mantiqiyligiga qanday ta’sir etadi?

**50-mashq.** «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» mavzusida in-sho yozing. Unda mazmuniy, mantiqiy va kompozitsion bog‘lilikni ko‘rsatadigan vositalarning ishtirokiga alohida diqqat qiling.



## NUTQNING SOFLIGI

**Topshiriq.** Berilgan gaplarni o‘qing, nutqning sofligi sifatiga putur yetkazgan vositalarni aniqlang.

1. Sizlarnikidaqa situatsiyada har qanday bola ham bunday natijalarga erisholmaydi. (*Jurnaldan*) 2. Viktorinaga qatnashish jarayonida bir g‘oya tug‘ildi. (*Gazetadan*)



Nutqning sofligi nutqning adabiy til va jamiyatdagi ma’naviy-axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanadi. Kishi nutqning sofligi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiy-lari quyidagilardan iborat: 1) shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz; 2) o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari (varvarizmlar); 3) dag‘al, haqorat so‘z va iboralar (vulgarizmlar); 4) «ishlamaydigan» yoki parazit so‘zlar; 5) idoraviy so‘z va iboralar (kanselyarizmlar).

Nutq tuzuvchi o‘z nutqining sofligi haqida qayg‘urar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo‘llashdan tiyilishi lozim.

**52-mashq.** Gaplarda nutqning sofligiga ta’sir qilayotgan birliklarni aniqlang va ularga izoh bering.

1. Hamqishloqlarning bu bolaga ichlari achir, xudo bergan birgina o‘g‘ilni shunchalik qiynab qo‘yganlari uchun orqavarotdan uning ota-onasini




tanirdilar. (*N. Abdiyeva*) 2. Qonun loyahasiga ko‘ra, energetik ichimliklarni o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga realizatsiya qilish fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi mumkin. (*Gazetadan*) 3. Maktabimizda yuqori sifatga ega «smart-class» tashkil qilindi. (*M. Najmiddinova*) 4. Shundan buyon mundial saralashidagi omadsizlik termamizni tark etmayapti. (*Gazetadan*) 5. Bu yerda esa o‘vertaymlarsiz ish bitmadi: 2:2 ko‘rinishidagi durangdan so‘ng bolqonliklar hal qiluvchi golni urishdi. (*Gazetadan*) 6. Bu nutq matbuotga chiqishiga qadar esa Messi o‘zi uchun odatiy shedevr gol urishga ulguradi. (*Gazetadan*) 7. Tez orada hammaning og‘ziga tushgan 15 yoshli vunderkind bilan uchrashdi. (*Gazetadan*)

**53-mashq.** Matnni o‘qing. «Ishlamaydigan» yoki parazit so‘zlarning nutq sofligiga zarari haqida fikrlashing.

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so‘z va ibora, albatta, «ishlashi», muayyan ma‘noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so‘z yoki ibora nutqning mazmuniy qurilishi uchun bir «g‘ishtcha» bo‘lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuk, demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so‘zlar deb ataladigan bunday birliklar ko‘proq og‘zaki nutqda kuzatiladi. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yetarli darajada aniq tasavvur qilmaslik, fikrlar o‘rtasidagi tizimli munosabat idrokining yetishmasligi, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo‘lmasin, «yopish», tegishli uyg‘un ifodani o‘ylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta‘minlash ehtiyoji bilan bog‘liq holatda *e-e-e*, *hm-m-m*, *he-ye-ye* kabi tovush «oqim»lari, *xo‘-o‘-o‘sh*, *haligi*, *anaqa*, *masalan*, *demak*, *shu*, *innaykeyin*, *ya‘ni*, *aytaylik*, *bildingizmi*, *tushundingizmi*, *men sizga aytsam*, *gap shundaki*, *qarang* kabi lug‘atlarda aniq ma‘nosi mavjud so‘z va iboralar ayni ma‘nosidan begona qilingan tarzda qo‘llanadi. Bunday qo‘llashlar bora-bora nutq tuzuvchida o‘ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir *haligi*, kimdir *demak*, yana boshqa birov *bildingizmi* so‘zini og‘zaki nutqida parazit so‘z sifatida doimiy ishlata-di. Aytish mumkinki, bunday so‘zlar u yoki bu notiqning so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos ko‘rsatkichi bo‘lib qoladi (hatto bu «ko‘rsatkich» shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, «*shu-shu domla*, «*xo‘sh-xo‘sh usta* kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchi-

ning diqqatini chalgʻitadi, nutqning oʻz maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, oʻqituvchi va asosiy quroli soʻz boʻlgan boshqa mutaxassislar parazit soʻzlarning oʻz nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim. (*N. Mahmudov*)

**54-mashq.**  Matnni oʻqing va qahramon nutqidagi **shu** soʻzining qanday maʼno tashiyotgani yoki tashimayotganini izohlang.

Xoʻjayin, shu, shu, desangiz. Shu... bizdi mashina dovonning naryogʻida, shu, radiatori teshilib, shu, qolib ketibdi.

– Qanaqa mashina? – dedi hayron boʻlib Mirvali.

– Hozir Toshkent tomondan, shu... kelayotgan, shu, bir «Jiguli» garajga kelib shundoq dedi.

– Qanaqa mashina, deb soʻrayapman.

– Shu... asalchining yukini Toshkentga, shu, olib ketgan mashina, shu...

– Nega menga aytasan, garaj mudiriga ayt.

– Shu, xotini toʻlgʻoq tutib, shu, kasalxonaga olib ketgandi.

– Boʻpti, bosh mexanikka ayt.

Qorovul shu deb yana nimadir demoqchi edi, Mirvali qoʻl siltab, «ketaver» ishorasini qildi. (*Said Ahmad*)



Sh. Rahmatullayevning «Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Soyasiga koʻrpacha solmoq** Izzat-hurmat qilishni meʼyoridan oʻtkazib yubormoq. *Varianti: soyasiga koʻrpacha yozmoq; soyasiga koʻrpacha toʻshamoq.* *Oʻxshashi: boshiga koʻtarmoq.*

**Tinkasi qurimoq** Toliqmoq, darmonsizlanmoq. *Varianti: tinka-madori qurimoq.* *Maʼnodoshi: holdan toymoq; holdan ketmoq.*



1. Nutqning sofliqi nima va u qanday mezonlar bilan belgilanadi?
2. Soʻzlovchining madaniy saviyasi uning nutqida aks etadimi?
3. Nutqning sofligiga putur yetkazadigan unsurlarni aytib bering.
4. Nutqning sofligini buzuvchi «ishlamaydigan» soʻzlarga misollar keltiring.
5. Idoraviy soʻz va iboralarni tavsiflang.

**55-mashq.** O‘zingiz yashayotgan hudud shevasiga mansub beshta so‘z toping, ularni adabiy tildagi muqobillari bilan birga yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



*Namuna:* buvak (Farg‘ona shevasida) – chaqaloq.



## NUTQNING SOFLIGI VA BADIY NUTQ

**1-topshiriq.** Gaplarni o‘qing va shevaga oid birliklarning nima maqsadda qo‘llanganligini izohlashga harakat qiling.

1. Juringlar! Qaytishda cho‘milamiz! – dedi Oqboy. (*Sh. Xolmirzayev*)
2. Shuytib kepqolganman-da men bu yoqlarga, bolam. (*Erkin A‘zam*)
3. Mana, Salomxon aytvotti, xijolat bo‘ladigan hech gap o‘tmabdi-ku. (*Murod Mansur*)
4. Sharif akamgila xat berib yubordila, – dedi. (*Tohir Malik*)

**2-topshiriq.** Parchada tagiga chizilgan so‘zlarning qanday badiiy maqsadga xizmat qilayotganini tushuntiring.

Muxbir: – Xo‘sh, xo‘sh, endi tak... kechirasiz, kelinlaringiz orasida mayin kuladigani bormi?

Farmon: – Ha, bor. Mana, Sotti juda mayin, juda chiroyli kuladi. (*Said Ahmad*)

O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim, yashamagur, uni ham rasvo qildi. Bolaginamga ega chiqib, burnidan ip o‘tkazib oldi bu dog‘uli. (*Said Ahmad*)



Badiiy nutqda nutqning sofligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma’rifiy saviyasiga urg‘u berish uchun o‘zbek tiliga kirib o‘zlashmagan chet so‘z va

soʻz birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini boʻrttirib ifodalash niyatida dagʻal va haqorat soʻz-iboralar, shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini koʻrsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, yaʼni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi oʻz maʼnosidan begona qilingan, yaʼni ishlaymaydigan soʻz va iboralar ishlatilishi mumkin.

Taʼkidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan soʻz va iboralar rasmiy uslubdagina qoʻllanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatilishi oʻrinli boʻlmaydi. Ammo personajning madaniy-maʼnaviy saviyasini kinoyaviy taʼkidlash maqsadida, yaʼni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qoʻllanishi kuzatiladi.

**56-mashq.** Gaplarni oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning qanday badiiy maqsadda qoʻllanganini izohlang.

1. Mingboshi erkin-erkin kuldi: – Tavba de, **betavfiq!** Astagʻfurullo, de! – Miryoqub «astagʻfurullo» oʻrniga uyat bir soʻz aytdi. Mingboshi besh batar yoyilib kuldi. – A **battol-ey!** O **battol-ey!** – dedi u. (*Choʻlpon*)
2. Tuf de, koʻzing tegadi, **kasofat!** Shu soʻzingni menga aytsang, tishingni sugʻurib olardim. (*Oybek*)
3. Bu yerda ish yomonmi? Raisning gapini eshitding-ku, **yer yutkur!** (*Oʻ. Umarbekov*)
4. Hazarni biladimi bu **goʻrsoʻxta.** Hukumatni qoʻliga tushsa, otuv berardi. (*Murod Mansur*)
5. Endi Qizilsoyga yaqin borsang, oʻldiraman, **juvonmarg!** (*Erkin Aʼzam*)

**57-mashq.** Atoqli adib Abdulla Qahhor qalamiga mansub quyidagi matnni oʻqing va unda nutqning qaysi sifatiga beeʼtiborlik haqida gap ketayotganini aniqlang.



Hozirgi vaqtda tilimizning boyligini, uning qochiriqlarini oʻrganishga eringan, soʻz sanʼatiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch soʻzni yillar davomida aylantirib kun koʻrib yurgan bir turkum qalam ahlining «faoliyati», chalamulla baʼzi olimlarning «ilmiy xulosa»lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib, oʻqib berish mumkin... Bu tilning hech qayerga yozilmagan, lekin amalda joriy boʻlgan temir

qonuniga ko‘ra «yaxshi ovqat yedim!» deb yozib bo‘lmaydi, albatta, «sifatli ovqatlandim» deb yozish shart... Bu tilda latifa aytib bo‘lmaydi, yozib bo‘lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xalq iboralariga o‘rin yo‘q. Bu til har qanaqa jonli tilga kafan kiygizadi, har qanaqa o‘ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa ma‘ruzachini g‘urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o‘lik chiqqan hovliga aylantiradi.

**58-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qo‘llanish maqsadini tushuntiring.

1. Boya... to‘satdan bo‘lganiga... shoshib qopmiz. **Shunga... haligi...** so‘ragan pulingizni opkeldim... (*O. Yoqubov*) 2. **Shu... shu**, qarz berib tursangiz degandim, rais buva. (*Tog‘ay Murod*) 3. Muso qo‘llarini ko‘ksiga chalishtirdi. — Endi, **nima desam ekan**, avvalo, «sumkam» emas, «sumkamiz» deng, xo‘pmi? **Innaykeyin...** — Mukambar jim qoldi. (*Ahmad A‘zam*) 4. Men qilishim kerak bo‘lgan ishni, **umuman**, qilib bo‘lgan, **ya‘ni**, Eshvoyga katta yaxshilik qilgan edim! Tushunyapsizmi? (*Sh. Xolmirzayev*) 5. Unday mard, tanti, **nima desam ekan**, javonmardni ikki dunyodayam topolmaysan. — Javonmard deganingiz nimasi? — Javonmard... **haligi**, hech kim oldiga tusholmaydigan odam. (*Murod Mansur*) 6. **Xo‘sh**, shunday qilib, bundan o‘n ikki yil muqaddam Samarqand bozoridagi choyxonachining yordamida mashina topib, Yakkachinorga yo‘l oldim. (*O‘. Umarbekov*) 7. — Ota deyman... **Haligi...** — Labbay, gapiraver. — Sadafingiz bu yil o‘nni bitiradi. (*Sh. Xolmirzayev*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarining izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Tishi o‘tmaydi** 1. Biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi. 2. Yenga olmaslik; o‘zlashtira olmaslik. 3. Idrok qilolmaslik, uqib yoki tushunib ololmaslik.

**Xamirdan qil sug‘urganday** Osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz.

**Xamir uchidan patir** Katta, ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism.



1. Sheva unsurlari badiiy nutqda qanday maqsadda qo'llanadi?
2. Badiiy matnlarda qahramonlarning madaniy-ma'rifiy saviyasini kinoyaviy ta'kidlashda qanday so'z va iboralardan foydalaniladi?
3. Badiiy matnda *haligi, innaykeyin, ya'ni, aytaylik, tushundingizmi, men sizga aytsam* kabi so'z va iboralarni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni tushuntiring.
4. Badiiy matnda so'zlovchi nutqiy malakasining yetarli emasligini ko'rsatish uchun qo'llanadigan so'z va birikmalarga misollar keltiring.
5. *Men unaqa mashhur odam emasman, po'ristoy bir polvonman xolos (Said Ahmad)* gapidagi *po'ristoy* so'zining qo'llanish sababi va poetik qimmatini tushuntiring.

#### 59-mashq.



Biron-bir badiiy asardan shevaga oid so'zlarni topib, ularni gap ichida ko'chiring. Sheva so'zlarning qo'llanish sababini tushuntiring.

## MUSTAHKAMLASH

### Savol va topshiriqlar

1. Nutqning aniqlik sifatini misollar asosida tavsiflang.
2. Shakldosh va ko'p ma'noli so'zlarning nutq aniqligini ta'minlashdagi o'rnini izohlang.
3. Paronim so'zlarni noto'g'ri qo'llash natijasida nutqning qaysi kommunikativ sifatlariga putur yetadi?
4. Til birliklarining qanday birikuvi nutqning mantiqiylikini ta'minlaydi?
5. Nutq mantiqiylikining tilning morfologik va sintaktik sathiga bog'liqligini tavsiflang.
6. Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiylarini ayting va misollar keltiring.
7. Personajning madaniy-ma'naviy saviyasini kinoyaviy ta'kidlash maqsadida qanday til birliklaridan foydalaniladi?

**1-topshiriq.** So'zdagi ma'no nozikliklarining namoyon bo'lishi nutqning aniqligini ta'minlashga qanday ta'sir qilayotganini izohlang.

1. Kechikib kirgan qish endi kun sayin sovug'ini kuchaytira boshlagan edi. Qor yo'q, lekin ertalab yalang'och daraxtlarda va tomlarda qalingina qirov yaltiraydi. *(Oybek)* 2. G'afur G'ulomning fikr-u yodi tug'ilayotgan she'rda edi. Frontdan qaytishda bombalar portlagan o'nqir-cho'nqir yo'llarda silkinib ketayotgan yuk mashinasida ham yoza berdi. *(Said Ahmad)* 3. Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. *(Abdulla Qahhor)*

**2-topshiriq.** Berilgan matnni o'qing. Uning kompozitsion tuzilishini aniqlang. Kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasida mazmuniy mutanosiblik bor yoki yo'qligi haqida o'rtoqlaringiz bilan fikrlashing.



### Tomsuvoq

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo'lardi. Uning yozilgan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg'iz o'zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo'li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...

O'qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko'p odam yig'ildi. Uyi katta yo'l yoqasida edi. Shundoq ko'cha chetidan loyhandaq qazilgan ekan. Somon, katta yo'lning ko'pchib yotgan tuprog'iga qovushib, obdon yumshabdi. O'qituvchimizning Azim aka degan qo'shnisi ishboshi bo'ldi. Birov handaqaqqa tushib loy solib berib turdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o'rtasidagi tut tagida ovqatlanib o'tirsak, o'qituvchimning keksa onasi kelib qoldi. Kampir hassasini do'qillatib, to'ppa-to'g'ri o'qituvchimizning oldiga bordi.

— Nima qilding? — dedi o'g'lining salomiga alik ham olmay. — Nima ish qilib qo'yding?!

Hammamiz hayron bo'lib qoldik. Muallim o'quvchilarining oldida ayniqsa mulzam bo'ldi, shekilli, qizarib ketdi.

— Nima qipman, oyi? — dedi ko'zlarini pirpiratib.

— Dard! — kampir hassasi bilan yerni nuqidi. — Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! Nega ko'chadan loy qildilaring?! Ko'chaning tuprog'iga tegib bo'ladimi, nobakor! Ko'pchilikning haqi-ku bu!

Bir zum harsillab turdi-da, to'satdan yig'lab yubordi.

– Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o'tirib oldi.

Hamimiz qaytadan tomga chiqdik. Suvoq qilishdan ko'ra loyni ko'chirish qiyin bo'larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomndan tushirdik. Paqirlab tashib, ko'chadagi loyhandaqni to'ldirib qo'ydik.

Oradan yillar o'tib, kampir ko'z yumganida tumonat odam uni o'sha ko'chadan so'nggi manziliga ko'tarib bordi.

Ko'cha tuprog'i iliq edi... Mayin edi... (O'. Hoshimov)

**3-topshiriq.** Tagiga chizilgan so'zlarga asoslanib, so'zlovchining hududiy mansubligini aniqlang.



1. Oka, unaqa vaqtim yo'q, – dedi shofyor. – Nochorlikdan chiqovuz-de. (Sh. Xolmirzayev) 2. Bundan kattakaniyam bor. Apasiyam bor. (Sh. Xolmirzayev) 3. Bugun Aravonda katta uloq, deng, ashaqqa borish kerak. Endiyla jo'naymiz, deb turuvdik. (Tohir Malik) 4. Ertaga biznikiga nonushta qilsak. (Said Ahmad) 5. Bundaychikin polvonni yana qaytib davraga yonoshtirmaslik kerak! (Tog'ay Murod)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Boshi shishmoq** O'ylayverib gangimoq. *Ma'nodoshi:* **boshi qotmoq; miyasi g'ovlab ketmoq.**

**Enka-tenkasi chiqmoq** 1. Qiynalib ketmoq. *Varianti:* **enka-tenkasini chiqarmoq.** 2. To'satdan qattiq qo'rqmoq.

**4-topshiriq.** Matnni ko'chiring. Undagi badiiy maqsad bilan voqelangan adabiy me'yordan chekinish holatlarini izohlang.



– Kechirasiz, Quvvatjon, – deb yana gap qotdi Gulsara. – Pisatellarning dachasi bor, deb eshitardim. «Dam olish uyi»ga o'xshiydimi? Boya biznesmenlar ham ko'p dediyiz. Demak, sanatoriy tipida?

– Farq qiladi, – dedim. – Uning nomi to'lasicha: «Yozuvchilarning ijod va istirohat bog'i» deyiladi. Uch qavatli imorat... Ko'pchilik xonalari bir kishilik. Yashash, ishlash uchun sharoit bor...



– O, yaxshi ekan. Yozda Toshkentda nafas obo‘miy qoladi... Bilasiz-ku o‘ziyiz?

– Ha.

– Ponyatno, – deb qo‘ydi Gulsara. Keyin yana so‘radi: – Bizni begona deb...

– O‘-o‘, yo‘q. Unaqangi temir qoidalar bizda yo‘q... Umuman, Uyushmamizdayam ilgaritdan qandaydir demokratiya bor edi.

– E-e, yozuvchilaringiz ham bir-birini juda qamatishgan ekan, – dedi Tavakkal.

– Ha, – dedim. – Afsuski, shunday bo‘lgan... (Sh. Xolmirzayev)



## NUTQNING BOYLIĞI

**1-topshiriq.** Berilgan parchada ayni bir xil birikmaning bir necha marta qo‘llanishi natijasida nutqning kambag‘allashayotganiga diqqat qiling, uni izohlashga urinib ko‘ring.

Men esa, iloji boricha, kuchimning boricha chopib, jinoyatchidan ortda qolmaslikka, uning qorasini ko‘zdan yo‘qotmaslikka tirishaman... Valitov yo‘l ustiga gursullab ag‘anadi, Davletshin chaqqonlik bilan uning ustiga minib oldi... Bor kuchi bilan tipirchilab, oyoqlari bilan tepinib ko‘rsa ham, Valitov uni ustidan irg‘itib tashlay olmadi... Biz yetib kelgan edik. Bor kuchim bilan uning qo‘liga yopishdim. (M. Nasibullin)

**2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Ma‘nodosh so‘zlarning qo‘llanish o‘rinlariga diqqat qiling.

Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi ayyor, mug‘ombir, puxta-pishiqlik; u yuraksiz emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma‘qul ko‘rar edi. Mana shular orqasida u, kamtarin mahalla baqqolining o‘g‘li Karim chittak – kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo‘lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi, – hozir kimsan Mirzakarimboy!.. (Oybek)



Nutq ta‘sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo‘lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘zlar, ma‘nolar, into-

natsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o'lchanadi.

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo'lsa, notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o'rin tutadi.

**60-mashq.** Parchani o'qing. Unda **ota** va **padar** so'zlarining ma'nodoshligidan nutq boyligini ta'minlashda qanday foydalanilganligini izohlang.

Maryam opa ko'rsatgan stullarga endi joylashgan paytimizda ulkan adibimiz Odil Yoqubovning xiyol bo'g'iq, ammo o'ktam ovozi hammamizni oyoqqa turg'izib yubordi.

– Eh-he! Xuddi otasining uyidadek kerilib o'tirishini ko'ring bularni! – ...tik gavdasini oldinga tashlabroq shoshmasdan kirib kelardi oqsoqol adib.

– Otamizniki bo'lmay kimniki! – bo'sh kelmadi Pirmat aka ham.

– Siz faqat bizga emas, yana o'nlab shogirdlaringizga ham ma'naviy padarsiz, ustoz! (*A. Ko'chimov*)

**61-mashq.** Matnlarni o'qing, ma'nodosh so'zlarning qo'llanishiga diqqat qiling.

1. Bu g'ayritabiiy vajohatga to'la sas o'tovda keng, og'ir po'stinga o'ralganча endigina uyqu to'riga chirmalgan Ermanga shunchaki itning

ovozi emas, balki yer bag'irlab o'rmalab kelayotgan baloyi azim — qirq ming oyoqli yovuz, dahshatli bir maxluqning sharpa — sadosidek tuyuldi. (*N. Norqobilov*) 2. Do'stim Sharif aytganki, «E o'rtoqlar, durustroq o'ylanglar. Bu o'zi muzey bo'lsa, muzeyda tarixdan, ya'niki o'tmishdan o'zga yana nima bo'lishi mumkin?!» Xayriyatki, tushunishgan. Ular avvalboshdan tushunishga moyil edilar, lekin tushuntiradigan mard topilmay garang bo'lardik. Ha, birodarlar, marhum do'stimiz shunday mard odam edi. (*Murod Muhammad Do'st*)

**62-mashq.** Matnni o'qing. Leksik va sintaktik ma'nodoshlikning nutq boyligini ta'minlashdagi ahamiyatini tushuntiring.

O'shanda his-hayajonga bandi bo'lgan Erman qasam zamiridagi o'ta og'ir, o'ta zalvarli yukni dastlab to'la his etmagan, guldor kigiz ustida bamisoli baqadek tosh qotib o'tirgan, hayratdan tosh qotgan Itolmasning behad quturishini va uning g'azabkor bo'kirishidan tog'lar boshi ko'chib, olam ostin-ustun bo'lib ketishini kutgan. Biroq u kutgan hol yuz bermadi — Itolmas quturmadi. U biror muddatdan so'ng xayolini jamlab, jilovlab, avvaliga nimtabassum qildi, so'ng kuldi. (*N. Norqobilov*)

**63-mashq.** Matnni o'qing. Nutq tuzuvchining qanday gap shakllaridan foydalanganini aniqlang, bu jihatlarning nutq boyligini ta'minlashdagi o'rnini tavsiflang.

Yaxshiboyev hozir o'zi gaplashgan yigitning qiyofasini ko'z oldiga keltirdi: yoshi qirqda, lekin, nari borsa, o'ttizlik ko'rinishi bor: qomatdor, xipcha, sochlari orqaga taralgan, silliq taralib, ustidan lok sepilgan; to'qrang kostyumi sutday oppoq ko'ylakda, misoli tanburning toriday tarang; yuzida tavoze, ammo jilmaygani sezilmaydi. Necha yildirki, Yaxshiboyev uning yuzini ko'rib, «odam degan qanaqasiga jilmaymasdan ham tavoze qilishi mumkin», deya bosh qotiradi. Birinchi yordamchi esa buning tamoman aksi: dehqonsifat; semiribroq ketgan; yoshi ham biror ellikni qoralagan; gaplari keskin va bejog'siz. (*Murod Muhammad Do'st*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ep bilmaslik** Noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoc. *Ma'nodoshi: ep ko'rmaslik.*

**Esi ketmoq I** 1. Qiynalib holsizlanmoq. *O'xshashi: holdan toymoq; holdan ketmoq.* 2. Qayta-qayta mehribonlik, xayrixohlik bildirmoc.

**Esi ketmoq II** Xayoli biror narsa haqidagi o'y-xotiralar bilan band bo'ldi.



1. Nutqning boyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning kambag'alligi deganda-chi?
3. Nutq boyligini ta'minlashning asosi nima?
4. Nutqning boyligiga putur yetkazuvchi holatlarni aytib bering.
5. O'rinsiz qaytariqlarning oldini olish uchun nutq tuzuvchi qanday malakaga ega bo'lishi kerak?

**64-mashq.** Gaplarni o'qing. Leksik va frazeologik ma'nodoshlikni boy nutq tuzishdagi ahamiyatini tavsiflang.



1. Shu bois u sayhonlikda «uloq-uloq» o'ynayotgan bolalardek shovqinlab, ovulni boshiga ko'tarayotgan yigitlarning qilig'ini ko'pda yoqtirmay, jini qurishibroc turardi. (*N. Norqobilov*)
2. Amir Temur halim tabiat, yumshoc ko'ngil, tortinchoq, qora ko'zlari hamisha mungli boqadigan qizini juda ham ardoqlar, har kuni holidan xabar olardi. (*Muhammad Ali*)
3. Rahim Saidov uyni yana bir bor qarab chiqdi. Tryumoning hamma tortmalarini axtardi, yozuv stolining g'aladonlarini bir-bir titkiladi. Boshqa hech narsa chiqmadi. (*O'. Umarbekov*)
4. Ra'no ota oyoqlarini quchoqlab, boshini urib yig'ladi, ketmayman deb dod soldi. Ota ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, ovozi titrab, ho'ngramoqdan beri bo'lib «Jonim bolam, iloyo, borgan joyingda unib-o'sgin» deb duo berdi. (*Isajon Sulton*)



## NUTQNING BOYLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITALAR

**Topshiriq.** Matnni o'qing. Unda **kapalak** so'zining 7 marta takrorlanishi natijasida nutqning leksik boyligi zarar ko'rganligi haqida fikrlashing.

**Kapalak**larni aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo‘nayotgan **kapalak**larga mahliyo bo‘lmay ilojing yo‘q. Bularning hammasi O‘tkirni butunlay sehrlab qo‘ydi. O‘tkir o‘rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalak**ka ko‘zi tushib qoldi. Buncha chiroyli uchmasa. O‘tkir **kapalak**ni ushlamoqchi bo‘ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, **kapalak** ko‘z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo‘lardi. O‘tkir **kapalak**ning orqasidan quvlab charchadi, ko‘p ovora bo‘ldi. Axiyri, **kapalak**ni ko‘zdan yo‘qotib qo‘ydi. (*A. Sodiqov, «Tog‘da» hikoyasi*)



Nutqning boyligini ta‘minlashda bir qancha til vositalari ishtirok etadi. Ular orasida leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida o‘rin tutadi.

Boy, shirali nutq tuza bilishi uchun so‘zlovchining, eng avvalo, so‘z zaxirasi boy bo‘lmog‘i kerak. Atoqli so‘z san‘atkorlarida, masalan, ulug‘ Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq, rus shoiri A. S. Pushkinda 21 mingdan ortiq so‘z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta‘kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so‘z boyligiga ega bo‘lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o‘z nutqining boy va ta‘sirchan bo‘lishini istaydigan har bir kishi o‘z lug‘at boyligini kengaytirib borish haqida qayg‘urishi lozim.

Nutqning boyligini ta‘minlashda, ayniqsa, ma‘nodoshlik katta imkoniyatga ega. Ma‘nodoshlik, ma‘lumki, faqat so‘zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik birliklar doirasida ham keng tarqalgan.

Matnda so‘z, so‘z birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yo‘llaridan biri ayni shu ma‘nodoshlik asosida bir xil birliklarni almashtirishdir.

Tilimizdagi sodda va qo‘shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo‘lgan millionlab jumlar boy nutq tuzish uchun cheksiz imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi tarkib nuqtayi nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumladan tarkib topmaydi, ya‘ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo‘lmaydi.

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo‘llanadigan takrorlardan farqlash lozim. Ko‘proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki maz-

munni alohida ta'kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Masalan, quyidagi she'riy parchada buni ko'rish mumkin:

*Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,  
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.  
Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir,  
Sir kabi seravjdir, Pomirday poydor.*

(A. Oripov)

**65-mashq.** Matnlarni o'qing. Leksik, sintaktik va intonatsion takrorning matn mazmunini ta'kidlashdagi o'rnini izohlang. Takrorning nutq boyligiga ta'sirini baholang.

1. Bir mahal tungi osmondagi bulutlar supurilib, ozod-ozod to'lin oy samoda nur sochdi. Bir malak bor edi, kelin bo'ldi, bir jayron bor edi, qafasga tushdi, bir qiz bor edi, turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo'ydi. (*Isajon Sulton*) 2. Farzand ko'rgach, Ra'no, haqiqatan ham, gul-gul ochildi. Qizlik go'zalligi bu tarovat oldida hech nima bo'lmay qoldi. Gul edi, xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak edi, barq urib ochildi. Bulut edi, yomg'irini ayamay to'kdi. Quyosh edi, harorat-la porladi. Oy edi, to'lishdi. Kecha edi, bag'ri yulduzga to'ldi. Qush edi, jo'shib-jo'shib sayradi. Zilol edi, sharqirab oqdi. (*Isajon Sulton*)

**66-mashq.** Matnni o'qing. Hozirgi zamon ma'nosining ifodalanishiga diqqat qiling. Grammatik ma'nodoshlikning boy nutq tuzishdagi ishtirokini izohlang.

Tekis dalada Tohir yalangoyoq bo'lib, ho'kiz bilan **yer haydamoqda**. Samarqandda Tohirga qo'shilib navkar bo'lib kelgan bir qulog'i kesik Mamat esa hali haydalmagan yerga qulochkashlab **urug' sochyapti**. U ham yalang oyoq bo'lib ishton pochasini **shimarib olgan**. Ulardan narida uch-to'rtta dahkatlik tojik dehqonlar ham **yer haydab, ekin eka-yotir**. Yer **yumshoq**, havo **yoqimli**, ishning unumi **yaxshi**. Shuning uchun hammalarining ruhlari **ko'tarinki**. Shuncha vaqt jang-u jadalda yurib, dehqonchilik kasbini sog'ingan Tohir endi yayrab **yer haydaydi** va birda-yarim ashula **xirgoyi qilib qo'yadi**. (*P. Qodirov*)

**67-mashq.** Badiiy va ilmiy-ommabop matnda o'rikka berilgan tavsiflarni qiyoslang. Nutqning boyluk sifati qaysi uslubda ahamiyatligini tushuntiring.



### O'rik

Qantak o'rik	Mag'izimga berkitgan
Otim bor,	Qandim bor,
Xo'p mazali	Novvotim bor.
Totim bor.	(E. Vohidov)

### O'rik

O'rik — ra'noguldoshlar oilasiga mansub mevali o'simlik. Vatani — O'rta Osiyo. O'zbekistonda, asosan, oddiy o'rik turi ekiladi. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg'ish; danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillari bor; shirin, shirinnordon. O'rik — yaxshi asal beruvchi daraxt. (*O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*)

**68-mashq.** Gaplarni o'qing. Nutqning boyligini ta'minlayotgan birliklarni izohlang.

1. Juda ishni ko'ngling tusagan ekan, ana, ko'cha-ko'yda nechta gazet sotadigan kioska bo'sh yotibdi, o'shanga ishga kir, **ma'rifat** tarqat, **ziyo** soch. 2. Uchrashuv **tugab**, mehmonlik izzatimiz **bitib**, u yerdagi o'rtoqlar biror o'n chaqirimcha kuzatib qo'ygach, yana ikkimiz yolg'iz qoldik. 3. — **Otni** biladigan odamlarni **xush ko'raman**. Biz asli otboqarning o'g'limiz, Saidqul aka, otni **yaxshi ko'ramiz**. Boshqa ishlarimizni aytolmayman-u, lekin uch-to'rtta yaxshi **tulporimiz** bor. To'pori **tamom o'zidan ketgan**, mening borligimni **butkul unutib**, hansirab yugurib, butalarning shoxlarini sindirib, nuqul xitob qiladi: Uch-a, **jonivor!** Uch, akang qarag'ayning **xo'rozlari!** (*Murod Muhammad Do'st*)

**69-mashq.** She'rni o'qing va leksik takrorning qanday maqsad bilan qo'llanganini aniqlang.

Shag'irlyaydi betinim daryo,	Shag'irlyaydi qorong'i dunyo,
Shag'irlyaydi vahm to'lgan jar,	Shag'irlyaydi vodiy, daralar.
	(Hamid Olimjon)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Esi chiqib ketmoq** Nihoyatda qattiq qo‘rqmoq. *Varianti: esxonasi chiqib ketmoq.* *Ma’nodoshi: jon-poni chiqib ketmoq; joni xalqumiga kelmoq.* *O‘xshashi: kayfi uchmoq; yuragi chiqib ketmoq.*

**Yuzidan o‘ta olmaslik** Biror ishni qilishda kimningdir ra‘yi, xohishi bilan hisoblashmoq.



1. Leksik, grammatik va intonatsion vositalarning nutq boyligini ta’minlashdagi o‘rnini tavsiflang.
2. Ma’nodoshlikning qanday turlarini bilasiz?
3. Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi jihatlarni tushuntiring.
4. Qaysi nutqiy uslublarda atayin takrorlardan foydalaniladi?

**70-mashq.** Matnni ko‘chiring. Nutqning boyligini ta’minlayotgan ma’nodosh so‘z va iboralarni aniqlang.



Amir bo‘lamiz — ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi yigit. U menga juda mehribon, «bolajonim»lab boshiga ko‘taradi. Qisqasi, xudo berganini birodarlari bilan bo‘lishadigan hotamtov, muruvvatli inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham kek-g‘arazini sezmagaman, hamisha bag‘rini ochib muomala qiladi. To‘g‘ri, andak kinoya aralash, andak piching-u istehzo bilan. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyaning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini xush ko‘rmaslik — iqi suymaslikmi yoki arzimas bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib adovat chohida aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi xarxasha-yu janjal evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, «o‘gay» jiyani — Amirga esa odatdagi yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (*Erkin A‘zam*)





## NUTQNING JO'YALILIGI

**Topshiriq.** Kaykovusning «Qobusnoma» asaridan olingan parchani o'qing. Gapni o'z joyini topib gapirishning foydasi haqida fikrlashing.

Tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatg'il, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so'zlamag'ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki undan hunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: «So'z bir nash'adur, undan xumor paydo bo'lur».



Nutq tuzishdan oldin bu nutqning jo'yasini – munosib o'rnini tasavvur qilish kerak. Har qanday nutq ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mazmuni, tinglovchi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og'zaki ekanligi, nutq vaziyatiga to'la mos kelishi zarur, jo'yalilik sifati shu asosda yuzaga keladi. Til vositalarini tanlashda shu jihatlar inobatga olinishi zarur.

Masalan, yaqin kishisini yo'qotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma'lum. Shunday odamdan ko'ngil so'rash, unga ta'ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda «o'lmoq» ma'nosini ifodalash uchun aynan *o'lmoq* so'zini tanlash o'rinli emas, bu so'z so'zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning jo'yaliligini ta'minlash maqsadida mazkur so'zning *vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq* kabi «yumshoqroq» muqobillari qo'llanadi.

Kichkintoylar nutqida, masalan, *Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!* kabi iboralar jo'yalilik sifatidan mahrum bo'ladi, chunki ular bola nutqi uchun mutlaqo xos emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi.

Yoki *Bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi* gapida *minnatdorchilik bildirmoq* iborasi nojo'ya qo'llan-

gan, shuning uchun bu nutqni jo‘yali deb bo‘lmaydi. Bog‘cha bolasi va tarbiyachi o‘rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo‘llashga monelik qiladi, bunday o‘rinda jo‘yalilik sifati rag‘batlantirmoq so‘zini ishlatishni taqozo etadi.

**71-mashq.** Berilgan matnni o‘qing. Qaysi o‘rinda nutqning jo‘yaliligi buzilganini aniqlang.

- Kechirasiz, o‘zingizni tanishtirmadingiz.
- Asli farg‘onalikman. Ismim Kamola. Hozirda oilam bilan Toshkentda yashayman.
- O‘z tug‘ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...
- Albatta. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l deganlari haq ekan. (*«Xonadon» gazetasi*)

**72-mashq.** Berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar nutqning jo‘yalilik sifatini nima uchun buzayotganligi haqida fikrlaringizni bildiring.

1. Nimalar qilyapsiz, ona?! – o‘g‘li yolvoruvchan ovoz bilan **yaltoqlanib** Tazkiraning oldida tiz cho‘kkan. (*M. Nasibullin*) 2. Onamning jahllari battar qo‘zg‘ab, **shang‘illagancha** quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar. (*S. Ravshanov*) 3. Ertalab men maktabga, bobom esa harbiy komissariatga jo‘nab ketdik. O‘qishdan kelsam, oyim hali daladan qaytmabdilar. Bobom nimagadir xafa. – Keldingmi, **do‘ndig‘im?** – deb xomush jilmaydilar. (*S. Ravshanov*) 4. «Tikuvchilik fabrikasida biroz ushlanib qoldim, shekilli, u shu orada, bu yerga qanday qilib kelib qoldi ekan!» deya uning chaqqonligiga **rashkim** keldi shu topda. (*M. Nasibullin*)

**73-mashq.** Parchani o‘qing. Bola, to‘rtinchi sinf o‘quvchisi tilidan qilingan hikoyada nutqning jo‘yalilik sifatiga salbiy ta’sir etgan so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan, ularni tavsiflashga harakat qiling.

Negadir men Sirojni yoqtirardim. **Beozor, dilkash, odamoxunligi** uchunmi, bilmayman, **haytovur**, yaxshi ko‘rardim... Keyin bilsam, oyim borib, qo‘shni qishloqdan **mulla Hamdam**ni chaqirib kelibdilar. Yuzlari qotmaroq, qo‘llari burushiq, yelkalari biroz chiqqan, soqollari oppoq **mulla sipo**

kiyingan edi. Boshlarida salla. Oyim **mullani** «keling, keling» deb, uyga boshlab kirdilar. **Mulla Hamdam** yulg'un hassasini devorga suyab qo'ydi... Maktabdan kelib, endi **tamaddi qilayotgan** edim, darvoza taqilladi. Yugurib borib, ochdim. Uzun oq yaktak kiygan **mulla Hamdam**. (*S. Ravshanov*)

**74-mashq.** Parchani o'qing. Unda qo'llangan *xush kelibsiz* iborasining nutq sharoitiga muvofiq emasligi natijasida yuzaga kelgan jo'yasizlikni tushuntiring.

– Ijrokom qalay? – deb so'radi Yaxshiboyev. – Yangiroq latifalardan bormi?

– Bor-u, lekin kulgilimas, – dedi To'pori. – Hozir u kishi shiorga ruju qo'yganlar. Rayonda alvon ilinmagan go'sha qolmadi hisob.

– Yaxshilari ham bordir?..

Kecha aytishdi, qabristonning tepasiga «Xush kelibsiz» deb yozilgan emish.

– Ahmoqmi u, uka? – dedi Yaxshiboyev kulgisini yig'ishtirib. – Mi-yasi chayqalgani yo'qmi, ishqilib? (*Said Ahmad*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Yuragini yormoq I** Qattiq cho'chitib qo'rqitmoq. *Ma'nodoshi: o'takasini yormoq. O'xshashi: kayfini uchirmoq.*

**Yuragini yormoq II** Ichidagi istak yoki dardini aytmoq. *Varianti: ko'nglini yormoq.*

1. Nutqning jo'yaliligi sifatini ta'minlashda nimalarni hisobga olish lozim?
2. Jo'yalilikni ta'minlashda sinonimlardan qanday foydalaniladi?
3. Kattalar bilan gaplashganda, buyruq ohangi o'rinli bo'lishi mumkinmi?
4. Jo'yalilik va so'z ma'nosining bo'yog'i haqida gapiring.
5. Yoshi ulug'larga murojaat shakllari haqida so'zlang.

**75-mashq.** Berilgan maqollarda ifodalangan g'oyaning to'g'riligini misollar asosida tushuntirib, matn tuzing. Maqollarni yod oling.



Jo'yali so'z jo'yasin topar,  
Jo'yasiz so'z iyasin (egasin) topar.

Jo'yaga tuya ham cho'kadi.

O'rinli so'zga tuya cho'kadi,  
O'rinsiz so'zga hamma so'kadi.

Suvni sep singar yerga,  
So'zni qil sig'ar yerga.



## JO'YALILIK VA USLUBLAR

**Topshiriq.** Berilgan parchadagi *jamg'armoq* so'zining ma'nosi va uning ko'proq rasmiy uslubga xoslanganligi haqida mulohazalaringizni ayting. Keltirilgan gapda bu so'zning o'z o'rnini topgan-topmaganligini izohlashga harakat qiling.

Ramazon aytuvchilar ko'payib ketgan edi... Mabodo ulardan oldinroq biror eshikka borib qolsak, jamg'argan narsalarimizni zo'ravonlik bilan tortib olishardi. (*S. Ravshanov*)



Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari borligini Siz yaxshi bilasiz. Bir uslubga xoslangan so'z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o'tkazilishi nojoiz, o'rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning jo'yaliligi buzilishi mumkin.

Bu o'rinda aytish kerakki, jo'yalilik sifatini o'rganishda nutqning yozma va og'zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida jo'yalilik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, yozma va og'zaki nutqning voqe bo'lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko'ra bu ikki nutq shaklining o'ziga xoslangan birliklari, grammatik

shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning jo‘yaliligiga putur yetadi.

Albatta, badiiy nutqda jo‘yalilik o‘ziga xos namoyon bo‘ladi.

**76-mashq.** Berilgan badiiy parchani o‘qing. Unda qahramon tilida *o‘lmoq* so‘zining jo‘yasiz qo‘llanishi uning madaniy saviyasini ta’kidlashga xizmat qilayotganini izohlang.


Bashirjon unga qaradi-yu: «Ha, nima bo‘ldi?» – deb so‘radi ayolning boshidagi oq ro‘moliga ishora qilib.

– Uzoqroq bir qarindoshimiz kecha...

– Hm-m! – dedi boshliq hissiz. – O‘ldimi?

– Ha!

– Hm-m, chatoq bo‘libdi-ku... Ha, xudo rahmat qilsin... Xo‘p bo‘lmasa, o‘sha kitoblar bor dedingiz-a... (N. Aminov)

**77-mashq.**  Parchani o‘qing. Diniy va‘z uslubini so‘zlashuv uslubiga ko‘chirish natijasida yuzaga kelayotgan yumoristik kulgini izohlashga harakat qiling.

Vafo attor qiroat bilan so‘zlashga kirishdi.

– Qadim muftiy-u fuzalolar «Shariatda sharm yo‘q» deganlar, ya‘ni «Shariat sharm nadorad». Bas, shunday erkan, shar‘an bir masala ilmli, mullo kishilarning fatvolari birlan hal etilg‘on vaqtlar ham bo‘lgandur. Alhol, sizga ko‘k eshak darkordurmu, Davron uka?

– Ha, ko‘k eshak kerak!

– Undoq bo‘lsa, besh daqiqa ichinda sizga ko‘k eshakni va yana homilali eshakni tayyorlab berurmiz.

Davron tog‘a bilan Bashirjon hang-mang bo‘lib qoldi...

Vafo attor unga yaqin kelib, kafti bilan kesib gapirdi:

– Mani sintim (yoshim) yetmish ikkida. O‘ttiz ikki pora kalomi sharifni xatm qilganman. Mullo sifatinda shariat nomidan fatvo beramankim, shul maxluqi olloh, ya‘ni xari badbaxt eshshakning rangi kabut, yani ko‘kdur va yana qornida homilasi bordur. (N. Aminov)

**78-mashq.** Atoqli yozuvchi Said Ahmadning «Mushtipar» nomli teskari hikoyasidan olingan parchani o‘qing. Er va xotinning maqomini atayin almashtirish natijasida, ya‘ni nutqning jo‘yalilik sifatining buzilishi asosida yaratilgan o‘tkir kulgining mohiyatini tushuntiring.

U ichkuyov edi. Xotini ishga ketganda, idish-tovoqlarni yuvib, bolani kiyintirar, kiyimlariga dazmol bosib, hammayoqni orasta qilib qo'yardi. Bu orada un elab, xamir qorardi; sigir sog'ib, qatiq ivitardi; qo'l mashinasini shitirlatib, bolasiga har xil ko'ylakchalar tikib qo'yardi.

— Hoy, bolaga qarang, qanaqa ivirsigan kuyovsiz. Onangiz o'lgur samovar qo'yishniyam o'rgatmapti-da. Hozirgi onalarga hayronman, o'g'il bola-ku birovning xasmi, hunar o'rgatsa bo'lmaydimi? Shuning uchun ham xotinga tegganda, kaltakdan boshi chiqmaydi.

Kuyov yelib-yugurib ish qiladi. Kir yuvib turib, ko'pik yuqi qo'li bilan qaynananing oyog'ini uqalagani chopadi, bodom tuyib dokaga soladi-yu, bolaning og'ziga tiqadi. Kelin halizamon ishdan kelib, samovarga chiqib ketadi. Ovqatga unnash kerak, kiyimlarini dazmollash kerak...

Er juda siqilib ketdi. Xotini ishdan kelganda, ko'z yoshi qildi:

— Siqilib ketdim, javobimni bering, chiqaman.

Xotin do'ng'illadi:

— Qo'yadigan erim yo'q.

— Hech bo'lmasa, ro'zg'orimizni bo'lak qilib bering.

Xotinga bu gap malol keldi:

— Nomard qiz ona ro'zg'orini bo'lak qiladi. Er topiladi, ona topilmaydi.

Er hurpayib, ikki kun yig'ladi. Oxiri, bolasini ko'tarib, uydan chiqib ketdi. Bechora mushtipar er, bolani bag'riga bosib, yig'lab-yig'lab onasini nikiga ketyapti. O'g'il bola yor-yor bilan uydan chiqib ketdimi, qo'shmani bilan qo'sha qarisin ekan, bola ko'tarib, uyga qaytib kelgulik qilmasin ekan.

Onaga qiyin, qachon tengi chiqadi-yu, qachon uzatadi. Ammo bitta bolasi bilan qayoqqa ham sig'ardi?

Ha, nomard xotin!



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Yuragi orqasiga tortib ketmoq** Bir lahza ich-ichidan qo'rquv aralash qattiq hayajonlanmoq. *Varianti:* **yuragi orqasiga urib ketmoq.**

**Yuragi toshib ketmoq** Kechinmalari ichiga sig'may, kimgadir aytish ehtiyoji tug'ilmoq.



1. Nutqning og‘zaki va yozma shakllaridagi o‘ziga xosliklar haqida gapiring.
2. Nutqiy uslublarni tavsiflay olasizmi?
3. Har bir uslubning o‘ziga xoslangan birliklari to‘g‘risida so‘zlang.
4. Jo‘yalilikning badiiy uslubdagi o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

**79-mashq.** Har bir nutqiy uslubning o‘ziga xoslangan til vositalarini tavsiflang, shu asosda yozma matn tuzing.



## MUSTAHKAMLASH

### Savollarga javob bering.

1. Nutqning boy yoki kambag‘alligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning boyligini ta‘minlashda ishtirok etadigan til vositalarini bilasizmi?
3. Nutqning boyligini ta‘minlashda ma‘nodoshlikning o‘rni qanday?
4. Takrorning badiiy nutqdagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?
5. Nutq jo‘yaliligi sifatining mohiyati nimadan iborat?
6. Nutqning jo‘yaliligini ta‘minlashda so‘zlovchi va tinglovchining maqomi, yosh xususiyatlari kabi jihatlarni hisobga olish kerakmi?
7. Nutqning jo‘yaliligi va uslublar munosabati haqida nimalarni bilasiz?
8. Badiiy nutqda jo‘yalilikning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini qanday tushunasiz?

**1-topshiriq.** Ardoqli adib O‘tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olingan matnni o‘qing. Badiiy maqsad bilan qo‘llangan leksik, grammatik va intonatsion takrorning nutq boyligini ta‘minlashdagi o‘rniga diqqat qiling.

### Chegara

Odanzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko‘ra sholg‘om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odanzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko‘ra bulbulni sho‘rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku.

Odanzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko‘rib, ko‘ngli zavqqa to‘ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku!

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyukli qahramoni o'lib qolsa yig'laydi? Uni yozuvchi «ichidan to'qib chiqargani»ni biladi-ku!

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa uxlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku!

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!

**2-topshiriq.** Atoqli adib Asqad Muxtorning «Chinor» romanidan olingan parchani o'qing. Matnning gap qurilishiga e'tibor bering, yozuvchi nutqning boyligini ta'minlashda qanday gap qoliplaridan foydalanganini aniqlang.



Hali oppoq tong. Nur uyg'otgan qushcha tovushining kumush xalqachalari osmonga o'rlab ketdi. Nim shabadada yashil bulutning har joy-har joyi sovunday ko'pirib, azim chinorning sirli bag'ridan chiqib kelgan sokin va qudratli shovullash olamni tutdi. Quloq solmaganga bu tovush eshitilmaydi ham, lekin Ochil buva uchun hozir tong ham go'yo mana shu shovullashdangina iborat edi. U guzardagi katta oq tosh supada tikka turibdi. Ana shu tog' qishlog'ida bunday qoyatosh serob, ular yo'lkalarda zinapoya, ariqlarda ko'prik, choyxonalarda supa vazifasini o'taydi. (*Asqad Muxtor*)

**3-topshiriq.** Matnlarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan iboralarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirib ko'ring, shundan kelib chiqib iboralarning nutq boyligini ta'minlashdagi o'rnini tavsiflang.

1. Bir soat nari-berisida **yetti uxlab tushiga kirmaydigan** voqeaning so-dir bo'lishi uni esankiratib qo'ygandi. Umrida birinchi marta samolyotga tushgan odam osmon-u falakning **havosini olib, quloqni qomatga keltiradigan** motor tovushiga ko'nikib olguncha **es-hushini yig'olmadi**, nima bo'lganining **tagiga yetolmadi**. 2. Keyingi paytlarda Mehriniso o'g'lining xoli paytini qanchalik poylasa, Botir bu uchrashuvdan shunchalik qochardi. **Qattiq gapirib, cho'rt kessa**, ranjitib qo'yishini o'ylardi. **Ko'ngliga qarab** rozilik berishni o'ylasa vahm bosardi. 3. Mehrinisoning **yuragiga g'ulg'ula tushgan edi**. O'g'lining sadoqati, vafosi bilan ich-ichidan faxr-



lansa, sevganidan judo bo‘lib ezilayotganiga rahmi kelardi. Qay yo‘sinda tasalli berib, **yo‘lga solishni** bilmasdi. (*Rahmat Fayziy*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Yuragi qon bo‘lmoq** 1. Diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq. *Varianti: yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq; bag‘ri qon bo‘lmoq; yurak-bag‘ri xun bo‘lmoq; bag‘ri xun bo‘lmoq; qon bo‘lmoq. Ma‘nodoshi: yuragi siqilmoq.* 2. Ruhan azoblanmoq. *Varianti: yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq; yurak-bag‘ri xun bo‘lmoq (eskirgan); yuragi xun bo‘lmoq (eskirgan); bag‘ri xun bo‘lmoq (eskirgan); qon bo‘lmoq. Ma‘nodoshi: yuragi ezilmoq.*

**O‘pkasi to‘lmoq** Iztirob chekib, yig‘lab yuborish holatiga yetmoq. *O‘xshashi: xo‘rligi kelmoq; yig‘lamoqdan beri bo‘lmoq.*

**4-topshiriq.** Ukangiz yoki singlingizga xat yozing. Matnda til birliklarining uning yoshiga mos ravishda, ya‘ni nutqiy jo‘yalilik talablariga muvofiq tanlanishiga e‘tibor qiling.



## NUTQNING IFODALILIGI

**1-topshiriq.** Quyidagi she‘rni o‘qing, undagi **q** tovushining takrori natijasida yuzaga kelayotgan ifodalilikni izohlashga harakat qiling.

Qaro qoshing, qalam qoshing,  
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz,  
Qilur qatlima qasd qayrab —  
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,  
Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan.  
Qarab qo‘ygil qiyo,  
Qalbim qizdysin quyoshing, qiz.

(*E. Vohidov*)

**2-topshiriq.** Berilgan so‘z juftliklarini qiyoslang. Bu so‘zlarning ifodalilik imkoniyatlaridagi farqni izohlashga harakat qiling.

*Izn bermoq – ruxsat bermoq;  
raqam qilmoq – qayd qilmoq.*



Nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga jiddiy ta’sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni o‘ziga jalb qila oladigan bo‘lishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib bo‘lgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog‘ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e’tibor qilinsa, ilmiy uslubda o‘rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo‘ladi.

Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir.

Tilda ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasini, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta’minlashga qiynalmaydi.

**80-mashq.** Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’riy parchalarni o‘qing. Ulardagi nutqiy ifodalilikni ta’minlayotgan leksik va fonetik vositalarni aniqlang.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,  
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Bo‘lar elning bolalari bir-birin der,  
Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer.

Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib,  
Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi...

**81-mashq.** Matnni o‘qing. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ifodaliligining ta’minlanishiga diqqat qiling.



Zebi yuragida tugilib yotgan zo‘r tugunni yechib yuborgan edi. Razzoq so‘fining sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan yiroqlashganlar; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilgan va ta’kidlangan so‘zlar unutilgan; sovuq

so‘filarning «harom» degan da‘volari sinib, parcha-parcha bo‘lgan; to‘rt devorning bu tutqun qizi o‘ziga o‘xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo‘lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag‘rida yillardan beri tugilib kelgan alamlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo‘shliqlarga yoyib yuborgan edi. (*Cho‘lpon*)

**82-mashq.** Gaplarni o‘qing. Nutqiy ifodalilikni ta‘minlash maqsadida qo‘llangan birliklarni aniqlang.

### Himmatni qarang!

Tarixchilarning yozishicha, «oqposhsho» Aleksandr Ikkinchi oliy hazratlari ko‘p «adolatpesha» bo‘lgan ekanlar.

Chernyayev ayni saratonda Toshkentni qariyb ikki oy suvsiz qoldirib qamal qilganini, shaharga bostirib kirgach, aholini ayovsiz qirganini eshitib, podshoyi olam qattiq ranjibdilar. Shu qadar xafa bo‘libdilarki, Chernyayevni kapitanlik unvonidan mahrum qilib, general unvonini berib-dilar. Bandi brilliant bilan jilolangan oltin qilich hadya qilibdilar.

Bir «bechora»ni «jazolash» bo‘lsa, shunchalik bo‘ladi-da! (*O‘. Hoshimov*)

**83-mashq.** Berilgan she‘rni ifodali o‘qing. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali nutq ta’sirchanligini ta‘minlashdagi o‘rnini izohlang.

### Manzara

Qora qushlar qo‘narlar  
Majnuntolning shoxiga.  
Boshin suvga egarlar,  
Boqmay sira ohiga.  
Rahmi kelib bulutning,  
Yig‘lab to‘kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol  
Ko‘taradi boshini.  
Bulutning orasidan  
Quyosh kulib qaraydi.  
Majnuntolning yuvilgan  
Sochlarini taraydi.

(*E. Vohidov*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Qildan qiyiq axtarmoq** Yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq. *Varianti: qildan qiyiq qidirmoq. Ma’nodoshi: tirnoq orasidan kir izlamoq.*

**Qora terga botmoq** Haddan tashqari zo‘r berish natijasida mo‘l-ko‘l terlamoq. *Varianti: qora terga tushmoq.*



1. Nutqning ifodalilik sifatini tavsiflang.
2. Nutqning ifodalilik sifatiga qaysi uslubda ko‘proq ehtiyoj seziladi?
3. Qaysi nutqiy uslubda ifodalilik sifati u qadar muhim emas?
4. Til estetik vazifasining amalga oshishida nutqning qaysi kommunikativ sifati favqulodda muhim o‘rin tutadi?
5. Nutq ifodaliligini yuzaga chiqarishda so‘z va ibora ma’nodoshligi qanday ahamiyat kasb etadi?

**84-mashq.** **Tugadi – bitdi, keldi – qadam ranjida qildi** kabi so‘z va iboralar juftligi ishtirokida gaplar tuzing. Tuzilgan gaplar asosida bu birliklarning ifodalilik imkoniyatlarini izohlang.



## IFODALILIK VA IBORA

**Topshiriq.** She’riy parchani o‘qing. Unda qo‘llangan **jonni baxsh etmoq, boshga ko‘tarmoq** iboralarining ma’nolarini va ularda aks etgan ifodalilikni izohlang.

Yaratish zavqidan sipqorgin to‘yib,  
Kelajak poyiga baxsh etgin jonni.  
Ozodlik, obodlik baxtini suyib,  
Boshingga ko‘targin O‘zbekistonni.

*(O‘tkir Rahmat)*



Tilning so‘z xazinasi nutqiy ifodalilikning o‘ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug‘at boyligidagi so‘zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, *kutmagan* soʻzi *yetti uxlab tushiga kirmagan* iborasi bilan maʼnodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan soʻzdan ancha ustun. Yana qiyoslang: *oʻtaketgan* – *uchi-ga chiqqan*; *beqiyos (juda)* – *yer bilan osmoncha*; *albatta* – *turgan gap*; *hech qachon* – *ikki dunyoda (ham)*; *yashirin* – *yeng ichida*. Frazeologik iboralar oʻz maʼnodoshlari boʻlmish soʻzlarga nisbatan, birinchidan, maʼnoni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obrazlilik yorqin bir tarzda aks etadi.

Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh boʻlish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalardir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini taʼminlashda betakror vositalardir. Soʻz sanʼatining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Iboralarning asosiy qoʻllanish oʻrni, yashash joyi, asosan, badiiy uslubdir. Ilmiy va rasmiy uslublarda esa iboralar deyarli qoʻllanmaydi.

**85-mashq.** Parchani oʻqing, undagi **xursand boʻlmoq** soʻzi va **boshi osmonga yetmoq** iborasi oʻrtasidagi ifodalilik darajasi farqini tushuntiring.

- Xatni oʻqidingizmi?
- Ha... oʻqidim...
- Achchigʻingiz kelmadimi?
- Nega, nega... xursand boʻldim...
- Xursand boʻldingizmi? Rostdan-a?
- Boshim osmonga yetdi.

(*Choʻlpon*)


**86-mashq.** Matndagi iboralarning maʼnolarini izohlang, ulardagi toʻgʻri maʼnolar asosida yaratilgan kulgining mohiyatini tushuntiring.

Majlisda unga:

– Sen bola, chuchvarani xom sanab yuribsan. Shoshma hali, joʻjani kuzda sanaymiz. Bu qanaqasi, sirkang suv koʻtarmaydigan boʻlib qopti, – deyishdi...

– Endi menga navbat! Mening shaʼninga juda koʻp nojoʻya gaplarni aytdinglar. Hammasiga javob tayyor: chunonchi, **sirkasi suv koʻtarmaydi**, dedinglar. Nimaga shama qilyapganlaringni bilaman. Uzumchilik zvenosida

ishlaganimda sirka solganman. U suv ko'taradimi, yo'qmi, o'zim bilaman. Ikkinchi masalga o'taylik: **jo'jani kuzda sanaymiz**, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib topshirganman. Jo'jasi ham, xo'rozi ham to'ppa-to'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: **chuchvarani xom sanaydi**, deysizlar. Mana shu gap menga og'ir botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanayotganimni kim ko'ripti? Kimning uyiga kirib, chuchvarasiga qo'l tekkizibman? Voobshe, men chuchvara yemayman... (*Said Ahmad*)

**87-mashq.**  **Ignaday narsani tuyaday qilmoq – bo'rttirmoq; igna ustida o'tirmoq – bezovta bo'lmoq, qo'y og'zidan cho'p olmagan – mo'min, yuvosh; tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan – tegajoq, xira** juftliklaridagi iboralarning ifodalilik darajasi haqida fikrlashing.

**88-mashq.** Berilgan parchadagi iboralarni toping. Ularning matn ifodaliligini ta'minlashdagi ishtirokini izohlang.

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat ko'zi tushganda, shubha paydo qilgandagina jinoyatchining qo'lini ushlaydi, yo'lini to'sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo'ya ish qilish uchun qo'l ko'targani yo'l qo'ymaydi. Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi. (*Abdulla Qahhor*)

**89-mashq.**  Berilgan she'rdagi iboraning badiiy qimmatini baholashga harakat qiling.

### Kapalakning kapalagi

Qarang, qarang  
Gulga qo'ngan  
Kapalakka,  
Qachon ko'rsam,  
Uchib yurar  
O'zi yakka.  
Bir yomon qush  
Uni birdan  
Quvib ketdi,

Yetvoldi deb,  
Yuraklarim urib ketdi...  
Bu holatdan  
Kapalak ham  
Cho'chib ketdi,  
Kapalakning  
Kapalagi  
Uchib ketdi.

(*Po'lat Mo'min*)



1. Iboralar ifodalaydigan ma'nolar so'z ma'nolaridan qanday farq qiladi?
2. Iboralarning obrazlilikiga haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.
3. Nutq ifodaliligini ta'minlashda iboralarning ishtirokini misollar asosida tushuntiring.
4. Ijodkorning iboralarni qo'llashdagi mahorati haqida gapiring.

### 90-mashq.



O'zingiz o'qiyotgan badiiy asardan o'nta frazeologik iborani topib, gap ichida ko'chiring. Bu iboralar bilan ma'nodosh bo'lgan so'zlarni aniqlang va iboralarning nutq ifodaliligini ta'minlashdagi ishtirokini izohlang.



## IFODALILIK VA KO'CHIMLAR

**Topshiriq.** Berilgan misralarda **lochin** so'zining qanday ma'noda qo'llanganini tushuntiring, undagi ko'chma ma'no nima asosda yuzaga kelganini ayting.

Qutlug' joy ko'p erur ushbu dunyoda,  
Yulduzni ko'zlagan lochin ham talay. (A. Oripov)



So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi.

Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Masalan, *qozonning qulog'i* birikmasi-

dagi *quloq* soʻzining maʼnosi metaforik maʼno, chunki u odamning qulogʻiga oʻxshashligi asosida yuzaga kelgan. Lekin ayni soʻzning bu maʼnosi tilda doimiy metaforaga aylangan, yaʼni turgʻunlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan.

Metafora qanchalik yangi, tutilmagan boʻlsa, shunchalik ifodalili boʻladi. Mohir soʻz ustalari oʻz asarlarida soʻzlarni metaforik maʼnoda qoʻllash orqali ifodali, obrazli nutqning goʻzal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misolda buni koʻrish mumkin: *Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini koʻrsang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor. (Iqbol Mirzo)* Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar koʻchma – metaforik maʼnoda qoʻllangan.

Metonimiya narsa yoki tushunchalar oʻrtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishidir. Masalan, *Dasturxonga qarang!* jumlasidagi *dasturxon* soʻzi metonimik qoʻllangan. Yozuvchining mahorati bilan badiiy nutqdagi metonimiya tufayli yuzaga kelgan ifodalilikka eʼtibor bering: *Bu yerga termulib parishon dunyo, Toʻgʻrilab oladi qoʻlda soatin. (A. Oripov)*

Sinekdoxa narsa yoki tushunchalar oʻrtasidagi butun-boʻlak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga koʻchirishdir. Masalan, *Bu kishi tirnoqqa zor* jumlasidagi *tirnoq* soʻzi sinekdoxa yoʻli bilan «*farzand*» maʼnosida qoʻllangan.

**91-mashq.** Choʻlponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchani oʻqing va koʻchimlarni aniqlang, ularning ifodalilik jihatidan qimmatini izohlang.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana koʻngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning koʻm-koʻk sochpopuklari qizlarning mayda oʻrilgan kokillari-day selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning gʻamli yuzlari kuldi, oʻzlari horgʻin-horgʻin oqsalar-da, boʻshalgan qul singari erkinlik nashʼasini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyogʻochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar koʻrina boshladi. Birinchi koʻringan koʻklam qushi birinchi yorilgan bodroq nashʼasini beradi. Bultur ekilib, koʻp qoshlarni qoraytirgan oʻsma ildizidan yana bosh koʻtarib chiqdi... Muloyim qoʻllarda ivib, suvga aylangandan keyin goʻzal koʻzlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi koʻrar ekan bu koʻkat!



**92-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ularda metonimiya va sinekdoxa yo‘li bilan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolarni izohlang.

1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo‘lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizimatingizni qilib yotardim! (*Cho‘lpon*)  
 2. Toki g‘olib ekan muzaffar o‘lka, Sha’niga she‘r aytmoq shoirga odat. (*A. Oripov*)  
 3. O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa, Oltin boshning kalla bo‘lgani shudir. (*E. Vohidov*)  
 4. Balki, tush ko‘rganday qolursiz hayron, Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin. (*A. Oripov*)  
 5. Sevgidan yetim-u umrdan yarim, Qurigan ko‘ksida yolg‘iz belanchak. Abadiy firoqni, hayhot, do‘stlarim, Abadiy visol deb bildi kelinchak. (*A. Oripov*)  
 6. Bashirjon yoniga ag‘darildi: «Rahmatli chol to‘g‘ri aytarkan. Undan-ku, bir tirnoq – men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman». (*N. Aminov*)

**93-mashq.** Berilgan misralarda **sor, burgut, lochin** so‘zlarining qanday ma’noda qo‘llanganini tushuntiring, undagi ko‘chma ma’no nima asosda yuzaga kelganini yozma bayon qiling. O‘zingiz ham shunday ko‘chimlar qatnashgan misollarni yozib keling.



Ot minganda, qushlar kabi uchguvchi,  
 Erkin-erkin havolarni quchguvchi,  
 Ot chopganda, uchar qushni tutquvchi,  
 Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?  
 Tog‘ egasi – sor, burgutlar qayerda? (*Cho‘lpon*)

Ahmad-u Muhammad, yonimga keling,  
 Farg‘ona, Xorazm sor, lochinlari! (*E. Vohidov*)

**94-mashq.** Gaplarni o‘qing. Ko‘chimlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta‘minlashdagi ishtirokini izohlang.



1. Ammo siz hurmatlilarga ma‘lumdirki, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyoqimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. (*Abdulla Qodiriy*)  
 2. Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, mo‘ylovli

bir odam uloq boshiga keldi. Ana shu mo'ylov bakovul bo'ldi. (*Tog'ay Murod*) 3. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaf-tiga urdi. Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi. (*O'. Umarbekov*) 4. Kamarlar odatda tog'ning belida, shamoldan pana, atrof yaxshi ko'rinadigan yerda bo'ladi. (*Sh. Xolmirzayev*)

**95-mashq.** She'rni ifodali o'qing. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali nutq ta'sirchanligi ta'minlanishiga diqqat qiling.

### Atirgul

Gullar oqshom chog'ida, o'yinga tolar emishlar,  
Quyosh botgan tarafga, qarab qolar emishlar.

So'ng barchasi subhidam sal iymanib, nozlanib,  
Quyoshni kutar emish, sharq tomonga yuzlanib.

Faqatgina atirgul, sog'inch dog'lab ko'ksini,  
Quyoshi ketgan yo'ldan olmas emish ko'zini.

Ters tomondan kun chiqqach, to'lib shabnam – ko'z yoshga,  
Hayrat-u araz bilan qayrilmish quyoshga. (*Mirzo Kenjabek*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Aravani quruq olib qochmoq** Uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. *Varianti: aravani olib qochmoq; olib qochmoq; quruq aravani olib qochmoq.*

**Qo'y og'zidan cho'p olmagan** Nihoyat darajada beozor, mo'min.



1. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida gapiring.
2. Metafora va ifodalalilik haqida so'zlang.
3. Metonimiya deganda nimani tushunasiz?
4. Sinekdoxaning mohiyatini misollar asosida tushuntiring.

## 96-mashq.



O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan ko‘chimglarga misollar toping. Ko‘chimglarning turlarini ko‘rsating, ularning badiiy qimmatini izohlang.



## IFODALILIK VA KINOYA

**Topshiriq.** Berilgan ikki gapda qo‘llangan **kichkina** so‘zining ma’no-laridagi farqni izohlashga harakat qiling.

1. Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to‘xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi «Kim u?» deb so‘raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar. (*Cho‘lpon*) 2. Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi... (*Abdulla Qahhor*)



Nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o‘rin tutadi. Bunda so‘z yoki ibora o‘z ma’nosiga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Kinoya so‘zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo‘lganligi uchun ham so‘z yoki iboraning to‘g‘ri ma’nosiga zid, ya’ni inkor, emotsional-ekspressiv bo‘yoqli ma’no voqelanadi.

Bunday kinoyaviy ma’noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o‘ynaydi. Masalan, *Bugun jug‘rofiya o‘qituvchisi darsga kelmadi. Xomtok qilaman deb so‘ridan yiqilib, oyog‘ini sindiribdi. Ajoyib «xushxabar»dan keyin bir zumda sinf bo‘shadi-qoldi (Said Ahmad)* parchasida *xushxabar* so‘zi «shumxabar» tarzidagi kinoyaviy ma’noda qo‘llangan.

Kinoyada so‘z yoki iboraning tildagi ma’nosi bilan nutqda reallashgan ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi zidlik kuchli ta’kid oladi va shunga ko‘ra birdaniga diqqatni jalb etadi.

Kinoyaviy qoʻllangan soʻz yoki ibora ogʻzaki nutqda oʻziga xos, farqli intonatsiya bilan aytilsa, yozuvda koʻpincha qoʻshirnoq bilan ajratiladi.

**97-mashq.** N. Mahmudov va Y. Odilovning «Oʻzbek tili enantioseмик soʻzlarining izohli lugʻati»da tavsiflangan bir soʻzda namoyon boʻlgan zid maʼnolarga diqqat qiling. Oʻz maʼnosiga zid holda ishlatilgan nutqiy koʻchma maʼno asosida voqelangan kinoyani izohlang.

**DONO 1** Aqlli, har narsani biladigan: Donolar dunyoni demish koʻpkari, Boqing, Oʻzbekiston dadil ot soldi! (*A. Oripov*) **2** Aqlsiz, koʻp narsani bilmaydigan: Ammo oyogʻining ostidan narini koʻrmaydigan, vaholanki, hayotdan faqat nuqson izlaydigan ayrim «dono» vaysaqilar, afuski, bor. (*Oʻ. Usmonov*)

**KAMTARIN 1** Juda kamtar, xokisor: Kamtarin boʻl, hatto bir qadam Oʻtma gʻurur ostonasidan. Piyolani inson shuning-chun Oʻpar doim peshonasidan. (*E. Vohidov*) **2** Juda maqtanchoq: Agar Kesakpolvonni nazarda tutib, shunday desangiz, adashasiz. Chunki u «kamtarin» banda qudrat bobida oʻzidan oldin faqat Asadbekni koʻradi. (*Tohir Malik*)

**XUSHBOʻYLIK 1** Bir kun burun shovullab yogʻgan yomgʻir va tong tarovati bois olam bagʻoyat chiroyli hamda tiniq, havo esa musaffo va xushboʻy edi. Bu xushboʻylikni rasadxona ortidagi togʻdan yelayotgan mayin shaboda olib kelardi. (*Nabi Jaloliddin*) **2** Qoʻlansa hidlilik, badboʻylik: Bulardan bir qadoq sovun olmoq uchun yo dimogʻni roʻmol bilan bogʻlash kerak, yoki burunni yeng ichiga olib turish kerak. Dunyodagi hidlar ichida sovun bozorining hididay «xushboʻylik» jahonda boʻlmasa kerak. (*Gʻafur Gʻulom*)

**SHAROFAT 1** Xosiyat, yaxshilik: Xolisan aytganda, shularning sharofati bilan qishda loyi, yozda tuprogʻi koʻpchib yotadigan qoʻrgʻon koʻchasi bir tekis qilib asfaltlandi, gaz quvuri keldi, kechalari chiroq oʻchib qolmaydigan boʻldi. (*Erkin Aʼzam*) **2** Kasofat, yomonlik, kasr: Sharif Valomatning «sharofati» bilan ishdan ketib, tish kavagiga bekitganini ham yeb-yitirib, hattoki bir-ikkita gilamlarini ham sotib, shipshiydam uyda xotini-yu uchta bolasi bilan gʻarib boʻlib oʻtirganini bilardi. (*Murod Muhammad Doʻst*)

**HUSNIXAT 1** Chiroyli yozuv: U kishi Ufa shahrida taʼlim olgan muallimani yollab onamni oʻqitgan ekanlar. Men oyimning pinjiga suqilib

o'tirib, husnixat mashq qilardim. (*Said Ahmad*) 2 Xunuk yozuv, badxat: Professor Mannopov vrachlarga xos «husnixat» bilan bloknotiga lotin alifbosida yozib qo'ydi. (*Said Ahmad*)

**98-mashq.** Berilgan gaplarda kinoyaviy ma'noda qo'llangan so'zlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta'minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Sen!.. – Toshbolta unga ham ikki og'iz «shirin» gaplaridan aytmoqchi edi, qizining ko'zlariga ko'zi tushib, shashtidan qaytdi. (*Tohir Malik*)  
 2. Maxdum o'zining chekkan tashvishida haqli bo'lib chiqdi. Anvarning tevaragida «xolis» maslahatgo'ylar ham ko'rinishib qoldilar. (*Abdulla Qodiriy*)  
 3. «O'ttiz ikki tangadan soliq yig', emish... Bizning xalqni yer yutsin. Azizbekning tulkiligiga uchdi-da, uning kechagi zulmlarini unutdi, yetmish kunlab bir zamon jon berib, jon olib, nihoyat, xizmat haqqi uchun o'ttiz ikki tanga «mukofot», eng keyingi burda noningni ham ber!» (*Abdulla Qodiriy*)  
 4. Xullas, podsho hazratlarining farmoniga muvofiq o'n yetti yoshdan qirq yetti yoshgacha bo'lgan yigitlar mardikorlikka olinishi kerak emish... Bunday «iltifot»ga viloyat boylari, mirshablar, mingboshilar panja orasidan qarasar-da, bu aksar mehnat ahlining qonini qaynatib yubordi (*J. Abdullaxonov*)  
 5. Ovutish lozim bo'lib qolsa, bittasini emas, hammasini ikkita «shirin» so'z bilan «ovutib» tashlayman. (*A. Muqimov*)

**99-mashq.** Matnni o'qing. O'z ma'nosiga zid holda qo'llangan iboralar ma'nolarini izohlab, kinoya haqidagi fikrlaringizni yozma bayon qiling.



1. Ichkari tomondan uzun malla to'n, oq salla, sag'ri kavush kiygan, qo'llarida ming donalik tasbeh, ko'zlariga surma tortgan, ...mosh yegan xo'rozday qizil yuzlaridan «nur yog'ilib» turgan (o'z da'volaricha) xast eshon tamannolik bilan yerni «minnatdor bo'lsang, bosaman», deb chiqib keldilar. (*G'afur G'ulom*)  
 2. Hasancha bizning sinfdoshimiz edi. Kattalar uning otasini qancha «yaxshi ko'rsa», biz ham Hasanchaga shunday edik... Birga o'qib, yonma-yon birga yurgan odamingiz to'satdan oldinga o'tib nom qozonsa, kimga yoqibdi, ayting! (*Erkin A'zam*)

**100-mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolariga diqqat qiling. Qaysi gaplarda so'zlar kinoya bilan qo'llanganligini tushuntiring.

1. Ombor hovlisi birpasda qiy-chuv bo'lib ketdi. Qayoqdandir Mirvosiq paydo bo'lib qoldi. — **Yashang**, ota! — dedi u. — Anchadan beri qo'lga tushirolmay yuruvdik. (*O'. Umarbekov*) 2. **Yashang-e!** Kalkulyator olib hisoblab ko'rsangiz ham bo'lardi, hisobchi xonim! Nima gap so'rasa, bahonangiz tap-tayyor-a! (*Erkin A'zam*) 3. Kampir juda **dono** xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi deb, qarddon uyidan jilmasdi. (*Said Ahmad*) 4. Voy **dono-ye!** O'zing-ku bir institutni o'n yilda zo'rg'a bitirding, endi odam qatoriga kirib, boshqalarga aql o'rgatadigan bo'lib qoldingmi?! (*Ahmad A'zam*) 5. Shakuriy muallim bolaning **burroligi**, zakovatidan behad quvondi. (*Nusrat Rahmat*) 6. Mulla Ostonaquldagi zehn **burroligi** yetti yilda ham «Haftiyak»dan nari o'tishga yo'l qo'ymadi. (*G'afur G'ulom*)

**101-mashq.** Sifat turkumiga mansub bir necha so'zni quyida berilganidek qarama-qarshi ma'nolarda qo'llab gaplar tuzing.

*Namuna:* Sen yaxshisan, Men yomondirman, Sen borsanki, Men omondirman. (*E. Vohidov*) — Ja yaxshisan o'zing ham, Yomonni yomonlama. Menga qara, ey odam, Zamonni yomonlama. (*Iqbol Mirzo*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.


**Qo'li kalta** Imkoniyati cheklangan. *Varianti:* **qo'li qisqa**. *Zidi:* **qo'li uzun**.

**Qo'lini sovuq suvga urmaslik** Qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaslik. *Varianti:* **qo'lini sovuq suvga urdirmaslik**.



1. Kinoyaning yuzaga kelishi haqida gapiring.
2. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida so'zlang.
3. Iborani kinoyaviy qo'llashga misollar keltiring.

4. Kinoyaviy qo‘llangan so‘z yozma nutqda qanday ajratilishi mumkin?
5. Og‘zaki nutqda kinoyaviy qo‘llangan so‘zning talaffuzini tushuntiring.

**102-mashq.**  Biron badiiy asardan kinoyaviy qo‘llangan so‘z va iboralarga misollar toping. Ularni gap ichida daftaringizga ko‘chirib yozing.



## IFODALILIK VA O‘XSHATISHLAR

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi **oltindek (-day)** so‘zining o‘xshatish unsuri sifatida ifodalilikni kuchaytirishdagi ishtirokini izohlang.

1. O‘shanda bo‘ychan o‘spirin otasi bilan birga ekib, parvarishlagan bug‘doy **oltindek** *sarg‘ayib* pishayotgan edi. (*G‘ulom Karimiy*) 2. Yaproq quyosh nurida **oltindek** *tovlanib*, yengil tebranganicha ko‘kka dadil bo‘y cho‘zib turardi. (*O‘. Umarbekov*) 3. Bular so‘zlab bergan har bir hikoya, O‘zi shundoqqina **oltinday** kitob. (*Zulfiya*)

**2-topshiriq.** Berilgan gaplardagi o‘xshatishlarni izohlang, ularni yaratishda ijodkor mahorati haqida gapiring.

1. So‘fining tani shu topda Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday qizib yonardi. (*Cho‘lpon*) 2. Xayollar qo‘ymaydi o‘z holimizga – Lo‘livachchalardek yopishqoq, kir-chir. (*Iqbol Mirzo*)



O‘xshatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta‘minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi.

O‘xshatishlar to‘rt unsuridan tarkib topadi, ya‘ni: 1) o‘xshatiladigan narsa (yoki subyekt); 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Masalan, *Yigit musichadek beozor ekan* o‘xshatishida *yigit* o‘xshatiladigan narsa, *musicha* o‘xshatish etaloni, *beozor* o‘xshatish asosi, *-dek* qo‘shimchasi esa o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidir.

O'xshatishlarning ikki turi farqlanadi: 1) erkin o'xshatishlar; 2) turg'un (doimiy) o'xshatishlar.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan, *Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho'lpon)* gapidagi o'xshatish – yozuvchining o'z ijodi mahsuli. Mana bu o'xshatishlar ham erkin badiiy o'xshatishlardir: *Maydalab o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay ko'ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (Ismoil To'lak)*.

Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor frazeologik birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Masalan, *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum (Cho'lpon)*; *Bolalari qo'rqqanlaridan baqadek qotib qolishdi (M. Nizanov)* gaplaridagi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlardir.

Turg'un o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

**103-mashq.** N. Mahmudov va D. Xudoyberganovanning «O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati»dan olingan **o'q** so'zi ishtirokidagi turg'un o'xshatishlarning ma'nolariga diqqat qiling. O'z mulohazalaringizni bayon qiling.

### O'qday (kabi, singari)

1. *To'g'ri, adil.* Asosan, egri bo'lmagan ko'cha, yo'l va boshqa narsalar haqida: Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o'rniga bog'-rog'ga ko'milgan, ko'chalari **o'qday** to'g'ri, oppoq, ko'rkam qishloq barpo qildi. (*O. Yoqubov, «Diyonat»*)



2. *To'g'ri*. Rost, adolatli so'z, shuningdek, g'irromlikni bilmaydigan odam haqida: **O'qdek** to'g'ri bo'lmoqlik, kibr-u havoga yo'l ochmasligi lozim... – negadir o'ylanib qoldi sohibqiron. (*M. Ali, «Ulug' saltanat»*)

3. *Botmoq, tegmoq, teshib o'tmoq, sanchilmoq, qadalmoq*. Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so'z, o'y-xayol haqida: Uning so'zlari garchi **o'q kabi** botayotgan bo'lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (*T. Malik, «Shaytanat»*) U ketdi, ketdi-yu endi shum o'ylar *Sanchilave-radi* qalbga **misli o'q**. (*A. O'ktam, «U ketdi...»*)

4. *Uchmoq*. Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq.

Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga **o'q kabi** uchib borarman. (*R. Parfi, «Ona Turkiston»*) Bizdan uzr so'rab, «pat-pat»iga o'tirdi-yu **o'qday** uchirib ketdi. (*M. M. Do'st, «Lolazor»*)

5. *Otilmoq*. Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida: Qamchi yeb o'rganmagan uchqur bedov oldinga **o'qday** otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. (*P. Qodirov «Yulduzli tunlar»*)

6. *Otilib chiqmoq*. Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so'z, xitob va shu kabilar haqida: Ko'kragidan shu so'zlar **o'qday** otilib chiqdi: «Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o'rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi». (*A. Qahhor, «Zilzila»*)

7. *Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq*. Qattiq, dag'al, quloqqa ozor beradigan darajada eshitiladigan ovoz, gap-so'z haqida: Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissyorning tajang qichqirig'i Zuhraning quloqlariga **o'qday** kirdi. (*O'. Hoshimov, «Nur borki, soya bor»*)

8. *Qadamoq, tikmoq*. Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko'z haqida: Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o'ziga **o'qdek** qadalib turgan bir juft ko'zni ko'rib qoldi. (*E. A'zam, «Shoirning to'yi»*)

**104-mashq.** Hassos shoir Erkin Vohidov asarlaridan olingan she'riy parchalarni o'qing, ulardagi erkin va turg'un o'xshatishlarini aniqlab, izohlang.



1. Bu vatanda bir Vatan Qurmoqni istaydir ko'ngil, O'zni ozod qush kabi Ko'rmoqni istaydir ko'ngil... Sarhad uzra soqchidek Turmoqni istaydir ko'ngil. 2. Mevalarki, cho'g'day qip-qizil, Husni yoqut, shirinlikda bol. 3. Yarq etgan toleday quyosh ko'rindi, O'lkamda bahordir, o'lkamda bahor. 4. Uni kiyib Matmusa, Yigit bo'ldi chaqmoqday. 5. Ko'rakdek

og‘izni Yumarmiz har dam, Ochmasam chanoqdek Dilni endi ham, Men nechuk shoirman, Men nechuk odam? 6. Va yo aytmangki, mo‘rt toldek Shamollarda sinib ketdi. 7. Dunyoda o‘z yurtimizdek jononasi yo‘q, London, Parij – shaharmi? Bir choyxonasi yo‘q.

**105-mashq.** «Hasharda» yoki «Navro‘z» mavzusida matn tuzing, unda turg‘un va erkin o‘xshatishlardan foydalaning.



**106-mashq.** Gaplarni o‘qing. Erkin o‘xshatishlarni aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring, ma’nosini izohlang.

1. Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – kasal odamning kulishiday og‘ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg‘on xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi. (*Cho‘lpon*) 2. Hamma uyquda. Yangi yoqqan qor oyoq ostlarida g‘irchillama etik singari ovoz berib yotardi. To‘shakcha ustidagi dumaloq bolish – tepasi qor, ikki yoni quruq – chala bo‘yalgan tuxum singari chuchmal va g‘alati ko‘rinardi. (*Cho‘lpon*) 3. Kun issig‘idan anor yuzlari bo‘rtinib ketgan. Baxt yo‘llariday oq va keng manglayda marvarid donalariday mayda ter. (*G‘afur G‘ulom*) 4. Ilon chaqqan kishidek dovdur va besaranjom ko‘zlari bilan tevarakka bejo-bejo nazar tashlar edi. (*Abdulla Qodiriy*) 5. Ko‘chada yuk ortilgan tuyalar ko‘p. Qing‘ir-qiyshiq ko‘cha ular uchun go‘yo sichqonning qopqoniday bo‘lganidan tiqilib qolishgan. (*Oybek*)

**107-mashq.** Gaplarni o‘qing. O‘xshatish etalonlarini aniqlang, ularning nutq ifodaliligidagi o‘rnini tushuntiring.

1. Qalay, maza qildingmi? – dedi chol Amirdan uch-to‘rt odim narida to‘xtab, so‘ng kalladek keladigan toshga omonatgina o‘tirdi. (*Ulug‘bek Hamdam*) 2. Hozir ini buzilgan chumoliday to‘zib, har kim o‘z boshini asrash bilan ovora. (*Murod Mansur*) 3. G‘anijonning xotini tug‘may yurib-yurib, birdaniga qo‘chqorday o‘g‘il tug‘ib berdi. (*Abdulla Qahhor*) 4. Ukajonim! Men senga shunday bir mo‘jiza suv opkeldimki! Ichding – ertasiyoq toychoqday dikirlab ketasan! (*Erkin A‘zam*) 5. To‘ygan qo‘ziday bo‘lib o‘tirishini qarang! (*P. Qodirov*) 6. Dengiz notinch, katta-katta

to‘lqinlar mast tuyaday ko‘pirib, kemani u yoqdan bu yoqqa uloqtirar edi. (P. Qodirov)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Qo‘ltig‘iga suv purkamoq** Biror ishni qilishga o‘chakishtirmoq, gijgijlamoq.

**Hasratidan chang chiqmoq** Ortiq darajada norozilik bildirib gapirmoq.



1. O‘xshatishlarning tarkibiy unsurlarini sanang, ularni misollar bilan izohlang.
2. Erkin o‘xshatishlarni ta’riflang.
3. Turg‘un o‘xshatishlar haqida nimalarni bilasiz?
4. O‘xshatishlarning nutq ifodaliligini ta’minlashdagi ishtiroki haqida so‘zlang.
5. Turg‘un o‘xshatishlar va frazeologik iboralarni qiyoslang, ularning umumiy va farqli jihatlarini tushuntiring.

**108-mashq.** O‘qiyotgan badiiy asaringizdan beshta erkin va beshta turg‘un o‘xshatishlarga misollar topib, ularni tegishli gaplari bilan ko‘chiring. Ular ishtirokida yuzaga kelgan ifodalilik haqida mulohaza qiling.



## MUSTAHKAMLASH

**Savollarga javob bering.**

1. Til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida nutqning qaysi kommunikativ sifati yuzaga chiqadi?
2. Nutqning ifodalilik sifati tilga xos qaysi vazifani butun ko‘lami bilan namoyon etadi?
3. Nutqning ifodaliligini ta’minlovchi fonetik vositalar — bir xil tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar ko‘pincha nutqning qaysi shaklida kuzatiladi?
4. Ko‘chma ma’no va emotsional-ekspressiv bo‘yoq haqida nimalarni bilasiz?

5. Ko‘chimlarning qanday turlarini bilasiz?
6. Kinoya deganda nimani tushunasiz?
7. Kinoyaviy qo‘llangan so‘z yoki iboraning og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
8. O‘xshatishning qanday turlari bor va u qaysi tarkibiy unsurlardan tashkil topadi?

**1-topshiriq.** Berilgan so‘z va ibora juftliklari ishtirokida gaplar tuzing. Shundan kelib chiqib so‘z va iboraning ifodalilik imkoniyatlarini tavsiflang.

1) xafa – ichiga chiroq yoqsa yorimaydigan; 2) xursand – og‘zi qulog‘ida; 3) sho‘x – yerga ursang ko‘kka sapchiydigan; 4) lallaygan – og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadigan; 5) yuvosh – qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan; 6) hovliqmoq – o‘pkasini qo‘ltiqarmoq.

**2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Ko‘chimlarning turini aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta‘minlashdagi o‘ziga xosligini tavsiflang.

Kech kirib, qosh qoraya boshladi. Daraxt shoxlarini shirtillatib uzguday yoqqan yomg‘irning tinganiga ancha bo‘ldi-yu, osmon pardasi ochilmadi. Qoramtir bulutlar quyuqlashib, tobora pastlamoqda, azim daryodek Sharqqa tomon oqib bormoqda. Havodagi gard-g‘uborni yuvib, tanga rohat baxsh etgan asad yomg‘irining yoqimli shabadasi uzoqqa bormadi. Havo dim bo‘la boshladi. Boyadan beri ko‘rpachaga ko‘kragini berib, yostiqni quchoqlab yotgan Mahkam aka dimiqib ketdi. (*Rahmat Fayziy*)

**3-topshiriq.** Erkin Vohidovning «Boshindadir» she‘ridan olingan parchani o‘qing. Matn mazmuniga singdirib yuborilgan zaharxandani tushunishga harakat qiling. Yaqqol kinoyaviy qo‘llangan so‘zni topib, uning qarama-qarshi ma‘noda namoyon bo‘lishiga diqqat qiling.

Nay misol shim kiygan ul  
Sandiqdayin tufli bilan,  
Hurpayib turgan savatdek  
Soch aning boshindadir.

O‘zgalardan kulgay erdi  
Ko‘cha-ko‘yda bir zamon,  
Aqlg‘a yuz hayrat, emdi –  
Bul uning qoshindadir.

O'g'lidan aylardi umid  
Keltirar rahmat debon,  
Barcha «rahmat» elning otgan  
Ta'nayi toshindadir.

Yo'q ajab, yoshlikda o'g'lin  
Ota ardoqlab, suyib,  
Erkalab boshiga qo'ydi,  
Ul hamon boshindadir.



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ko'ziga issiq ko'rinmoq** 1. Tanishdek tuyulmoq. 2. O'ziga tortmoq, yoqimli bo'lmoq. *Varianti: ko'ziga o'tday ko'rinmoq. Zidi: ko'ziga sovuq ko'rinmoq.*

**Yuzi shuvut bo'lmoq** Uyatli holatda qolmoq. *Varianti: beti shuvut bo'lmoq; yuzi shamgin bo'lmoq. Zidi: yuzi yorug' bo'lmoq.*

**4-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Turg'un o'xshatishlarning nutq ifodaliligiga ta'sirini baholang.



1. Bo'ldi-da endi, voy-bo'! Bitta gapni achchiq ichakday cho'zaveradimi! (*Sh. Boshbekov*) 2. Olomon ichidan bir kosib yigitcha bo'ynini xo'rozday cho'zib, baralla qichqirdi. (*Oybek*) 3. Avvallari bunday holga tushgan odamni ko'rganda, xuddi jismiga paykon sanchilgan sherdek o'kirib dunyolarni buzadigan Yusuf hozir miq etmasdi. (*Ulug'bek Hamdam*) 4. Butun shahar arining uyasidek qaynaydi. (*Sh. Boshbekov*) 5. Ranginiqqan chit ko'ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, zinadan ayvonga ko'tarildi. (*O'. Hoshimov*)



## NUTQ MADANIYATI VA NUTQ TEXNIKASI

**Topshiriq.** Matnni o'qing. Ovozning sifati haqidagi mulohazalaringizni bayon qiling.

«Sanjariya» masjidida bir kishi rag'bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi,

odil va xushxulqlik. Xohlamas erdiki, aning ko'nglini mukaddar aylasa, aydi: «Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga o'n tillo berurmen, tokim bo'lak mahallaga ketarsen».

Bu so'zg'a ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin so'ngra amirning huzuriga qaytib keldi va aydi: «Ey amir, menga zulm-u sitam ayladingki, o'n tillo bilan meni bu mahalladin jo'natding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bo'lak mahallaga ketsam qabul etayurmen».

Amir kuldi va aydi: «Aslo olmag'aysen, zeroki ellik tillog'a ham rozi bo'lurlar». (*Sa'diy Sheroziy, «Guliston»*)



Talab darajasida shakllangan nutq texnikasi kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim qismi hisoblanadi. Nutq texnikasi deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tushuniladi.

Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish – aniq diksiya, nutq oqimining mazmun ifodasiga uyg'un tarzda tez yoki sekinligi kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasini yetarli darajada egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur.

Fonatsiya jarayonida, ya'ni nutqni hosil qilish paytida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Albatta, ovozning sifati ham nutq texnikasidagi muhim jihatlardan biridir. Masalan, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yoqimli bo'lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan «libos kiygan» fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad – muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu oddiy haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Ayniqsa, aso-

siy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun sifatli ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

**109-mashq.** Parchani o'qing. Qahramonning ayrim tovushlar talaffuzidagi nuqsonlariga e'tibor bering, tovushni aniq talaffuz qilish zaruriyati haqida fikrlashing.

Qachondir uning ismi bo'lsa bo'lgandir. Biroq mahallada hech kim uning otini bilmaydi. Hamma Shayx deb chaqiradi...

Jamiki to'y, jamiki ma'raka Shayxsiz o'tmaydi. Uning o'z vazifasi bor: samovar qo'yadi. Xotinoshida mahalla otini, nikoh-u bazmlarda to'yboshi erkaklar Shayxning xizmatiga muhtoj.

– Shayx, to'rt choynak choy!..

– Hozir...

Shayx g'alati gapiradi, «z»ni aytolmaydi, «dz» deydi, «s» deyoilmaydi, allaqanday «ts» qilib aytadi.

– Shayx, tezroq! Nozik mehmonlar kelib qoldi.

Shayx shoshilmaydi. Ishini bilib qiladi.

– Tsekin. Nodzik bo'tsa, o'dziga, – deydi iljayib. (*O'. Hoshimov*)

**110-mashq.** Matnni o'qing. Unda ifodalangan fikrlar atrofida mulo-hazalaringizni o'rtoqlashing.



Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmagan. Keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, «r» tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda, bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning yuksak cho'qqisini zabt etgan. (*S. Inomxo'jayev*)

**111-mashq.** Tez aytishlarni yod oling, ularni takror-takror ayting. Bunda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, diksiyasini buzmaslikka harakat qiling.

1. Gulnoz guzardagi gulzordan gul uzdi.
2. Oq choynakka ko‘k qopqoq, ko‘k choynakka oq qopqoq.
3. Tez aytgin-u tez gapir, tez aytganga bir patir.
4. Chaman-chaman paxtazor ichida chevar qizning qo‘llari chanoqdan chanoqqa chaqqonlik bilan ko‘chadi.
5. Turg‘un to‘rtta to‘rg‘ayni to‘rga tushirdi. (*«Badiiy o‘qish asoslari» kitobi*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**«Ha-hu» deguncha** Juda qisqa muddatda, tezda. *Ma‘nodoshi: «hash-pash» deguncha; ko‘z ochib yumguncha.*

**Hushi boshidan uchmoq** Esankiramoq. *Ma‘nodoshi: hushini yo‘qotmoq.*



1. Diksiya deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqni hosil qilishda nafas olish va nafas chiqarishning o‘rni haqida gapiring.
3. Tez va keraksiz shoshilib gapirganda, qanday nuqsonlar yuzaga keladi?
4. Ovozning sifati haqida so‘zlang.
5. O‘zingiz ovozingizning sifati haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Ovozingizning sifati o‘zingizga ma‘qulmi?

**112-mashq.** O‘zingiz biladigan tez aytishlardan bir qanchasini daftaringizga yozing. Ularda qaysi tovushlar tez talaffuz qilishga xalqit berayotganiga diqqat qiling.







## NUTQ TEXNIKASIDA URG‘U VA TO‘XTAM (PAUZA)

**1-topshiriq.** Berilgan juftliklardagi so‘zlarning urg‘u va ma’no jihatdan farqlarini izohlang.

Olma (ot) – olma (fe’l);

Akademik (ot) – akademi**k** -(sifat).

**2-topshiriq.** Berilgan gapning intonatsiyasini o‘zgartirganda, gapning boshqa mazmuniy turi yuzaga kelishiga diqqat qiling.

Ona bolalariga ertag-u naqlar aytib berdi. (*Y. Muqimov*) (darak gap)

Ona bolalariga ertag-u naqlar aytib berdi? (so‘roq gap)

Ona bolalariga ertag-u naqlar aytib berdi! (his-hayajon gap)



Nutqning madaniyligini ta’minlashda undagi ohang ham alohida o‘rin tutadi. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida urg‘u, to‘xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya kabi unsurlar ishtirok etadi. Og‘zaki madaniy nutq tuzayotgan kishi ana shu unsurlarning aniq va to‘g‘ri namoyon qilishi zarur.

Siz oldingi sinflardan yaxshi bilasizki, urg‘u ikki xil bo‘ladi, ya’ni: so‘z urg‘usi va gap urg‘usi. Gap tarkibidagi mantiqan muhim bo‘lak gap urg‘usi bilan ta’kidlanadi.

Nutq oqimidagi noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz to‘xtam (pauza) hatto fikrning yanglish anglanishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, *Hovliga ikki bolali ayol kirib keldi* gapi agar *Hovliga ikki / bolali ayol kirib keldi* tarzidagi to‘xtam bilan aytilsa, «Hovliga bolasi bor ikkita ayol kirib keldi» mazmuni anglashiladi, *Hovliga ikki bolali / ayol kirib keldi* tarzidagi to‘xtam bilan aytilganda esa «Hovliga ikkita bolasi bor bitta ayol kirib keldi» mazmuni ifodalanadi.

Intonatsiya gapning mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

**113-mashq.** So‘z va gap urg‘usi hamda to‘xtam qoidalariga rioya qilgan holda she’rni o‘qing. Unda ifodalangan fikrlarni nasriy bayon qilishga harakat qiling va ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

### «Maqollar kitobi»

Eltib sizni g‘aroyib  
Yurtga ukajonlarim,  
Ko‘rsataman u joyning  
Qiziq qush, hayvonlarin.

Inga sig‘mas dumiga  
G‘alvir bog‘lagan sichqon;  
Bolasin botirim deb,  
Alqagan qo‘rqoq quyon;

Bunaqasin ko‘rmaysiz  
Hech bitta zooparkda.  
Bu yerda: hatto shohning  
Ishqi tushgan qurbaqa;

Do‘stlardan ayrilganni  
Yeydigan ayiqlar bor;  
Changi chiqsa ham, dong‘i  
Chiqmaydigan yolg‘iz ot...

Yaxshi so‘zga inidan  
Chiqadigan ilonlar;  
Sira bosgan izidan  
Qaytmaydigan arslonlar;

Yana ko‘p-u, lekin men  
Tugataman so‘zimni.  
Endi ko‘rib olasiz  
Qolganini o‘zingiz.

*(Dilshod Rajab)*

**114-mashq.** Matnni gaplarning turlariga muvofiq intonatsiya bilan o‘qing. Matn mazmunidan kelib chiqadigan ibratli xulosa yuzasidan mulohazalaringizni o‘rtoqlashing.

### Biri ikki bo‘lmagan

Qadimda ikki aka-uka bo‘lgan ekan. Ikkalasi harchand uringani bilan ishi yurishmas, omadi chopmas ekan. Kunlardan birida aka-ukalar donishmand huzuriga borib, maslahat so‘rabdi:

– Shuncha harakat qilsak ham, birimiz ikki bo‘lmaydi. Nima qilaylik? Donishmand aytibdi:

– Ikkovlaring inoqmisan? Faqat to‘g‘risini gapir!

Aka-ukalar noahil ekanini tan olibdi.

– Ey nodon! – debdi donishmand. – Ikkisi bir bo‘lmaganning qandoq qilib biri ikki bo‘lsin?! (O‘. *Hoshimov*)

**115-mashq.** Matnni undagi gaplarning mazmuniga mos ohang bilan o‘qing, so‘z va gap urg‘ularini to‘g‘ri belgilang. Rivoyatdan kelib chiqadigan ibratli xulosa haqida fikrlaringizni bayon qiling.



## Xazina

Bir bog‘bondan ikki yalqov o‘g‘il qolibdi. «Kambag‘allik qursin, o‘g‘illarimga arzigulik meros qoldirolmay dunyodan o‘tyapman» deb, tashvish tortadigan bo‘libdi ota umr adog‘ida.

Bog‘bon bisotidagi kichkinagina bog‘ini ikki o‘g‘liga bo‘lib beribdi.

– Esim qursin, – deпти ota jon berish oldidan, – sal bo‘lmasa, unutayozgan ekanman. Qaysidir bir tokning tagiga xazina ko‘mgandim...

Ota qazo qilgach, ikki noshud o‘g‘il tok tagiga ko‘milgan xazinani axtarishga tushishdi. Tagi ag‘darilmagan birorta tok qolmadi. O‘g‘illardan biri toklarning ildizigacha qo‘porib tashladi. Lekin xazinani topolmadi.

Ikkinchi o‘g‘ilning aqli bir qadar butunroq ekan, toklarning ildiziga zarar yetkazmay, tokzorni birma-bir ag‘darib chiqdi. Biroq u ham ota ko‘mgan xazinani topolmadi. Ammo yozga chiqib, tokzor shunday hosil berdiki, bargidan uzumi ko‘p, g‘uj-g‘uj... yegan va sotgan bilan ado qilib bo‘lmadi.

O‘g‘illardan biri barmoq tishlasa, ikkinchisi bol yedi. Ana shundan so‘nggina ular dono ota «ko‘mib qoldirgan» xazina ma‘nosini tushunishdi. «Xazinaning kaliti o‘zimizda ekan» degan xulosaga kelishdi ikki o‘g‘lon. (Y. Muqimov)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Labi labiga tegmaydi** Juda tez va ko‘p gapirmoq.

**Labini tishlamoq** Kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq. *O‘xshashi:* **tilini tishlamoq.**



1. Ohangning shakllanishida nimalar ishtirok etadi?
2. So‘z urg‘usi haqida gapiring.
3. Gap urg‘usi va uning gapdagi o‘rnini tushuntiring.
4. Nutq oqimidagi to‘xtam (pauza) haqida so‘zlang.
5. Gapning mazmuniy-hissiy turlariga xos ohang haqida gapiring.

**116-mashq.** Urg‘u va uning turlari hamda ularning nutqdagi ahamiyati haqida yozma matn tuzing.





## ISH QOG‘OZLARI USTIDA ISHLASH. BAYONNOMA

**1-topshiriq.** Matnni o‘qing. Unda ifodalangan fikrlar atrofida o‘z mulohazalaringizni bildiring.

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi. Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o‘z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Ular o‘zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lmasa, ish vaqtlarining hammasini – 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham, ijobiy natijaga erishish qiyin. («*Ish yuritish*» kitobi)

**2-topshiriq.** Berilgan parchani o‘qing, hujjat matniga qo‘yiladigan asosiy talablar haqida fikrlashing va ularni esda saqlang.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo‘la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta‘min etiladi.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe‘l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari tanlanadi, ya‘ni «harakat nomi» deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi: «...tayyorgarlikning *borishi* haqida», «...qarorning *bajarilishi* to‘g‘risida», «...*yordam berish* maqsadida», «...*qabul qilishingizni* so‘rayman» kabi.

Fe'l shakllarining qo'llanishida ham birmuncha o'ziga xosliklar mavjud. Xususan, majhul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o'tgan (yoki hozirgi-kelasi) zamondagi fe'l shakllarining qo'llanish darajasi ancha yuqori: *topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo'shatilsin, tayinlansin, eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi* kabi. («Ish yuritish» kitobi)

**3-topshiriq.** «Ish yuritish» kitobidan olingan parchani o'qing. Hujjatlar tilining sintaktik qurilishi haqidagi fikrlarni yodda tuting.



Hujjatlardagi gap qurilishi, odatda, tasniflash, mayda qismlarga ajratishga, qayd etuvchi va qaror qiluvchi qismlarning birligiga, umuman, sabab-oqibat, shart-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham hujjatlarda nisbatan uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq bo'lakli gaplar ko'p qo'llanadi. Lekin gap tarkibida odatdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi, badiiy va boshqa asarlarda mumkin bo'lgan g'ayriodatiy so'z tartibi (inversiya)ga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda ularda so'roq va undov gaplar deyarli qo'llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi – xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada esa ham axborot («Eshitildi»), ham buyurish («Qaror qilindi») o'z ifodasini topadi.

**4-topshiriq.** Bayonnomaning «Ish yuritish» kitobidan olingan tavsifi bilan tanishing, bu hujjat turi haqida fikrlashing.

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqelikning o'rni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferensiyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlarida, albatta, bayonnoma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Bayonnomada o‘z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas’uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Kuni qolmoq** 1. Biror ishni bajarishda qaram bo‘lmoq. 2. Foydalanishga majbur bo‘lmoq.

**Ko‘zi moshdek ochilmoq** Jazolanib, hushyor tortmoq.

**5-topshiriq.** O‘zingizga yaxshi tanish bo‘lgan ish qog‘ozlari tilida ko‘p uchraydigan so‘z shakllari, birikma va ifodalarni daftaringizga yozing, ularni izohlashga harakat qiling.



## BAYONNOMADAN KO‘CHIRMA

**1-topshiriq.** Matnni o‘qing, bayonnomaning tarkibiy tuzilishini eslab qoling.

Bayonnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Muassasa nomi.
2. Sarlavha (yig‘ilishning nomi).
3. Shartli raqami.
4. Hujjatning nomi (Bayonnoma).
5. Yig‘ilish sanasi.
6. Yig‘ilish joyi.
7. Tasdiqlash belgisi (agar bayonnoma tasdiqlanishi zarur bo‘lsa).
8. Yig‘ilish raisi va kotibining familiyasi.
9. Matn:
  - a) qatnashuvchilar ro‘yxati yoki soni;
  - b) kun tartibi;
  - d) «eshitildi»;
  - e) «so‘zga chiqdilar»;

f) «qaror qilindi».

10. Ilovalar (agar ular mavjud bo'lsa).

11. Imzolar.

Majlis bayonnomasi kirish va asosiy qismdan iborat bo'lib, kirish qismi kun tartibi bilan tugaydi. Kun tartibidan so'ng ikki nuqta qo'yilib, ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi. Har qaysi masala alohida satrdan yoziladi. Ularning o'zaro tartibi masalaning dolzarbligi va muhimligiga qarab belgilanadi. Majlis bayonnomasida KUN TARTIBINI bosh kelishikda ifodalash va katta harflar bilan yozish kerak.

Matning asosiy qismi kun tartibi masalalariga muvofiq joylashadi. Har bir bo'lim uch qismdan iborat bo'ladi: ESHITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI.

«ESHITILDI» qismida tegishli masala bo'yicha ma'ruzachining gaplari beriladi.

«SO'ZGA CHIQDILAR» birikmasi ham aynan shu shaklda yoziladi. Zaruriyat bo'lganda, qavs ichida har bir so'zlovchining ish joyi va lavozimi ko'rsatiladi. Majlisda berilgan savollar ham bayonnomada yoziladi.

Matnning uchinchi qismida muhokama etilgan masala bo'yicha qaror qabul qilinadi. «QAROR QILINDI» birikmasi ham bosh harflar bilan yoziladi.

Kun tartibidagi har bir masala yuzasidan alohida-alohida «ESHITILDI», «SO'ZGA CHIQDILAR», «QAROR QILINDI» sarlavhalari qo'yiladi va so'zlovchilar nutqining qisqacha mazmuni, qabul qilingan qaror rasmiylashtiriladi. (*«Ish yuritish» kitobi*)

**2-topshiriq.** Bayonnomadan ko'chirmaning tarkibiy tuzilishi bilan tani-shing va uni eslab qoling.

Zaruriyat tufayli majlisda qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Bayonnomadan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Bayonnomadan ko'chirma quyidagi asosiy qismlardan iborat.

1. Muassasa nomi.
2. Sarlavha (yig'ilishning nomi).
3. Sana (majlis sanasi).
4. Shartli raqami.
5. Hujjat nomi (bayonnomadan ko'chirma).
6. Bayonnoma tuzilgan joy.
7. Matn:

- a) KUN TARTIBI;
- b) «ESHITILDI»;
- d) «QAROR QILINDI».

8. Imzolar.

9. Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi (muhr bilan).

Ba'zan bayonnomadan ko'chirmalarda yig'ilishda qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek, ko'rilgan masala bo'yicha muhokamada ishtirok etganlar familiyasi ham ko'rsatib o'tiladi.

Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi. (*«Ish yuritish» kitobi*)



Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq** Imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq. *Varianti: ko'rpaga qarab oyoq uzatmoq.*

**Yuragi po'killamoq** Biror yoqimsiz ishning yuz berishidan hadiksiramoq.

**3-topshiriq.** Maktabingizdagi «Yoshlar ittifoqi» tashkilotining biror masalaga bag'ishlangan yig'ilishi bayonnomasini tuzing. Uni birgalikda tahlil qiling.

**4-topshiriq.** O'z sinfingizda o'tkazilgan ota-onalar yig'ilishi bayonnomasini ko'chiring. Bayonnoma matnida fe'lning qaysi nisbat shaklidan ko'p foydalanilganini aniqlang. Shundan kelib chiqib, ish qog'ozlari uslubi haqida fikrlashing.



## TAKRORLASH

### Savol va topshiriqlar

1. Madaniy nutq deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq madaniyati terminini izohlang.
3. Nutqning aniqligi qanday mezonlar bilan belgilanadi?



4. Nutqning qaysi sifati nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasi hisoblanadi?
5. Madaniy nutqning qaysi sifati bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari yuzaga kelmaydi?
6. Til birliklari va adabiy me'yor munosabatini tushuntiring.
7. Qaysi nutq shaklida muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish mumkin?
8. Nutq mantiqiyligining asosi nima?
9. Matn bog'liligining uch jihatini izohlang.
10. Nutqning qaysi sifati nutqning rang-barangligi tarzida ham talqin etiladi?
11. Nutq texnikasi haqida nimalarni bilasiz?
12. Urg'u va to'xtamning nutq madaniyini ta'minlashdagi ishtiroki haqida nima deya olasiz?

**117-mashq.** Berilgan gaplarda qo'llangan sheva unsurlarining badiiy vazifasini tushuntiring.

1. Sen meni boshimdi aylantirma, – deya muallimning gapini cho'rt kesdi u. 2. Qishloqdi dunyo tanidi nima, tanimadi nima? 3. Birov kelib qurbaqa bosgan qudug'imga toza suv quyib beraymidi? 4. Yo ulimdi musobaqaga yuborganim uchun menga bir so'm beraymidi? 5. Shohmotning ketidan kim boyib ketdi o'zi, a, kim? 6. Bizdi andi deb o'ylayotgan bo'lsang, adashasan! (*Zulfiya Qurolboy qizi*)

**118-mashq.** Matnni o'qing. Uning mantiqiyliги va kompozitsiyasiga diqqat qiling. Kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasidagi mazmuniy muvofiqlikni aniqlang.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona-bola uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi. Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o’sha tomondan ko’z uzmay.

– Laylak, o’g’lim, laylak! – ona o’g’lining boshini silab qo’ydi.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko’rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to’xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag’in chinor uchiga ko’z tikib.

– Laylak, o’g’lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi: – Bir oyog’i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko’rmagan edi. Qush negadir bo’yni cho’zib tumshug’ini osmonga qaratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshitilardi.

Bola tag’in to’xtab qoldi.

– Nima o’zi u, oyi?

Uning ko’zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deb ohista egilib, o’g’lining yuzidan o’pdi. – Senga salom beryapti-da.

... Oradan o’ttiz besh yil o’tdi. Bola yigit bo’ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog’idan mador, ko’zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o’sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g’oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og’ir-og’ir ko’tarib bosganча harsillab kelardi. Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o’sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko’rinar, uyada esa oyog’i, tumshug’i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo’ydi-yu qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko’zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko’ziga g’alati ko’rindi.

– Anavi nima, o’g’lim? – dedi to’xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to’rt qadam yurib yana to’xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko’rinyapti. Qiziq...

– Nima, o’g’lim? – dedi ko’zlarini pirpiratib.

O’g’il taqqa to’xtadi. G’ashi keldi. O’zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo’lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyaпman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko’p. Hali shaharga qaytishi kerak...

Uning g’o’r, go’dak bolalari bor... (O’. Hoshimov)

**119-mashq.** Matnни o‘qing. Tagiga chizilgan chet so‘z va birikmalar-ning qanday badiiy maqsadda qo‘llanganini tavsiflang.



– Mumkinmi? Gud moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o‘zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men, k sojaleniyu, sizning sochineniyelaringizni o‘qigan emasman. Xotya, eshitganman. V osnovnom, mamashkalar haqida yozarkansiz. Itak, to‘rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi, pomoyemu, o‘n to‘rtta. Shu yil o‘n to‘rtga kiradi. Kopiya – papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliymi, ko‘zining razrezi.... Papasi zamministr edi. (O‘: *Hoshimov*)



Sh. Rahmatullayevning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Ko‘zining yog‘ini yemoq** O‘zini kimgadir yaqin ko‘rsatib, uning xayrixohligidan shaxsiy manfaati yo‘lida foydalanmoq.

**Ko‘zining paxtasi chiqmoq** G‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaymoq. *Ma‘nodoshi:* **ko‘zi qinidan chiqib keta yozdi.**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
3. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.
4. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. 2-нашри. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.
5. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараккиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2014.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
9. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
10. Ўзбек тили грамматикаси. I – II томлар. – Тошкент: Фан, 1976.
11. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
12. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.
13. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

## MUNDARIJA

O‘zbek tili va uning taraqqiyoti.....	6
Nutq madaniyati .....	11
Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar .....	16
Nutqning to‘g‘riligi .....	19
Yozma nutqning to‘g‘riligi va me‘yor .....	23
Mustahkamlash .....	26
Nutqning aniqligi.....	29
Nutqning aniqligi va badiiy nutq .....	33
Nutqning mantiqiyliги.....	36
Mantiqiylik va grammatik vositalar.....	40
Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi.....	43
Nutqning sofligi .....	48
Nutqning sofligi va badiiy nutq.....	51
Mustahkamlash .....	54
Nutqning boyligi .....	57
Nutqning boyligini ta‘minlovchi vositalar .....	60
Nutqning jo‘yaliligi .....	65
Jo‘yalilik va uslublar.....	68
Mustahkamlash .....	71
Nutqning ifodaliligi.....	73

Ifodalilik va ibora.....	76
Ifodalilik va ko‘chimlar.....	79
Ifodalilik va kinoya .....	83
Ifodalilik va o‘xshatishlar .....	87
Mustahkamlash .....	91
Nutq madaniyati va nutq texnikasi .....	93
Nutq texnikasida urg‘u va to‘xtam (pauza).....	97
Ish qog‘ozlari ustida ishlash. Bayonnoma .....	100
Bayonnomadan ko‘chirma .....	102
Takrorlash.....	104
Foydalanilgan adabiyotlar.....	108

### **Taqrizchilar:**

- I. Yoʻldoshev** — Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti professori, filologiya fanlari doktori;
- T. Xoljoʻrayev** — Jizzax davlat pedagogika instituti akademik litseyi oʻqituvchisi;
- S. Majidova** — Oʻzbekiston Respublikasi XTV tasarrufidagi filologiya fanlariga ixti-soslashirilgan umumtaʼlim maktabi oʻqituvchisi;
- D. Hoshimova** — Toshkent viloyati, Piskent tumani 7-maktab oʻqituvchisi;
- M. Abdurasulova** — Toshkent viloyati, Yangiyoʻl shahar 10-maktab oʻqituvchisi.

*Nizomitdin Mamadaliyevich Mahmudov  
Yorqinjon Raxmonaliyevich Odilov  
Gulsara Shamsiyevna Ziyodullayeva*

## **ONA TILI**

*Oʻrta taʼlim muassasalarining 11-sinfi va oʻrta maxsus,  
kasb-hunar taʼlimi muassasalari  
oʻquvchilari uchun darslik*

*Birinchi nashri*

«Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti,  
Toshkent—2018

Tahririyat mudiri	<i>Anvar Zulfiqorov</i>
Muharrir	<i>Iroda Solihova</i>
Badiiy muharrir	<i>Asqar Yoqubjonov</i>
Texnik muharrir	<i>Umid Sapayev</i>
Sahifalovchi dizayner	<i>Shaxboz Sirojiddinov</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

18.05.2018.da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90 1/16.  
«Times» garniturası, kegl 11. Ofset bosma. 7,8 nashr tabogʻi.  
8,19 shartli bosma taboq. Adadi 432 771. 18-262-buyurtma.

«Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.  
100011, Toshkent sh., Navoiy koʻchasi, 30.

Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining «Oʻzbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100011, Toshkent sh., Navoiy koʻchasi, 30.

### Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

### Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

<b>Yangi</b>	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
<b>Yaxshi</b>	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarda yozuv va chiziqlar yo'q.
<b>Qoniqarli</b>	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlar qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
<b>Qoniqarsiz</b>	Muqova chizilgan, yirilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.